Q.T.OLIMOV

KASB TA'LIMI METODIKASI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT TEMIR YO‘L MUHANDISLARI INSTITUTI

Q.T.OLIMOV

KASB TA‘LIMI METODIKASI

5140900 (5111000) - “Kasb ta’limi” yo‘nalishi talabalari uchun
o‘quv qo‘llanma

Toshkent - 2012

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
URGANCH FILIALI
AXBOROT RESURS
MARKAZI
№ 52481 20__ yil.

UDK 378.147:1.

Mazkur o`quv qo`llanma kasbiy ta`lim yo`nalishidagi bo`lajak muhandis-pedagoglar uchun mo`ljallangan bo`lib, u kasb ta`limi metodikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, metodologik asoslari, ilmiy tadqiqot usullari, kasbiy ta`lim metodlari, shakllari, vositalari, o`qitish jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va o`tkazish, talabalar bilim, ko`nikma va malakalarini baholash yo`llari, kasbiy faoliyatni tashkil etish masalalarini qamrab olgan.

O`quv qo'llanma institutning O'quv-uslubiy komissiyasi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

Taqrizchilar: X.J.Xudoyqulov – p.f.d., prof.,
O.A.Qo`ysinov – p.f.n., dot.

Kirish

«Ta`lim to`g`risidagi» qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» kasb-hunar ta`limi tizimida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ularda ilmiy dunyoqarashni, mehnatga ijodiy munosabatni tarkib toptirish, ularda yuksak mehnat intizomini shakllantirish vazifasini qo`ydi.

Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2012 yil 28 maydagi "Malakali pedagog kadrlarni tayyorlash hamda o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta`minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to`g`risida"gi qarorida ta`lim jarayonida yangi axborot va pedagogik texnologiyalari, elektron ta`lim resurslaridan hamda multimedia taqdimotlaridan keng foydalanish orqali ta`lim samaradorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etishi ta`kidlangan.

Ishlab chiqarish texnologiyalarining yangilanayotganligi, fan kashfiyotlari va texnikani bevosita ishlab chiqarish kuchiga aylanib borishi mutaxassis kadrlardan o`z bilimlarini mustaqil va muntazam ravishda chuqurlashtirib, yangilab, to`ldirib va kengaytirib borishni talab etadi.

Kasb-hunar ta`limi tizimida malakali kichik mutaxassislarni tayyorlash ko`p jihatdan maxsus fan o`qituvchilari va muhandis-pedagogning kasbiy bilimlari, ko`nikmalari va malakalari hamda pedagogik mahoratiga bog`liqdir.

Ishlab chiqarish ta`limi jarayonida kasbiy ko`nikma va malakalar tizimi yaratiladi, o`quvchilar kerakli ishlab chiqarish tajribasiga, kasbiy mahoratga ega bo`ladilar. Shuning uchun har bir pedagog o`z sohasining ustasi, mohir tarbiyachi, jonkuyar va fidoiy bo`lishi darkor. U o`z ustida tinmay izlanishi, o`z ishiga ijodiy yondoshishi, o`quvchilarni fanga qiziqtira olishi lozim. Bunga erishish uchun esa kasb-hunar kollejlari maxsus fan o`qituvchilari va muhandis-pedagoglari ishlab chiqarish jarayonining va o`z mehnat faoliyatining mazmunini to`g`ri rejalashtira olishi, ta`lim jarayonida pedagogik texnologiyalarni qo`llay olishi, axborot texnologiyalarini bilishi hamda zamonaviy texnik vositalardan dars jarayonida samarali foydalana olishlari lozim. Ta`lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullardan foydalanish, yangi ishlab chiqarilayotgan texnik vositalarni tatbiq qilish, talabalarni ko`proq mustaqil ishlashga undash, ilg`or tajribalardan saboq berishning turli yo`llaridan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Yana bir muhim jihati, oliy ta`lim muassasalarida bo`lajak umumkasbiy, maxsus fan o`qituvchilari va muhandis-pedagoglarning bilim va ko`nikmalarini rivojlantirish,

ularning tanlagan yo`nalishlari bo`yicha kasb sirlarini egallashi uchun yangi darsliklar, o`quv qo`llanmalari bilan ta`minlash lozim.

Zamonaviy o`quv adabiyotlari va elektron ta`lim resurslari bo`lajak o`qituvchilarning ilmiy-nazariy, uslubiy va amaliy bilimlarini oshirishda, ularning kasbga bo`lgan qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu o`quv qo`llanma kasbiy ta`lim yo`nalishidagi bo`lajak muhandis-pedagoglar uchun mo`ljallangan bo`lib, unda kasb ta`limi metodikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, metodologik asoslari, ilmiy tadqiqot usullari, kasbiy ta`lim metodlari, shakllari, vositalari, o`qitish jarayonini rejalashtirish, tashkil etish va o`tkazish, talabalar bilim, ko`nikma va malakalarini baholash yo`llari, kasbiy faoliyatni tashkil etish masalalari bayon etilgan.

Kasb ta`limi metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Reja

1. Kasb ta`limi metodikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.
2. Kasb ta`limi metodikasi fanining boshqa fanlar bilan aloqalari.
3. Kasb ta`limi metodikasi fanining ilmiy tadqiqot metodlari.

O`zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 1997 yil 29-avgustdagi 9-sessiyasida "Ta`lim to`g`risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi. Bu qonun va dastur ta`lim sohasini tubdan isloh qilishga qaratilgan bo`lib, ta`lim sohasini rivojlantirish yo`llarini belgilab berdi.

O`zbekiston Respublikasining "Ta`lim to`g`risida"gi qonunning maqsadi fuqarolarga ta`lim, tarbiya berish, kasb-hunar o`rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta`minlashga qaratilgan.

**Kasb ta`limi metodikasi-** ijtimoiy hayotning ma`lum sohasida faoliyat ko`rsatish uchun zarur bo`lgan bilim, amaliy ish-harakat usullarini shakllantirish qonuniyatlari, qoidalari, shakl, metod va vositalari hamda mazmuni haqidagi pedagogikaning muhim tarmog`idir.

«Kasb ta`limi metodikasi» fani talabalarning pedagogika, psixologiya, umumkasbiy hamda maxsus fanlardan olgan bilim va ko`nikmalarini amalga tatbiq etish, kasb – hunar kollejlarida umumkasbiy va maxsus fanlari bo`yicha dars berishning shart-sharoitlari, tashkiliy shakllari hamda metodlari, shuningdek, ularga oid rejalashtiruvchi hujjatlar mazmuni bilan tanishtiruvchi, ularni tayyorlashni o`rgatuvchi fan bo`lib hisoblanadi. U o`z oldiga har tomonlama barkamol rivojlangan, hozirgi zamon ruhida tarbiyalangan, bozor iqtisodiyoti davrida ta`lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni amalga oshirishga oid dolzarb muammolarni ijobiy hal eta oladigan, milliy istiqlol g`oyasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni chuqur his etib, ularni ta`lim-tarbiya mazmuniga singdira oladigan shaxs – kasb ta`limi o`qituvchisini tayyorlash bilan bog`liq aniq maqsadni qo`yadi.

«Kasb ta`limi metodikasi» fani quyidagi vazifalarni hal etadi:

- pedagogik-psixologik bilimlarni umumkasbiy va maxsus fanlarni o`qitish jarayonida tadbiq etish;
- pedagogik-psixologik bilimlar, bevosita tanlangan sohalarga va yangi pedagogik, axborot texnologiyalari asosida metodik muammolarni hal etish;
- kasb ta`limini o`qitishni tashkil etish hamda uni amalga oshirish metodikasini (har bir kasbga o`rgatishning mazmuni va o`ziga xosligini

mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda) o`rgatish.

«Kasb ta`limi metodikasi» pedagogika, psixologiya, odam anatomiyasi va fiziologiyasi, umumkasbiy, maxsus fanlar bilan uzviy bog`langan. Bilish jarayoni va aqliy rivojlanish psixologiyasi o`quv ustaxonalarida turli buyumlarni texnikaviy loyihalash va modellash jarayonida o`quvchilarda texnik fikrlash hamda konstruktorlik qobiliyatini shakllantirish uchun asos hisoblanadi. Psixologiya o`quvchilarning bilimlarini o`zlashtirishi, mehnat malakalari va ko`nikmalarini hosil qilishi, ularda mustaqillik va mehnatga ijodiy yondashish hissini rivojlantirish qonuniyatlarini ochib beradi. Bu o`quv ustaxonalarida o`quv-tarbiya ishlarini to`g`ri tashkil etishda katta ahamiyatga egadir.

«Kasb ta`limi metodikasi» odam anatomiyasi va fiziologiyasi fani bilan ham uzviy bog`liqdir. Mazkur ikki fan insonning biologik mohiyatini tushunishda baza bo`lib xizmat qiladi. Shu sababli, kasb ta`limi darsida o`quv-tarbiya jarayonini to`g`ri tashkil qilish uchun o`qituvchi, o`quvchi organizmi o`sishi va rivojlanishining biologik qonuniyatlarini bilishi kerak. Bu insonning ruhiy shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlarini ochib beradigan yosh fiziologiyasi va odamning oliy nerv faoliyati fiziologiyasi kursida o`rganiladi.

«Kasb ta`limi metodikasi» o`quv mehnati gigiyenasi bilan ham bog`liq bo`lib, u o`quv ustaxonalarida o`quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda o`qitish hamda tarbiyalashning sanitariya-gigiyena sharoitlarini o`rganadi. Har bir gigiyena sharoiti yaratish (yorug`lik, ozodalik, ventilyatsiya), o`quvchilarning ish o`rnini to`g`ri tashkil etishga, zarur asboblardan, mehnat usullaridan foydalana bilishga o`rgatish – kasb ta`limi o`qituvchisi amalga oshirishi va hayotga tatbiq etishi lozim bo`lgan asosiy masalalardir.

**Kasb ta`limi metodikasi fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.** Har qanday fan, fan sifatida o`zining ilmiy-tadqiqot usullariga ega. Bu usullar orqali o`z mazmunini boyitib, yangilab boradi. Hayot va obyektiv dunyoni bilish nazariyasidada nimani o`rganish va qanday o`rgatish kerak, kimni va qanday tarbiyalash lozim degan masalalar mavjud bo`lib, ular o`zaro uzviy bog`liqdir. Fan mazmunini boyitish va yangilash maqsadida mavjud kasbiy, pedagogik-psixologik hodisa va jarayonlarni, uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keladigan tadqiqot usullari bilan o`rganadi.

Ilmiy pedagogik izlanish jarayonlarini amalga oshirishda quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalaniladi: kuzatish, adabiyotlar bilan ishlash, suhbat, o`quvchilar ijodini o`rganish, test, so`rovnomalar, o`quv muassasasi hujjatlarini tahlil qilish, eksperiment, tajriba-sinov, statistik ma`lumotlarni tahlil etish, matematika-kibernetika va boshqalar.

Kuzatish - odatda tabiiy kuzatish orqali talabalarning fanlarni o`zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o`zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta`lim tarbiya ta`siri ko`rsatish yo`llarini belgilash uchun qo`llaniladi. Bu usul tadqiqotchi pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko`zda tutib idrok etishidan tashkil topadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish obyekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokazolar hisobga olinadi.

Qayd qilish usuliga qarab, kuzatishlar turlarga bo`linadi. Bevosita va bilvosita qayd qilish usuli tadqiqotchiga real pedagogik jarayonda kuzatuvchining hatti-harakatlari kabilarni yozib qo`yish imkonini beradi. Bevosita qayd qilish usuli, biror-bir hodisaning oqibatlari haqidagi faktik materialni boshqa shaxslar orqali yoki qandaydir asbobni qo`llash vositasida natijani olishga imkon beradi. Fan-texnika taraqqiyoti asrida kuzatishning vizual usullari xilma-xil texnika vositalari (kinofilm,videotasvir teleko`rsatuv)dan foydalanish orqali tobora ko`p qo`llanilmoqda.

Suhbat usuli - so`rashning bir turi bo`lgani holda tadqiqotchining jiddiy tayyorgarlik ko`rishini talab etadi. Chunki u tekshirayotgan shaxs bilan bevosita aloqada bo`lish vaqtida og`zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan, erkin muomala shaklida olib boriladi.

Suhbat usulida - o`qituvchilar va talabalar jamoasi bilan ota-onalar va keng jamoatchilik bilan yakka va guruh tarzida ish olib borilganda qo`llaniladi. Suhbat usulidan farqli ravishda intervyu olish usuli oldindan belgilangan savollarni izchillik bilan bayon qilishni nazarda tutadi. Bunda javoblar magnit tasmasiga yoki kassetalarga yozib olinadi. Hozirgi kunda ommaviy so`rash nazariyasi va praktikasida intervyu olishning ko`p usullari mavjud.

**Pedagogik so`rash usuli** – tadqiqotchining boshqa kishilardan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu usulning asosini tashkil qiladi. So`rash usulida savollarning mantiqiy o`ylangan tizimini, ularning aniq ifodalanishini, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat`iy shakldagi javobni ("ha","yo`q") ham taqozo etishi mumkin.

**Test, so`rovnomalar** - so`rovnoma, ya`ni anketa usuli ilmiy farazning yangiligini aniqlash, yakka yoki guruh holdagi talabalarning fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qiziqishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o`tkaziladi.

Test savollaridan ko`zlangan maqsad, oz vaqt ichida talabalarning bilimlarini yoppasiga baholashdir.

Mutaxassislarning bilimini va dunyoqarashini aniqlash uslublaridan biri - bu test yordamidagi sinovdir.

Test yordamida sinov talaba yoki mutaxassisning bilimi, ilmi, ma`naviyati hamda yoshlarning qaysi yo`nalish va mutaxassislikka layoqati borligini, iqtidorini zudlik bilan aniqlash yoki baholashga imkon beradi. Test yordamida Bilimlarni baholashning pedagogika nuqtai nazaridan yutuqlari va kamchiliklari keltirilgan va baholash jarayonini EHM yordamida avtomatlashtirish mumkinligi ta`kidlangan. Test savollari va masalalarining aniqligiga sabab, uning qisqa va lo`ndaligi, umumiy javoblar ichida to`g`ri javobning borligi va ularning talabalarga ko`rsatma bo`lib xizmat qilishi,uning topishmoqli o`yinga o`xshashligi va javobni topishda xotira, ichki tuyg`u va topqirliklar qo`l kelishidir. Test savollarini chop etish talabalarning mustaqil ishlashini yanada faollashtiradi.

Test sinovlari usuli - yozma javoblarni ommaviy ravishda yig`ib olish usulidir. Test so`rovlarini (anketalarini) ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon. Pirovard natijada Tadqiqot natijalarining ishonchliligi anketalar mazmuniga, berilayotgan savollar shakliga, to`ldirilgan anketalar soniga bog`liq bo`ladi. Odatda test savollari kompyuterda ma`lumotlarni matematik statistika metodlari bilan ishlash imkonini beradigan qilib tuziladi.

Eksperiment-tajriba-sinov usuli - ushbu tajriba ta`lim-tarbiya jarayoniga aloqador ilmiy faraz yoki amaliy ishlarning tadbiqiy jarayonlarini tekshirish, aniqlash maqsadida o`tkaziladi.

**Statistika ma`lumotlarini tahlil qilish usuli** – ta`lim sohasidagi, jumladan, ajratilgan mablag`larning doimiy o`sib borishi, darslik va o`quv qo`llanmalari, ko`rgazmali qurollar, o`qituvchi kadrlar tayyorlash, ta`lim muassasalarining qurilishi, xo`jalik shartnomalari va ulardan tushayotgan mablag`lar statistika usuli orqali aniqlanadi.

Matematika va kibernetika usullari - o`qitish nazariyasi, amaliyotida hisoblash matematikasi va kibernetikasi mashinalari yordamida bir tildan ikkinchi tilga tarjima, dasturli ta`lim va uni mashina orqali boshqarish, o`qitishni mustahkamlash, baholash orqali ta`lim-tarbiya samaradorligini oshirish, differensial va individual ta`lim berish kabi jarayonlardir.

Ijtimoiy tadqiqot usuli - anketaga savollar kiritiladi. Bundan maqsad, talaba-yoshlarning kasb-hunarga bo`lgan qiziqishlarini, talabalar orasidagi do`stlik munosabatlarini, o`quv yurtidagi shart-sharoitlarni bilish, yutuq va kamchiliklarni, dinga, xususan, tasavvuf ilmiga qiziqishlarini aniqlash, talabalarning ma`naviy sifatlarini, bilim olishga ishtiyoqi, adabiyotlar bilan ta`minlanganlik darajasi, o`quv taqsimoti, o`qituvchilarning bilim berish darajasi, o`quv qo`llanmalarining sifati, kompyuterda mashg`ulot o`tkazish turlarini o`rganish, ilmiy va kasbiy mahoratni oshirishdagi mashg`ulotlar

turi, stipendiyalar miqdori, stipendiyalar talabalarning xarajatini qanchalik qoplashi, talabalarning haq to`lanadigan ishlarda qat-nashishi, ota-onalarining moddiy yordami, ularning ma`lumoti, ish joyi, talabalar ko`p boradigan jamoat joylari, yashash joyi, ilmiy dunyoqarashining shakllanishiga ta`sir etuvchi, mutaxassis bo`lib yetishishida hal qiluvchi omillar, talabalarning ongliik darajasi, komil inson bo`lish uchun kerakli bo`lgan ma`naviy sifatlar, o`zlashtirganlik darajasi haqidagi savollar anketaga kiritiladi. Savol-javoblarning barchasi kompyuterda qayta ishlanadi va xulosalar chiqariladi.

Fanning ilmiy-tadqiqot usullari qanchalik to`g`ri tanlansa ta`lim-tarbiya mazmunini yangilash va takomillashtirish shu darajada yaxshilanadi, rivojlantirilib, boyitib boriladi.

Kasb ta`limi muammolariga qaratilgan ilmiy izlanishlar o`tkazishdan maqsad, bo`lajak kichik mutaxassislarni o`zi tanlagan kasbiga o`qitish va o`rgatishning samarali metodlarini ishlab chiqish va amalda qo`llash, texnik vositalarni qo`llashga doir masalalarni yechishni o`rganishdan iboratdir. Ilmiy izlanishlar olib borish uchun o`qituvchidan fanning mazmunini chuqur bilish talab etiladi. Ko`pchilik bo`lajak pedagoglar talabalik vaqtlarida-yoq pedagogik izlanishlar bilan shug`ullanadilar. Fan bo`yicha metodik ko`rsatmalar, maketlar, mustaqil ishlar uchun materiallar tayyorlaydilar. Ilmiy anjuman va seminarlarda ma`ruzalari bilan qatnashib, o`zlarining pedagogik mahoratlarini oshirib boradilar.

Ilmiy pedagogik izlanishlar jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo`lish mumkin:

1. O`qituvchining adabiyotlarni o`rganish va amaliy ishlar asosida muammolarni aniqlash. Bunda o`rganilayotgan muammo to`g`risida adabiyot muallifining fikr-mulohazalari; o`rganilayotgan muammo to`g`risida usullardan farqli ravish kiritgan takliflari; adabiyotlarda qaysi asosiy masalalar yoritilmagani; muammoni yechish uchun olib boriladigan izlanishlar aniqlanadi.
2. Kuzatish metodi orqali o`qitish jarayonida yuzaga keladigan muammolar o`rganiladi. (o`qituvchi dars jarayonida duch keladigan qiyinchiliklar, kamchilik va qiyinchiliklarning yuzaga kelish sabablari, tajriba-sinov orqali yangiliklar bosqichma-bosqich o`qitish jarayoniga tatbiq etiladi, natijalar esa test, suhbat, so`rovnomalar orqli o`rganilib boriladi. statistik ma`lumotlarni tahlil etish va matematika-kibernetika metodlari yordamida dalillarni taqqoslash orqali asoslangan taklif beriladi.
3. Izlanish natijalarini rasmiylashtirish va o`quv jarayonida qo`llash.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent., Sharq, 1998. - 64 b.
2. Kasb ta`limi uslubiyati/Olimov Q.T., Abduquddusov O., Uzoqova L., Ahmedjonov M., Jalolova D.-Toshkent., Iqtisod moliya, 2006. - 192 b.

Nazorat savollari

1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining mazmuni va uning mohiyatini tushuntirib bering?
2. Kasb ta`limi metodikasi fanining predmeti, maqsadi va vazifalarini tushuntiring?
3. Kasb ta`limi metodikasi qaysi fanlar bilan o`zaro uzviy bog`liq?
4. Kasb ta`limini ilmiy tadqiqot metodlari to`g`risida tushuncha bering.

Topshiriq

Ilmiy pedagogik izlanishlarni amalga oshirish bosqichlarini yozma izohlang.

№	Ilmiy pedagogik izlanishlarni amalga oshirish bosqichlari							
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1								
2								
3								
4								

Kasb-hunar ta`limi mazmuni

Reja

1. O`rta maxsus, kasb-ta`limi tayyorlov yo`nalishlari, kasblar va ixtisosliklarning umumdavlat "Tasniflagichi"
2. Kasb-hunar ta`limi mazmuni
3. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi tizimidagi asosiy o`quv- me`yoriy hujjatlar

O`zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishib, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning o`ziga xos yo`lini tanlashi kadrlar tayyorlash tuzilmasi va mazmunini qayta tashkil etishni zarur qilib qo`ydi. "Ta`lim

to`g`risida"gi qonunning joriy etilishi yangi o`quv rejalari, dasturlari, darsliklarni hamda zamonaviy didaktik ta`minotni ishlab chiqishni va tadbiq etishni taqozo qildi.

Shu nuqtai nazardan Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta`lim jarayoni, mazmunini isloh qilish, asosan, me`yoriy hujjatlar majmui (davlat ta`lim standarti, o`quv rejalari va dasturlari) asosida, kadrlarga ta`lim va tarbiya berish milliy istiqlol g`oyalariga muvofiq amalga oshirilishi alohida ta`kidlab o`tilgan.

Ta`lim yo`nalishlari mutaxassisliklar va kasblar tasniflagichi O`zbekiston Respublikasining axborotlarni kodlashtirish va tartibga solish yagona tizimining tarkibiy qismidir.

O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limining ta`lim yo`nalishlari mutaxassisliklar va kasblar tasniflagichi-O`MKHTi o`quv muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash bo`yicha ta`lim yo`nalishlari, mutaxassisliklar va kasblarning tizimlashtirilgan ro`yxatidir.

Unda quyidagi sakkizta ta`lim, gumanitar fanlar va san`at, ijtimoiy fanlar, biznes va huquq, fan, muhandislik, ishlov berish va qurilish tarmoqlari, qishloq xo`jaligi, sog`liqni saqlash va ijtimoiy ta`minot va xizmatlar kabi bilim sohalari bo`yicha mutaxassislar tayyorlash ko`zda tutilgan.

Tasniflagichda ta`lim bosqichlari, bilim va ta`lim sohalari, ta`lim yo`nalishlari va mutaxassisliklari yettita raqamli kod bilan belgilanadi. Bunda mutaxassislik kodi; yo`nalish kodi; ta`lim sohasi kodi; bilim sohasi kodi; ta`lim dasturlari bosqichi kodi keltiriladi.

O`MKHT tayyorlov yo`nalishlari va mutaxassislar kodi- kasbiy faoliyat sohalariga muvofiq kasblar va mutaxassisliklar bo`yicha tayyorlov yo`nalishlari ixtisoslashtirilgan ro`yxatining raqamli belgisidir.

1-raqam ta`lim dasturi bosqichi kodi; 2-raqam bilim sohasi kodi; 3-raqam ta`lim sohasi kodi; 4-5 raqamlar tayyorlov yo`nalishi kodi; 6-7 raqamlari mutaxassisliklar kodini bildiradi.

Ta`lim to`g`risida"gi qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", davlat ta`limi standarti va o`quv rejasi kabi me`yoriy hujjatlarda bugungi kunda yosh avlodga ta`lim-tarbiya berishga qo`yilgan talablar o`z aksini topgan. Ushbu hujjatlarda chuqur bilimli, erkin fikrlovchi, o`zida yuksak insoniy fazilatlarni mujassam etgan barkamol shaxsni tarbiyalash birinchi galdagi vazifa etib belgilangan.

Ta`limni standartlashtirish – bu butun dunyo kasb-hunar ta`limini islohotlashtirishdagi eng yirik tendensiyalardan biridir. Jamiyatda sodir bo`layotgan bugungi yangiliklar hamda iqtisodiy o`zgarishlar ta`lim tizimiga xususan o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limiga boshqacha yondashishni talab

O`rta maxsus, kasb-hunar ta`liminining tayyorlov yo`naiishlari mutaxassisliklar va kasblar
T A S N I F L A G I C H I

Ta`lim yo`nalishlari nomi	Ta`lim yo`nalish-lari kodi	Ixtisosliklar	Mutaxassislik lar kodi	Kasblar
Yer usti transport tizimlari	3521100	Temir yo`l stansiyalarining markazlashtirilgan stansiya posti navbatchisi; poyezdlar tuzuvchisi; saralash tepechasi operatori	3521105	Temir yo`l stansiyalaridan foydalanish va xizmat ko`rsatish texnigi
Yer usti transport tizimlari	3521100	Lokomotiv mashinist yordamchisi Lokomotivlarni ta`mirlash bo`yicha chilangar Operativ hisoblash guruhi, nazorat tizimi diagnostika posti operatori	3521106	Temir yo`l transporti vositalaridan foydalanish va ta`mirlash bo`yicha mexanigi
Yer usti transport tizimlari	3521100	Logistik markazning texnik-operatori Tovar (yuk)kassiri Yuk va bagajlarni qabul qiluvchi va topshiruvchi	3521114	Temir yo`l sohasida mijozlarga xizmat ko`rsatish bo`yicha texnik

qiladi. Shunday ekan, o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi standartlarini ishlab chiqmasdan turib, jahon bozoriga chiqa oladigan, kasbiy mohirlik darajasi yuqori bo`lgan, raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlab bo`lmaydi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadi va amalga oshirish vazifalaridan biri, ta`lim oluvchilarning tayyorgarlik sifati va ixtisosiga zaruriy talablarni, ularning madaniy va ma`naviy – ruhiy darajalarini aniqlab beruvchi davlat ta`lim standartlarini yaratish va tatbiq etishdir.

Xalqaro talablarga javob beruvchi o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi davlat standartlarini (DTS) ishlab chiqish O`zbekiston Respublikasi va rivojlangan mamlakatlarda kasb-hunar ta`limi ekvivalentligini hamda o`z navbatida mamlakatimizning xalqaro mehnat bozorida to`siqlarsiz ishtirok etishini ta`minlaydi, ikkinchidan ta`lim xizmatlari sifatiga aniq (qat`iy) talablarni belgilab qo`yish muassasalari ishining samaradorligini nazorat qilish tizimini tartibga soladi.

Davlat ta`lim standartlari. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida»gi Qonunning 7-moddasiga, Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq Respublikada idoraviy bo`ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat`iy nazar ta`lim muassasalarining barcha turlari uchun majburiy bo`lgan davlat ta`lim standartlari (DTS) belgilanadi.

DTS-standartlashtirish obyektiga nisbatan me`yorlar va talablarni belgilaydi hamda «Standartlashtirish to`g`risida»gi O`zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq tasdiqlanadi.

DTS kadrlar tayyorlash sifatiga, ta`lim mazmuniga nisbatan qo`yiladigan talablarni; ta`lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarlicha darajasini hamda ta`lim muassasalarini bitiruvchilarga nisbatan qo`yiladigan malaka talablarini; o`quv yuklamasining zarur hajmini; ta`lim muassasalari faoliyatini va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartibi va mexanizmini belgilaydi.

DTS ta`lim jarayonini va ta`lim muassasalari faoliyatini baholashni tartibga soluvchi boshqa me`yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

**Davlat ta`lim standartlarining maqsad va vazifalari.** Davlat ta`lim standartlari joriy etilishi quyidagi maqsadlarni amalga oshirilishini nazarda tutadi:

1) ta`limning yuksak sifatini hamda mamlakatda amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar;
2) demokratik davlat barpo etish talablariga javob beruvchi kadrlar tayyorlanishini ta`minlash;
3) mamlakatning ijtimoiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan-texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chi-

qib, kadrlar tayyorlash mazmunini tartibga solish;

4) ta`limning demokratiyalashuvi, insonparvarlashuvi va ijtimoiylashuvi, ta`lim oluvchilarning huquqiy-iqtisodiy bilimlari darajasini, shuningdek ta`lim jarayoni samaradorligini oshirish;
5) sifatli ta`lim xizmatlari ko`rsatish, ta`lim va kadrlar tayyorlash sohasida shaxsning, jamiyat va davlatning manfaatlarini himoya qilish;
6) kadrlar tayyorlash sifatini va ta`lim faoliyatini baholash mezonlarini va tartibini belgilash;
7) ta`lim jarayoni va kadrlar tayyorlashning izchilligi va uzluksizligini ta`minlash, ta`limning barcha turlari va bosqichlarida o`quv-tarbiya jarayonini maqbullashtirish;
8) mehnat va ta`lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlilikni ta`minlash;

Davlat ta`lim standartlarining vazifalari:

- ta`lim sifatiga va kadrlar tayyorlashga, ko`rsatiladigan ta`lim xizmatlari nomenklaturasiga nisbatan qo`yiladigan maqbul talablarni belgilash;
- ta`limga va uning pirovard natijalariga, ta`lim oluvchilarning bilimi va kasbiy malakasi darajasini vaqti-vaqti bilan baholash tartibi va tartibotiga, shuningdek ta`lim faoliyati sifati ustidan nazorat qilishga nisbatan qo`yiladigan tegishli talablarni belgilovchi me`yoriy bazani yaratish;
- xalqning boy ma`naviy merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida ta`lim oluvchilarni ma`naviy-axloqiy tarbiyalashni samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ta`limning barcha turlarida olib boriladigan ta`lim va tarbiyani kelishib olish, ularning o`zaro bog`liqligini, uzluksiz ta`lim tizimida va kadrlar tayyorlashda izchillikni ta`minlash;
- o`quv-tarbiya va ta`lim jarayoniga, uzluksiz ta`lim tizimining pedagogik texnologiyalariga va axborot bilan ta`minlanishiga, ta`lim darajasini nazorat qilishga, ta`lim muassasalarida ta`lim oluvchilar va ularni bitiruvchilarning malakasiga nisbatan me`yorlar va talablarni belgilash;
- ta`lim va kadrlar tayyorlash sifatiga baho berishning xolis tizimini, ta`lim muassasalarini attestatsiyadan o`tkazish va akkreditatsiya qilishni joriy etish;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta`lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta`minlash;
- milliy standartlar talabining ta`lim sifati va kadrlar tayyorlashga nisbatan xalqaro talablarga muvofiqligini ta`minlash;

Ta`limning standartlashtiriladigan turlari.

DTS-ta`limning umumiy o`rta ta`lim, shu jumladan boshlang`ich ta`lim; o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi (akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari); oliy ta`lim (bakalavriat, magistratura) turlari uchun belgilanadi.

Maktabgacha, maktabdan tashqari, oliy o`quv yurtidan keyingi ta`lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uchun davlat boshqaruvining vakolatli organlari tomonidan davlat talablari belgilanadi.

**O`MKHTni standartlashtirishda** ta`limning uzluksizligi va uzviyligi, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishi, fan – texnika, texnologiyalarning istiqbolli rivojlanishi, jamiyat talablari va ularning zamonaviy holatini hisobga olish, ta`lim, fan va ishlab chiqarishni mujassamligi, fan, texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlariga, respublika va chet el ilg`or tajribalariga mos kelishi kabi tamoyillariga rioya etiladi.

*Kasb-hunar ta`limi tarmoq standarti* – yo`nalishlar bo`yicha kichik mutaxassislarni tayyorlashning zarur va yetarli mazmuni hamda pirovard maqsadlarini aniqlaydi, ta`lim oluvchilarning o`quv yuklamalari hajmi va standart sifatlari nazoratini belgilab beradi.

O`MKHT tarmoq standarti quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

1) Qo`llanish sohasi.
2) Me`yoriy hujjatlar
3) Standartning maqsadi va vazifalari.
4) Ta`riflar
5) Kasbiy tavsifnoma.
6) Kasbiy tayyorgarlik mazmunining zarur va yetarli hajmi
7) Ta`lim dasturining tarkibi va mazmuni
8) Standart talablarining bajarilishini nazorat qilish.

**1. Qo`llanish sohasi.** Ushbu standart yo`nalishi bo`yicha kichik mutaxassislarni tayyorlashning zarur va yetarli mazmuni va pirovard maqsadlarini aniqlaydi, taúlim oluvchilarning o`quv yuklamalari hajmi va standart sifatlari nazoratini belgilab beradi.

Standart talablari ta`lim oluvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifati va darajasini baholashda hamda o`quv muassasalarini attestatsiyadan o`tkazishda asosiy mezon hisoblanadi. Ushbu talablarning bajarilishi o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi o`quv muassasalarining bitiruvchilariga kasbiy ta`limning tegishli darajasini olganligi to`g`risidagi davlat namunasidagi hujjat berilishi uchun asos hisoblanadi.

Standart talablari o`zining idoraviy bo`ysunishi va mulkchilik shakllaridan qat`iy nazar ta`limni boshqarish davlat organlari va ta`lim faoliyati subyektlari tomonidan tatbiq etilishi majburiydir.

2. Me`yoriy hujjatlar.

1. O`zbekistan Respublikasining "Ta`lim to`g`risida"gi qonuni.
2. O`zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to`g`risida"gi qonuni.

3. O`zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to`g`risida»gi qonuni
4. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 – yanvardagi 5-sonli "Uzluksiz ta`lim tizimi uchun davlat ta`lim standartlarini ishlab chiqish va joriy qilish to`g`risida»gi qarori.
5. Oz Dst 983:2001 O`zbekiston Respublikasi uzluksiz ta`lim davlat standartlari. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi. Asosiy qoidalar.

3.Standartning maqsadi va vazifalari.

Standartlashtirishning maqsadi:

1. Yo`nalishi bo`yicha sifatli kasbga o`rgatishning davlat tomonidan kafolatlanishini va uning ekvivalentligini mehnat bozori talablariga mos holda davlat va nodavlat muassasalari darajasida ta`lim xizmati mazmuni va yakuniy maqsadi talablari reglamentiga to`g`ri kelishini ta`minlash.
2. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi tizimi, mehnat bozori va jamiyat o`rtasidagi o`zaro hamda qayta munosabatlarni qonuniy ravishda o`rnatishdan iborat.

Standartlashtirishning asosiy vazifalari quyidagilardir:

1. Kichik mutaxassislar tayyorlash sifatiga qo`yiladigan zaruriy talablarni belgilash.
2. Tayyorlov yo`nalishi bo`yicha Davlat ta`lim standartlari talablarini rivojlangan mamlakatlarning shu yo`nalishdagi standart talablari bilan muvofiqlashtirish.
3. O`quv reja va dasturlar, bitiruvchilarga beriladigan diplom va sertifikatlar hamda ularning egallagan bilim, ko`nikma va malakalarini o`zlashtirish darajalarini nazorat qilish usullari va baholash mezonlari to`g`risidagi me`yoriy hujjatlarni ishlab chiqish uchun zamin yaratish.

4. Ta`riflar.

4.1.O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarida tayyorlov yo`nalishi kasb faoliyatining aniq sohasi bo`yicha kasb ta`limi mutaxassislarini tayyorlash.

4.2.Kasb - inson mehnat faoliyati mahsuli bo`lib, maxsus kompleks tayyorlash davrida va ish tajribalari asosida egallagan nazariy bilim, amaliy ko`nikma va malakalar majmuidir.

4.3.Mutaxassislik - maxsus tayyorlov davrida va ish tajribalari asosida ma`lum faoliyat uchun o`zlashtirilgan bilim, ko`nikma va malakalardan iborat majmuadir.

4.4. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi tarmoq standartida quyidagi o`z-

lashtirish darajalaridan foydalaniladi:

1-daraja - avval o`rganilgan obyektlar, xususiyatlar, jarayonlarni tanish, yordamga tayangan holda amallarni bajarish.

2-daraja - namunaviy amallarni mustaqil ravishda yoddan bajarish.

3-daraja - avvaldan o`rganilgan namunaviy amallar asosida bajarilish lozim bo`lgan yangi faoliyat algoritmini yarata olishi, mahsuliy faoliyat ko`rsatish.

5. Kasbiy tavsifnomada tayyorlov yo`nalishi, kasbi, mutaxassisliklar, yo`nalishning qo`llanish sohasi va vazifalari, malaka keltiriladi.

Standartda belgilangan zarur va yetarli mazmunni, kasbiy ta`lim, dasturlarni muvaffaqiyatli o`zlashtirgan shaxslarga kichik mutaxassis malakasi beriladi.

- kasbiy ta`limni chuqurlashtirish maqsadida kadrlar malakasini oshirish tizimida, tarmoq o`quv muassasalarida va maxsus kurslarida keyinchalik malakani oshirish amalga oshiriladi
- oliy o`quv yurtlarida kasbiy faoliyatning mazkur sohasida yanada yuqoriroq malakaga erishiladi.

Mazkur tayyorlov yo`nalishi bo`yicha kasb olish uchun umumta`lim darajasi - umumiy o`rta. Umumta`lim maktablarida o`qitilgan fanlar asosida o`zlashtirilgan bilimlar mazkur kasbni egallash uchun zamin bo`ladi.

Ruhiy - fiziologik fazilatlar minimumi: kuzatuvchanlik, diqqatchanlik, qo`l, oyoq harakati senso-motor muvofiqlashtirilishi to`g`riligi, har tomonlama tez fikrlash va faraz qilish, yorug`likni sezish, faol va tez xotirlash, harakat xotirasi, bejirimlik va o`tiruvchanlik kabi talablar qo`yiladi.

5.5. Kasbiy faoliyatning mazmuniy ko`rsatkichlari

Texnologik jarayon sxemasiga binoan faoliyat turlari	Maxsus talablar	Ko`nikmalar	Bilimlar

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
URGANCH FILIALI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 52481

6. Kasb-hunar ta`limi mazmunining zarur va yetarli hajmi

O`quv sikllari	Fanning nomi	O`quv elementlari va ularni o`zlashtirish darajasi
Kasbiy.	1. Mutaxassis-likka kirish.	– «Ta`lim haqida», «Kadrlar tayyorlashni milliy dasturi», «O`rta maxsus va kasb-hunar ta`limi to`g`risida»gi qonunlarni va ularning tanlangan kasbni rivojlantirishdagi o`rni. Kasb-hunar tasnifi va bozor iqtisodiyoti. – O`qitish jarayonining shakllari, reyting usuli va mutaxassislar tayyorlashda ijtimoiy, siyosiy va kasbiy fanlarning ahamiyati, kitob bilan ishlash. – O`qituvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish, ijodkorlik va o`quv tadqiqotchilik ishlariga jalb qilish.(2)

6.1. Ta`lim dasturining tarkibi va mazmuni

6.2. Yo`nalishi bo`yicha kichik mutaxassis tayyorlash ta`lim dasturi kunduzgi o`qish bo`yicha 3 yilga mo`ljallangan va jami 144 hafta u quyidagicha: nazariy o`qitish 100 hafta, malakaviy amaliyot 10 hafta, bitiruv malakaviy ish - 8 hafta, attestatsiya - 2 hafta, ta`tillar - 24 haftaga taqsimlangan.

6.3. Talabalarning bir haftalik eng yuqori o`quv yuklamasi 54 soat, bundan 38 soatgacha auditoriyada o`qish, 16 soati – mustaqil ish.

6.4. Uch yil davomida ta`lim dasturining mehnat sig`imi 6480 soat.

Ta`lim dasturini o`zlashtirishda, o`quvchi, fanning qator masalalari yoki muammolari bo`yicha mustaqil bilim olishi ham ko`zda tutilishi kerak.

6.2. Fanlar bloklari bo`yicha ta`lim dasturi tarkibi

№	Bloklar nomi	Soatlar miqdori		
		Mehnat sig`imi	Auditoriya	Mustaqil ish
1.	Umumta`lim fanlar	2833	1994	839
2.	Umumkasbiy fanlar	302	212	90
3.	Maxsus va kasbiy fanlar	980	690	290
4.	O`quv amaliyoti	1177	828	349
5.	Ishlab chiqarish amaliyoti	921	648	273
6.	Davlat attestatsiyasi	102	72	30
7.	Kollej ixtiyoridagi soat	165	116	49
	Jami	6480	4560	1920

Mustaqil ish, bilim olishning mustaqil shakli bo`lib, o`quvchi dasturdagi materiallarning bir qismini o`qituvchi rahbarligi ostida mustaqil bajarib o`rganishi tushuniladi.

Standart talablarining bajarilishini nazorat qilish. O`MKHT sifatini nazorat qilish quyidagi usullarda olib boriladi:

Ichki nazorat - O`MKHT muassasasi tomonidan amalga oshiriladi;

o`qitish sifatining ichki nazorati ta`limni boshqarish bo`yicha vakolatli davlat organi tasdiqlagan «Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari o`quvchilarining bilim saviyasi, ko`nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi to`g`risida»gi Nizom asosida reyting-nazorat shaklida o`tkaziladi. Nazoratning reyting tizimi quyidagi nazorat tadbirlari o`tkazilishini ko`zda tutadi:

- *joriy nazorat* – og`zaki so`rov, kollokviumlar, seminarlar, yozma ishlar, laboratoriya ishlari, texnikaviy diktant, kurs loyihalari, uy vazifasi va hokazo, ya`ni o`qituvchi o`z amaliyotida qo`llaydigan barcha so`rov turlarini o`z ichiga oladi.
- *oraliq nazorat* – fanning ma`lum bir qismi, bo`limi yakunlangandan so`ng o`tkaziladi. Oraliq nazoratning o`tkazilish tartibi, shakli ta`lim muassasasining ilmiy-pedagogik kengashi tomonidan belgilanadi.
- *yakuniy nazorat* – semestr tamom bo`lganda va o`quv dasturining tegishli bo`limi tugallangandan keyin amalga oshiriladi Yakuniy nazoratning o`tkazilish tartibi, shakli ta`lim muassasasining ilmiy-pedagogik kengashi tomonidan belgilanadi. *Tashqi nazorat* - O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Davlat test markazi tarkibidagi Kadrlar tayyorlash sifatini nazorat qilish, pedagog kadrlar va ta`lim muassasalari attestatsiyasi boshqarmasi tomonidan tayyorlan-gan «Ta`lim muassasalari va pedagogik kadrlarning davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasi haqidagi Nizom» va amaldagi me`yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi; *Davlat-jamoat nazorati* – ta`limni boshqa-ruvchi vakolatli davlat organi va u bilan kelishilgan holda jamoat tashkilotlari va kadrlarga talabgorlar tomonidan amalga oshiriladi; *Yakuniy davlat attestatsiyasi* – davlat imtihonlari va malakaviy bitiruv diplom ishi(loyiha)ni himoya qilish bilan yakunlanadi.

Ta`lim-tarbiya jarayonini tashkil etishni rejalashtiruvchi asosiy hujjat o`quv reja va dasturlar hisoblanadi. O`quv rejasi kasb-hunar ta`lim muassasalarida ta`lim - tarbiya jarayonini samarali tashkil etishni, o`quv fanlarini alohida o`rganish sur`atini ta`minlovchi hujjatdir.

**O`quv reja**-ta`limning va umumiy shartlar hajmi, fanlarni o`rganish ketma-ketligini belgilaydi. Bu hujjat mazmunida ta`lim muddati, ta`limning tuzilishi va tartibi, o`rganilayotgan fanlar ro`yxati ketma-ketligi har bir predmet vaqtlari bo`yicha har bir predmetga ajratilgan soatlar soni ko`r-satiladi. O`quv ishlarini rejalashtirishga asos bo`lib xizmat qiladi.

O`quv reja maqsad va vazifalari, mohiyatiga ko`ra tayanch, namunaviy

va ishchi o`quv rejasiga bo`linadi.

**Tayanch o`quv rejalari**-kasb-hunar kollejlarining yo`nalishidan qat`iy nazar tuzilib, umumta`lim fanlar, umumkasbiy fanlar, maxsus fanlar, o`quv amaliyoti ishlab chiqarish amaliyoti, davlat attestatsiyasi va kollej ixtiyoridagi soatlar bir xil beriladi. Kasb-hunar kollejlari uchun tayanch o`quv rejasi quyidagi shaklda keltirilgan.

Kasb-hunar kollejlari uchun tayanch o`quv rejasi

№	Fanlar	Soatlar miqdori	Umumiy yuklamaga nisbatan foiz hisobida
I	Umumta`lim fanlari	1994	43,7%
II	Umumkasbiy fanlar	316	7,0%
III	Maxsus fanlar	946	20,7%
IV	O`quv amaliyoti	465	10,2%
	Ishlab chiqarish amaliyoti va diplom oldi amaliyoti	648	14,2%
V	Davlat attestatsiyasi	72	1,6%
VI	Kollej ixtiyoridagi soat	119	2,6%
	Jami:	4560	100%

**Namunaviy o`quv rejasi** - ta`lim mazmunidan kelib chiqib, kasb-hunar kollejlari tayyorlov yo`nalishlari bo`yicha alohida tuziladi. Ular o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarining ishchi o`quv rejalarni ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi. Namunaviy o`quv rejasida o`quv yili 40 hafta va 2 semestrdan iborat. Har bir semestr 20 haftani o`z ichiga oladi. O`quv rejasi loyihasi shu sohada tajribaga ega bo`lgan mutaxassislar guruhi tomonidan tayyorlanadi. O`quv rejasi loyihasi Respublika komissiyasiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Ayrim hollarda o`quv rejasi loyihasi markazning ilmiy-metodik kengashi tomonidan ham tasdiqlanishi mumkin. Fanlarning o`quv namunaviy dasturi muayyan predmetlar bo`yicha ta`lim mazmunining zaruriy minimumini va o`quv materiallarini o`zlashtirish darajasini batafsil ochib beruvchi hujjat hisoblanadi. U mutaxassis fan o`qituvchilari tomonidan tuziladi va O`MKXT Markazi tomonidan tasdiqlanadi.

**Ishchi o`quv rejasi**- muayyan ta`lim muassasasi uchun o`qitish jarayonining kalendar tuzilmasini va bosqichlarini ifodalaydigan, namunaviy o`quv rejasi asosida ishlab chiqiladigan hujjat hisoblanadi. U tayyorlov yo`nalishi xususiyatlaridan kelib chiqib, o`quv yurtlari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

O`quv rejasi – har bir yo`nalish uchun alohida tuzilib, vazirlik tomoni-

dan tasdiqlanadi. Unda quyidagilar o`z ifodasini topadi: tayyorlov yo`nalishi (ixtisoslik) kodi va uning nomlanishi; o`qish muddati; o`qishni tugatgandan so`ng olinadigan akademik darajasi; ta`lim shakli; o`quv davrining taqsimoti (jadvali); o`quv jarayonining rejasi; o`rganiladigan o`quv predmetlari; har bir o`quv predmetini o`rganish uchun ajratilgan umumiy vaqt miqdori; o`rganish uchun ajratilgan vaqtni-ma`ruza, amaliy mashg`ulot, laboratoriya ishlari, seminarlar, kurs loyihalari va mustaqil ta`limga qanday miqdorda taqsimlanganligi, o`quv predmetini qaysi bosqich, semestrlarda, haftasiga qancha soatdan o`rganish tartibi; davlat attestatsiyasi; tanlov fanlarining ro`yxati; izohlar.

O`quv rejalari mazmuni va tuzilishiga mos holda quyidagi omillarga e`tiborni qaratmoq lozim:

- Ta`lim va tarbiyaning maqsadli yo`naltirilganligiga;
- Mehnat va ishlab chiqarish jarayonining tuzilishiga;
- Ta`lim- tarbiya jarayonining qonuniyatlariga.

O`quv rejalarini ishlab chiqishda bo`lg`usi mutaxassislarda shakllantirilayotgan malaka mahoratlari darajasining o`rganilayotgan o`quv fanlari miqdoriga va o`rganish davriga aniq mos tushishini e`tiborda tutmoq lozim. Bo`lg`usi mutaxassislarning bilim va ko`nikmalari shakllanishini, har bir fanni bosqichma-bosqich chuqur o`rganishlari, qulay va muhimligini ham nazarda tutishi kerak bo`ladi.

O`quv-dasturiy hujjatlar tuzilmasi va mazmunini ishlab chiqish, o`qitish jarayonini takomillashtirish va mehnat bozori talablariga javob beradigan malakali kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

O`quv rejalarini tuzish va takomillashtirish

Namunaviy o`quv rejalari o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarining ishchi o`quv rejalarini ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi. Namunaviy o`quv rejasida o`quv yili 40 hafta va 2 semestrdan iborat. Har bir semestr 20 haftani o`z ichiga oladi.

Namunaviy o`quv rejalarida umumiy 4560 soatdan 80-220 soat ta`lim muassasasi ilmiy-pedagogik kengashi qarori bilan kiritiladigan fanlar uchun ajratiladi.

Ta`lim muassasalari o`quvchilarining haftalik yuklamasi 54 soatni tashkil etadi. Bundan 16 soati mustaqil ishlashga ajratiladi. Ta`lim muassasalari ilmiy-pedagogik kengashlariga ishchi o`quv rejalarini tuzishda namunaviy o`quv rejalarini ta`lim standartlari talablari doirasida 15-20 % gacha o`zgartirish huquqi beriladi. Quyida namunaviy o`quv rejasining ko`rinishi keltirilgan:

Tasdiqlayman»
O`zbekiston Respublikasi Oliy va
o`rta maxsus ta`lim vaziri
___ ____________ 2011 yil

Kasb-hunar kollejlarining
3840020. Avtomobillarga texnik
xizmat ko`rsatish va ta`mirlash
yo`nalishi bo`yicha

Namunaviy o`quv reja

[redacted]: Kod:3840021
Avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatish
Kasblar:
1. Avtomobillarga texnik xizmat
Ko`rsatish chilangari
2. Avtomobil elektr jixozlarini
ta`mirlash elektrigi
3. «V» va «S» toifali haydovchi
O`qish muddati 3 yil

I. O`QUV JARAYONI JADVALI

Kurs	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42
	H a f t a l a r																																									
I																		T	T																							
II																		T	T														I	I	I	I	I	I	I	I	I	I
III																		T	T														I	I	I	I	I	I	B	B	D	D

	Nazariy va amaliy ta`lim	T	Ta`til	I	Ishlab chiqarish amaliyoti	B	Bitiruv malakaviy (diplom) ishi	D	Davlat attestatsiyasi

II. O`QUV REJASI

№	Fanlar nomi	O`quvchining umumiy yuklamasi, soatlarda									Soatlarning kurs, semestrlar, va haftalar bo`yicha taqsimoti					
		Umumiy yuklama		Auditoriyadagi o`quv yuklamasi						Mustaqil ish	I kurs		2 kurs		3 kurs	
											Semestr va haftalar soni					
		soat	%	Jami	Nazariy	Amaliy mashg`ulot	Laboratoriya ishlari	Seminarlar	Kurs ishi (loyiha ishi)		1	2	3	4	5	6
											17	23	17	13	17	13
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
1.00	**Umumta`lim fanlari**	**2833**	**43.7**	**1994**	**1245**	**574**	**70**	**127**		**839**	**32**	**31**	**14**	**12**	**11**	**12**
1.01	Davlat tilida ish yuritish va nutq madaniyati	114		80	80					34		2	2			
1.02	Ona tili va adabiyot	170		120	64	56				50	3	3				
1.03	Rus(o`zbek) tili	171		120	80	40				51	3	3				
104	Xorijiy til	228		160	120	40				68	1	1	2	2	2	2
1.05	Tarix	223		157	117			40		66	3	2	2	2		
1.06	Shaxs va jamiyat	48		34	10			16		14					2	
1.07	Matematika	284		200	100	100				84	3	2	2	4	1	
1.08	Informatika	170		120	68	52				50	3	3				
1.09	Fizika	227		160	126		34			67	4	4				
1.10	Astronomiya	57		40	26	14				17		1	1			
1.11	Kimyo	114		80	58	6	16			34	2	2				
1.12	Biologiya	114		80	70		10			34	2	2				
1.13	Amaliy geografiya	57		40	30	40				17	1	1				
14	YoChT	195		137	49	88				58			2	2	3	2
1.15	Jismoniy tarbiya	228		160	80	80				68	2	1	2	2	1	2
1.16	Huquqshunoslik	65		46	24			22		19		2				
1.17	Ma`naviyat asoslari	48		34	22	12				14					2	
1.18	Axborot texnologiyalari	57		40	20	10	10			17		1	1			
1.19	Estetika	57		40	20	8		12		17	1	1				
1.20	Oila psixologiyasi	55		39	20	12		7		16						3
1.21	Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar	55		39	23			16		16						3
1.22	O`zbekiston konstitutsiyasi	48		34	20			14		14	2					
1.23	Iqtisodiyot asoslari	48		34	18	16				14	2					
2.00	**Umumkasbiy fanlar**	**476**	**7.3**	**336**	**218**	**114**				**140**	**3**	**2**	**9**	**4**	**2**	
2.01	Mutaxassislikka kirish	24		17	14	3				7	1					
2.02	Texnikaviy chizmachilik	114		80	50	30				34	2	2				
2.03	Texnik mexanika	109		77	50	27				32			3	2		
2.04	Umumiy elektrotexnika va elektronika asoslari	85		60	20	40	X			25			2	2		
2.05	Mehnat muhofazasi	48		34	24	10				14			2			

2.06	Korxona iqtisodiyoti va uni rejalashtirish	48		34	30	4				14					2	
2.07	Standartlashtirish texnik o`lchov asoslari	48		34	30	4				14			2			
3.00	**Maxsus fanlar**	**1320**	**20.4**	**929**						**391**	**1**	**3**	**10**	**14**	**17**	**6**
3.01	Metallar texnologiyasi	90		63	43	20	X			27	1	2				
3.02	Yo`l harakati qoidalari va xavfsizligi	256		180	90	90				76			2	4	4	2
3.03	Avtomobillar tuzilishi	172		121	80	41				51		1	2	1	3	
3.04	Avtomobil va dvigatel nazariyasi	61		43	30	13	X			18					1	2
3.05	Avtomobillarda ishlatiladigan ashyolar	43		30	20	10				13				1	1	
3.06	Avtomobil elektr jihozlari	116		82	70	12				34				4	1	1
3.07	Avtomobil va dvigatellarni ta`mirlash	152		107	50	57				45			2	2	2	1
3.08	Boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi	48		34	20	14				14					2	
3.09	Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko`rsatish	182		128	50	78	X		KL	54			4	2	2	
3.10	Avtomobillarda tashish	24		17	7	10				7					1	
3.06	Tanlov fanlari	176		124			X			52						
4.00	**O`quv amaliyoti**	**661**	**10.1**	**465**						**196**			**3**	**6**	**6**	**18**
4.01	Chilangarlik ishlari	72		51						21			3			
4.02	Dastgohlik amaliyoti	111		78						33				6		
4.03	Avtomobillarning tuzilishi	145		102						43					6	
4.04	Avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatish va ta`mirlash	333		234						99						18
5.00	**Ishlab chiqarish amaliyoti**	**921**	**14.2**	**648**						**273**						
5.01	**Ishlab chiqarish amaliyoti**	512		360						152						
5.02	**Diplom oldi amaliyoti**	409		288						121						
6.00	**Davlat attestatsiyasi**	**102**	**1.6**	**72**						**30**						
7.00	**Kollej ixtiyoridagi soat**	**165**	**2.5**	**116**						**49**						
	HAMMASI	**6480**	**100**	**4560**						**1920**	**36**	**36**	**36**	**36**	**36**	**36**

III. Namunaviy o`quv rejasiga tushuntirish xatida quyidagilar keltiriladi:

1. Mashg`ulotlar 2 sentyabrdan boshlanib, 30 iyun kuni tamom bo`ladi.
2. Rus (o`zbek) tili, xorijiy til, informatika fanlaridan darslar 2 guruhga bo`lib o`qitiladi.
3. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 27 may-dagi O`zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to`g`risidagi 271-sonli qaroriga asosan o`quv rejasidagi jismoniy tarbiya fani kollejdan tashqari soatlar hisobidan har bir semestrda haftasiga 4 soat o`qitiladi, ya`ni o`quv rejasida haftasiga 1 soat berilgan bo`lsa, yana 3 soatdan, agar 2 soat berilgan bo`lsa, yana 2 soatdan qo`shiladi.
4. O`quv va ishlab chiqarish amaliyotini o`tkazish davrini, haftalar sonini, o`tilish ketma-ketligini har bir ta`lim muassasasi o`z sharoitidan kelib chiqqan holda hamda yo`nalishning o`ziga xos xususiyatlarini hisobga olib o`zlari Ilmiy-pedagogik kengash qarori bilan belgilashi mumkin. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasasi ixtisoslik fanlari ro`yxatini tuzishda uzviylik va uzluksizlikni ta`minlash maqsadida oliy ta`lim muassasasi va ish beruvchi tashkilotlar talablarini hisobga oladi.

5. Uchinchi kursdagi ishlab chiqarish amaliyoti oldidan o`quvchilarga bitiruv ishi vazifasi beriladi, bu ishlarni o`quvchi ushbu amaliyot jarayonida bajarishi lozim (ma`lumot to`plash, bo`limlar bo`yicha ularni tayyorlash).
6. Mazkur o`quv reja asosida o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasasi ishchi o`quv rejasini tuzadi. Bunda mazkur kasb-hunar kolleji o`quvchilar o`quv yuklamasining haftalik hajmini saqlagan holda o`quv fanlari bloki hajmini 5 % gacha, bloklar tarkibidagi fanlar hajmini 10 % gacha o`zgartirish kiritishni Ilmiy-pedagogik kengash qarori bilan amalga oshiradi.
7. Tanlov fanlari uchun belgilangan o`quv soatlari kollej pedagogik kengashi qaroriga asosan maxsus fanlarni o`qitishga ajratiladi.
8. Uchinchi kursdagi (6-semestr) 8 haftalik amaliyotning 2 haftasi (7-8 haftalar) diplom ishini bajarish uchun ajratiladi
9. Kasblar bo`yicha amaliy imtihon o`quvchining tanlagan kasbi bo`yicha ishlab chiqarish amaliyoti o`quv dasturlari asosida o`tkazilishi keltiriladi.

Ishchi o`quv rejalarni ishlab chiqish hamda ta`lim jarayoniga tatbiq etish.

O`zbekiston Respublikasi O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limining Davlat ta`limi standartlari «Ta`lim to`g`risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 16 oktyabrdagi «O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi Davlat ta`lim standartlarini tasdiqlash to`g`risida»gi 400-sonli qarori bilan tasdiqlangan Davlat ta`lim standartlarining 2.5.4.-bandiga binoan o`quvchining haftalik yuklamasi 54 soat, undan 16 soati o`quvchi mustaqil ishiga, ya`ni auditoriyadan tashqari ta`limligi ko`rsatilgan. Har haftada mustaqil ish uchun 16 soat ajratilganligini va bir o`quv yili 40 haftadan iborat ekanligini hisobga olsak o`quvchi bir yilda 640 soat, uch yilda 1920 soat mustaqil ish bajarishi lozimligi kelib chiqadi. Bugungi kunda o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalari tayyorlov yo`nalishlari bo`yicha adabiyotlarning yangi avlodlari, zamonaviy o`quv jihozlari, texnika va texnologiyalar bilan ta`minlanib kelinmoqda, shuning uchun ham o`quvchilarda mustaqil ishlash ko`nikmalarini shakllantirish katta ahamiyatga egadir. O`tgan davr mobaynidagi tajribalar shuni ko`rsatdiki bitiruvchi o`quvchilar chuqur nazariy bilim va amaliy ko`nikmalarga ega bo`lishlarida fanlar bo`yicha mustaqil ishlarni tashkil etish va nazorat qilish, o`quvchilarni egallaydigan mutaxassislik va kasblar bo`yicha individual ishlashga, o`qituvchi va o`quvchi o`rtasidagi ijodiy hamkorlikni ta`minlash talab darajasida emasligi ma`lum bo`ldi. Ushbu uslubiy ko`rsatmada mustaqil ishni tashkil etish tartib qoidalari berilgan.

Yangi namunaviy o`quv rejada «tanlov fanlari»ga alohida soatlar ajra-

tilgan bo`lib, ulardan maqsadli ravishda samarali foydalanishni (ish beruvchilar takliflari asosida) tashkil etish ushbu uslubiy qo`llanmada yoritilgan.

Tavsiya etilayotgan uslubiy majmua o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limining barcha toifadagi xodimlari uchun mo`ljallangan. Mazkur majmuani mazmunan takomillashtirishda mualliflar akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining rahbarlari, o`qituvchilari, muhandis-pedagog xodimlari va mutaxassislarining taklif va istaklari inobatga olinadi.

**Ishchi o`quv rejalarni ishlab chiqish tartibi.** Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining tayyorlov yo`nalishlari bo`yicha ishlab chiqilgan namunaviy o`quv rejalariga asosan har bir ta`lim muassasasi o`zining tayyorlov yo`nalishlaridan kelib chiqib ishchi o`quv rejalarni ishlab chiqishda quyidagilar e`tiborga olinishi lozim:

- tayyorlov yo`nalishining namunaviy o`quv rejasiga asosan ishchi o`quv rejasini ishlab chiqishda o`quvchilar o`quv yuklamasinining haftalik hajmini saqlagan holda o`quv fanlari bloki hajmini 5 % gacha, bloklar tarkibidagi fanlar hajmini 10 % gacha o`zgartirish huquqi beriladi;
- tanlov fanlariga ajratilgan soatlar hajmini fan kafedralari, ish beruvchi korxonalar mutaxassislari bilan kelishilgan holda o`quv rejasidagi maxsus fanlarga yoki kasblardan kelib chiqib qo`shimcha maxsus fan kiritilishi mumkin;
- ishchi o`quv rejasiga asosan ta`lim muassasasining moddiy-texnik bazasi, joylashgan hududi, ish beruvchi korxonalardagi ishchi o`rinlarning mavjudligi, tayyorlov yo`nalishlarining xususiyatlaridan kelib chiqib, kasbiy fanlarning semestrlar bo`yicha o`qitilishini, o`quv va ishlab chiqarish amaliy mashg`ulotlari o`tkazilish davrini 10 % gacha o`zgartirishi mumkin;
- namunaviy o`quv rejasiga asosan ishchi o`quv rejalarini ishlab chiqish ta`lim muassasasining o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari, ishlab chiqarish ta`limi bo`yicha direktor o`rinbosari, kafedra mudirlari, uslubchilar tomonidan ishlab chiqilib, o`qitiladigan fanlarning semestrlar bo`yicha taqsimlanishi, amaliy mashg`ulotlarning o`tkazilish davrlarini ish beruvchi korxonalar mutaxassislari bilan kelishilgan holda ishlab chiqiladi hamda ta`lim muassasasi rahbari tomonidan pedagogik kengash qaroriga asosan tasdiqlanadi;
- ishchi o`quv rejalarida umumkasbiy va maxsus fanlar bo`yicha laboratoriya ishlari, kurs ishlari, amaliy mashg`ulotlar uchun ajratiladigan soatlar hajmi (asoslangan holda fan o`qituvchilari tomonidan belgilanadi) har bir fanga ajratilgan umumiy soatlar hajmi saqlangan holda fan o`qituvchilari tomonidan belgilanadi. Masalan (namuna) «Avtomobillarning tuzilishi» faniga 100 soat ajratilgan bo`lsa shundan: 60 soati

nazariy, 12 soati kurs ishi (kurs ishlarini bajarish uchun soatlar hajmi 12 soatdan kam bo`lmasligi kerak), 20 soat amaliy mashg`ulot va 8 soati laboratoriya ishlarini bajarish uchun belgilanadi va jami 100 soatni tashkil etadi

– laboratoriya ishi, kurs ishi, amaliy mashg`ulotlar uchun ajratiladigan soatlar miqdori namunaviy o`quv rejaga asosan ishchi o`quv rejalarning 7,8,9,10-punklarda aks ettiriladi.

Mustaqil ish soatlari, ularni bajarish va nazorat qilish tartibi. Namunaviy o`quv rejalarida har bir fan bo`yicha mustaqil ish soatlari qanday tartibda belgilandi: Ma`lumki, Davlat ta`lim standartida belgilanganidek o`quvchining haftalik o`quv yuklamasi 54 soatni tashkil etadi. O`quvchilar akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida 3 yil ya`ni 120 hafta ta`lim oladilar. Demak, 120 haftani 54 soatga ko`paytirsak 6480 soatni tashkil etadi, bu soatlar miqdori o`quvchining umumiy yuklamasi, ya`ni mustaqil ishlarga ajratilgan soatlar bilan auditoriyadagi o`qitiladigan fanlarga ajratilgan soatlar hajmining yig`indisiga teng bo`ladi.

6480 soatdan uch yil davomida o`quvchilar tomonidan auditoriyada o`rganiladigan fanlarga (fanlar bo`yicha tarmoq standartlarida belgilangan soatlar hajmi) 4560 soati ajratilsa, 1920 soat kelib chiqadi. Demak, mustaqil ishga ajratiladigan 1920 soat, 4560 soatni 42,1 % ni tashkil etadi.

Misol sifatida ixtiyoriy bir fanga ajratilgan mustaqil ish soatini keltirib chiqarish uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi: ya`ni agarda matematika faniga davlat ta`lim standartiga asosan 200 soat ajratilgan bo`lsa, shu soatni 42,1 % ga ko`paytirsak, 84 soatni tashkil etadi. Demak, matematika fani uchun auditoriyada o`qitiladigan o`quv yuklamasi 200 soatni, mustaqil ish 84 soatni va umumiy soat namunaviy o`quv rejada ko`rsatilganidek 284 soatni tashkil etadi. Xuddi shu tartibda qolgan fanlarning ham mustaqil ish uchun soatlari hisoblanadi.

Mustaqil ish soatlarini bajarishda quyidagilarga e`tiborni qaratish lozim:

– o`quvchilar tomonidan fanlarni o`rganish jarayonida ularning nazariy va amaliy bilim va ko`nikmalarini o`z vaqtida baholab borish, o`quvchilarning fanga, kasbga bo`lgan qiziqishlarini shakllantirib borish, ularning fikrlash qobiliyatlarini yuksaltirish, nutq madaniyatlarini oshirish maqsadida fan mavzulari, bo`limlariga oid qo`shimcha topshiriqlar beriladi hamda o`quvchilarni joriy baholash, oraliq baholash va yakuniy baholash natijalariga o`quvchilarning mustaqil ishlarini bajarishlari bo`yicha olgan qo`shimcha ballarini inobatga olgan holda baholanadi;
– umumta`lim fanlari bo`yicha iqtidorli o`quvchilar bilan ishlashni, ularga fanlar bo`yicha chuqur bilim berishda mustaqil ravishda ishlash uchun nazariy va amaliy topshiriqlar berish;

- mutaxassislik fanlari bo`yicha kasb sirlarini puxta egallashlari uchun zamonaviy o`quv adabiyotlaridan samarali foydalanish, texnika, texnologiyalarnining tuzilishi va ishlash prinsiplari bo`yicha qo`shimcha o`qib o`rganish;
- o`quv va ishlab chiqarish amaliy mashg`ulotlari bo`yicha o`quvchilarga o`zlari egallaydigan kasblari bo`yicha mustaqil ravishda turli maketlar tayyorlash, zamonaviy texnikalardan foydalanib mustaqil ravishda amaliy topshiriqlarni o`qituvchi rahbarligida bajarib ko`rsatish;
- o`quvchilarni joriy, oraliq, yakuniy nazorat ishlarini baholash jarayonida ularni fanlar nazariy va amaliy bajargan mustaqil ishlarining natijalarini inobatga olgan holda baholanadi;
- o`quvchilar mustaqil ishlarini baholash tartibi asosan har bir fan o`qituvchisi o`z fani bo`yicha o`quvchilarga fanni chuqur o`zlashtirishlarini ta`minlashlari uchun nazariy va amaliy jihatdan mustaqil ishlar berish va natijalarini baholash bo`yicha alohida qayd jurnali yuritadi hamda har 45 kunda guruh o`quvchilarining mustaqil ishlarni bajarishlari va natijalari bo`yicha fan kafedralarida muhokama qilinadi, natijalari umumlashtirilib ta`lim muassasasining ilmiy-pedagogik kengashlarida bosqichma-bosqich muhokama qilib boriladi.

Tanlov fanlarini aniqlash va ulardan maqsadli foydalanish tartibi. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining yangi shakl va mazmundagi namunaviy o`quv rejalarining afzallik tomonlaridan biri har bir tayyorlov yo`nalishlarining fanlar bloklariga tanlov fanlari uchun ajratilgan soatlar miqdoridir.

Tayyorlov yo`nalishlaridagi tanlov fanlarini aniqlash, ularga ajratilgan soatlar hajmidan maqsadli ravishda foydalanish quyidagicha amalga oshiriladi:

- amaldagi o`quv rejalarida haftalik yuklamalar 36-38 soat qilib belgilangan edi, namunaviy o`quv rejalarda esa o`quvchilarning bir haftalik o`quv yuklamalari 36 soat qilib belgilandi;
- har bir tayyorlov yo`nalishi bo`yicha ishlab chiqilgan namunaviy o`quv rejalaridagi o`quvchilarning haftalik yuklamalari 36 soat qilib belgilangandan so`ng 3 yil davomida iqtisod qilingan soatlar hajmi 240 soatni tashkil etadi;
- Davlat ta`lim standartlarida belgilanganidek ta`lim muassasasining ixtiyoridagi soatlar hajmi 116 soatni tashkil etadi;
- tanlov fanlariga ajratiladigan soatlar hajmi esa 124 soatni tashkil etadi, ya`ni: 240-116-124 soat
- namunaviy o`quv rejasiga asosan ishchi o`quv rejani ishlab chiqish jarayonida ta`lim muassasasining imkoniyatlaridan yoki zaruriyatdan

kelib chiqib tanlov fanlariga ajratilgan soatlar hajmini 20 % ko`paytirish (ta`lim muassasasi ixtiyoridagi soatlar hisobidan) mumkin;

- tanlov fanlari uchun ajratilgan soatlar miqdorini tayyorlov yo`nalishlaridagi o`quv va ishlab chiqarish amaliy mashg`ulotlarining xususiyatlaridan kelib chiqib ta`lim muassasasi pedagogik-kengashi qaroriga asosan o`quv yoki ishlab chiqarish amaliy mashg`ulotlariga (zaruriyat tug`ilsa) qo`shimcha soat sifatida berilishi mumkin;
- namunaviy o`quv rejaga asosan ishchi o`quv rejani ishlab chiqishda har bir tayyorlov yo`nalishi bo`yicha ishchi o`quv rejani ishlab chiqishda tanlov fanlari uchun ajratilgan soatlar hajmini taqsimlash yoki qo`shimcha kasbiy fan kiritishni ta`lim muassasasi rahbariyati, kafedra mudirlari, fan o`qituvchilari hamda ishlab chiqarish korxonalari mutaxassislarining takliflariga asosan tanlanadi yoki o`quv rejadagi mavjud kasbiy fanlarga proporsional ravishda taqsimlanadi.

Davlat attestatsiyasi-O`rta maxsus, kasb-hunar ta`lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi o`quvchilarning tayyorlov yo`nalishi bo`yicha egallaydigan mutaxassisliklari va kasblari asosida ularning nazariy bilim, ko`nikma va malakalarini baholash hamda Davlat ta`lim standartlari talablari asosida malakali kadrlar tayyorlashda o`quv dasturlarining o`zlashtirish darajalari aniqlanadi.

Bitiruvchilarning Davlat attestatsiyasini o`tkazishda soha tayyorlov yo`nalishlaridan kelib chiqib oliy ta`lim professor-o`qituvchilari o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarining muhandis-pedagoglari hamda ish beruvchi korxonalarning vakillaridan iborat komissiya tuziladi.

O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarida Davlat attestatsiyasi imtihon shaklida o`tkaziladi, ya`ni birinchisi-Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlardan (Tarix), ikkinchisi-kasbiy fanlar bo`yicha amaliy imtihon, uchinchisi-Bitiruv malakaviy (diplom) ishi bo`yicha Davlat imtihonlari o`tkaziladi.

Ushbu imtihonlarni o`tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar: ushbu fan (tarix) bo`yicha o`quv dasturlarining mavzulariga asosan bitiruv imtihonining savollar to`plami ishlab chiqilib fan kafedrasi kengashida muhokamadan o`tkaziladi hamda lozim bo`lgan o`zgartirishlarga asosan ta`lim muassasasining pedagogik kengashi qaroriga ko`ra tasdiqlanadi.
2. Kasblar bo`yicha amaliy imtihon: O`quvchilar tayyorlov yo`nalishlarining mutaxassislik va kasblari bo`yicha umumkasbiy hamda maxsus fanlardan olgan nazariy bilimlarini bitiruv imtihonida ish beruvchi korxonalarning mutaxassislari, maxsus fan o`qituvchilari, davlat attestatsiyasi a`zolaridan iborat komissiyasi tomonidan o`tkazilib, unda asosan

o`quvchilar o`zlari egallagan kasblari ma`lum bir vazifani amaliy jihatdan bajarib ko`rsatadilar. Bunda har bir tayyorlov yo`nalishlarining o`quv va ishlab chiqarish amaliy mashg`ulotlari o`quv dasturlariga asosan ish beruvchi korxonalar mutaxassislari, oliy ta`lim muassasalarining professor-o`qituvchilari kasb-hunar kolleji maxsus fanlar kafedralarining o`qituvchilari hamkorlikda ta`lim muassasasining moddiy texnika bazasi inobatga olgan holda kasblar bo`yicha amaliy imtihonlarning topshiriqlari ishlab chiqiladi va ta`lim muassasasining pedagogik kengashida tasdiqlanadi. Kasblar bo`yicha amaliy imtihon o`tkazish davrida ishlab chiqilgan topshiriqlarni o`quvchilar tomonidan amaliy jihatdan bajarishlari uchun barcha kerakli asbob-uskunalar tayyorlanadi hamda amaliy imtihon davrida ushbu asbob-uskunalar yordamida o`quvchilarning kasblar bo`yicha olgan nazariy bilimlariga asosan egallagan malaka va ko`nikmalari amaliy jihatdan belgilangan tartibda baholanadi.

Ta`lim mazmunini belgilovchi asosiy me`yoriy hujjatlardan yana biri o`quv dasturlardir.

**O`quv dasturi**-o`quv predmetining mazmuni, uni tahsil oluvchilar tomonidan o`zlashtirilishining eng maqbul usullari, tartibi, axborot manbalarini o`zida mujassamlashtiruvchi me`yoriy hujjatdir. U shu nom bilan nomlangan o`quv predmetiga tegishli bo`ladi.

Ta`lim standartlarida belgilab berilganidek, umumiy va maxsus talablar, bilim va ko`nikmalar, o`quv rejalaridagi umumkasbiy va maxsus fanlarda o`zaro uzviyligini ta`minlash, fan dasturlarini zamon talablariga mos ravishda oddiydan murakkabga qarab tuzib chiqish, har bir fan dasturlarining mavzulariga mos ravishda qo`shimcha ko`rgazmali qurollar yaratish o`qituvchilarga murakkab vazifalarni qo`yadi, talabalarning esa nazariy bilimlarini shakllantirib boradi.

Kichik mutaxassislar tayyorlashga qo`yilgan talablarning hujjatli asosini tasvirlaydigan o`quv dasturlarida pedagogik maqsadlarning to`liq va aniq belgilanishi talab qilinadi. To`liqlik deganda mazmunning barcha zaruriy va qo`yilgan maqsadga erishish uchun yetarli elementlarni kiritish tushuniladi. Aniqlik deganda esa real o`quv jarayonida berilgan mazmunni joriy qilish yo`lini ko`rsatadigan elementlar va belgilar tasavvur etiladi. Fanning o`quv dasturi o`quv jarayonining mazmuni va sifatini belgilovchi me`yoriy hujjatdir. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarida ta`lim o`quv rejasidagi har bir fan, maxsus va fakul`tativ kurs bo`yicha tasdiqlangan o`quv dasturlariga muvofiq olib borilishi shart.

Fanning ishchi o`quv dasturi namunaviy o`quv dastur asosida yaratiladi. Ishchi o`quv dasturida fan bo`yicha rejalashtirilgan o`quv soatlari aso-

sida mavzularning soatlardagi taqsimoti (ushbu taqsimotni 10% gacha o`zgartirish imkoniyati hisobiga olingan holda), mavjud o`quv-uslubiy va texnikaviy ta`minot, amaliy va laboratoriya mashg`ulotlarining soatlaridagi aniq ro`yxati keltiriladi.

Darslik – davlat ta`lim standarti, o`quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol g`oyasi singdirilgan, muayyan o`quv fanining mavzulari to`liq yoritilgan, tegishli fanning asoslarini mukammal o`zlashtirishga qaratilgan hamda turdosh ta`lim yo`nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr. Har bir ta`lim turining maqsad va vazifalarini qamrab olgan, bilim oluvchilarning yoshi va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan o`z darsliklari bo`ladi. Darslikda nazariy ma`lumotlardan tashqari, amaliy tajriba va sinov mashqlari bo`yicha zarur ko`rsatmalar beriladi.

O`quv qo`llanma – darslikni qisman to`ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo`yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o`zlashtirilishini ta`minlovchi, ayrim bob va mashg`ulotlar yechimiga mo`ljallangan nashr.

**Uslubiy qo`llanmalar** ta`lim muassasasining ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Darsliklar qo`lyozmasi tayyor bo`lgandan keyin ichki va tashqi taqrizdan o`tkaziladi, ta`lim muassasasidagi ekspert komissiyasi ko`rigidan o`tib, tegishli xulosa olgandan so`ng mutasaddi kafedra yig`ilishidan o`tadi, keyin ta`lim muassasi ilmiy-uslubiy kengashidan o`tadi va nashrga tavsiya etish haqidagi taklifni Vazirlikning Muvofiqlashtiruvchi kengashiga taqdim etadi. Muvofiqlashtiruvchi Kengash qoshidagi ekspertlar ko`rigidan ijobiy o`tgandan so`ng mazkur Kengashning nashr etishga ruxsati haqidagi qarorini oladi.

Nazorat savollari

Tasniflagich nima?	**4. Kasbiy ta`lim mazmunini qanday hujjatlar belgilaydi?** a) DTS, O`quv reja, o`quv dastur b) Darslik g) Malaka tavsifnoma d) a va b to`g`ri.
1. Tarmoq ta`lim standarti bu -?	**Ishchi o`quv rejasining tarkibiy qismlarini yozing?**
**2. Uzluksiz ta`lim tizimining qaysi bo`g`ini uchun DTS majburiy?** Maktabgacha ta`lim, umumiy o`rta ta`lim, o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi, oliy ta`lim, oliy ta`limdan keyingi ta`lim, kadrlarni malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta`lim-tarbiya	**6. Ishchi o`quv dasturning tarkibiy qismlarini yozing?**

Kasb-hunar ta`limi tizimi va jarayoni

Reja

1. Ta`limning didaktik tizimi haqida umumiy tushuncha.
2. Predmet tizimi, operatsiya tizimi, operatsiya-predmet tizimi, motorli-mashq tizimi, operatsion-kompleks va boshqa tizimlar
3. Kasb-hunar ta`limi didaktik tizimlarini takomillashtirish

**Ta`limning didaktik tizimi haqida umumiy tushuncha.** Ta`lim tizimi deb, amaliy ko`nikma va mehnat malakalarini to`g`ri tarkib topishini, kasbiy faoliyatga tayyorlashni ta`minlaydigan o`quv materialining maqsadga muvofiq tuzilmasiga, uni tashkil etish va izchilligiga aytiladi.

Kasb-hunar ta`limi o`zaro bog`langan ikki qismdan iborat:

a) nazariy bilim; b) ishlab chiqarish ta`limi.

Ishlab chiqarish ta`limi va nazariy ta`lim bir-biridan farq qiladigan, lekin o`xshashliklari ham bor. Ta`limning bu 2 xil turi ham ta`lim mazmunini ajratish, uning qismlarini guruhlash, ularni o`rganish izchilligini belgilash zarurligi bilan bog`liqdir. Bunday ajratish prinsiplari va gruppalash tartibi o`qitishning odatda ishlab chiqarish ta`limi tizimining qaysi biridan qo`llanishiga bog`liq bo`ladi.

Kasb-hunar ta`limida predmet, operatsiya, operatsiya-predmet tizimi, motor mashq tizimi, operatsion-kompleks va konstrukcion-texnologik tizimlar ma`lum. Dastlab *predmet (buyum) tizimi* paydo bo`lgan. Bu tizimga o`quvchi o`zi o`zlashtirayotgan kasb uchun tegishli bo`lgan buyumlarni tayyorlagan. Bunda buyumlar murakkabligi ortib borgan. Tayyorlash jarayoni didaktik jihatdan alohida operatsiyalarga ajratilmagan. O`quvchi ayrim mehnat usullarini bajarish qoidalari bilan maxsus tanishmagan, faqat o`qituvchining ishi va boshqa harakatlarini takrorlashga intilgan. Bunday ta`lim natijasida o`quvchilarni tanish buyumni tayyorlash uchun o`z bilim va malakalaridan foydalana olmaydilar, har bir yangi buyumni tayyorlash jarayonida ishni qaytadan o`rganishga majbur bo`ladilar. Mazkur tizimning asosiy kamchiligi ana shundan iborat. Buyum (predmet) tizimi hunarmandchilik ishlab chiqarish usulini aks ettirgan va XIX asrning 2-chi yarmigacha keng qo`llanilgan.

Manufakturalarning paydo bo`lishi va shunga ko`ra mehnatning taqsimlanishi texnologik jarayonning operatsiyalarga bo`linishiga olib keldi, ya`ni mehnat ta`limining operatsiya tizimi vujudga keladi. Bu tizim XIX asrning oxirida yuzaga keldi.

Operatsiya tizimi bo`yicha o`qitishda o`quvchilar o`zlari egallaydigan kasbning mazmunini tashkil qiluvchi mehnat operatsiyalarini o`rganishgan.

Shu sababli ular har qanday buyumni tayyorlash bir xil operatsiyalardan iborat, bundan faqat operatsiyalarning bajarilish tartibi va ishlov berishning aniqligiga qo`yiladigan talablar bir-biridan farq qiladi, degan tushunchaga ega bo`lishgan. Shunday qilib, operatsiya tizimi o`quvchilarni buyum tayyorlashga bog`lab qo`ymay, kasb doirasidagi umumiy bilim, amaliy ko`nikma va malaka bilan qurollantirgan. Ta`limning buyum tizimiga nisbatan operatsiya tizimining afzalligi ana shudir. Operatsiya tizimi yordamida ishlab chiqarish texnologiyasini tushunish uchun shart-sharoitlar yaratadi, ta`limni yangi izchil (oddiy operatsiyalardan murakkab operatsiyalarga) tashkil qilish imkonini beradi, mehnat ko`nikmalarini va malakalarini shakllantirishda, asosiy operatsiyalarni o`zlashtirib olishga ijobiy ta`sir ko`rsatadi.

Operatsiya tizimining kamchiligi shundan iboratki, operatsiyalar umuman o`quv buyumlari tayyorlash jarayonida o`zlashtiriladi, ya`ni o`quvchilar mehnati unumli mehnat xarakterida bo`lmaydi. Natijada ularning ishga qiziqishi susayadi. Opreatsiya tizimi operatsiyalarni bajarish bilan buyumlar tayyorlashni uzib qo`yadi.

Operatsiya-predmet tizimi – XIX asrning 90-yillarida S.A.Vladimirskiy tomonidan taklif etilgan. Bu tizim o`quvchilar tomonidan mehnat opreatsiyalarini o`ylab, tanlangan buyumlarni tayyorlash jarayonida o`rganishni ko`zda tutadi. Buyumlar tanlashda katta e`tibor beriladi, birinchi buyumni tayyorlashda eng yengil 3-4 operatsiyalar, boshqalarni tayyorlashda esa murakkabroq operatsiyalar o`zlashtiriladi.

Operatsiya-predmet tizimning yutug`i o`quvchi o`z mehnati natijasini ko`radi, operatsiyalarni o`zi tanlaydi. Kamchiligi: mashg`ulotning birinchi darsidanoq o`z ichiga bir necha operatsiyalar olgan buyumlar tayyorlash o`quvchilarda bu operatsiyalarning mazmuni haqida to`g`ri tasavvur bo`lmasligiga olib kelardi. Shuning uchun ham tizim keng tarqalmoqda.

Motor-mashq tizimi (CIT tizimi) – Ushbu tizimning kamchiligi motor-mashq tizimi bo`yicha o`qitish o`quvchilar ko`nikma va malakalarni ongli o`zlashtirishni nazarda tutmasdi. Ko`nikmalarni shakllantirish maxsus apparatlar va haqiqiy mehnat jarayonini eslatadigan mashqlarni qo`llash bilan amalga oshirilardi. Ko`p marta takrorlash natijasida mushaklarni, ma`lum harakatlarni, ongning ishtirokisiz ham bajarishga "o`rgatish" mumkin, deb faraz qilingan. Ta`limda bunday yondoshish ma`qullanmadi va tez uni rad qilindi. Motor-mashq tizimining yutug`i shundaki, unda mehnat o`quv va malakalarini shakllantirishning didaktik jihatdan asoslangan, psixofiziologik qonuniyatlarga mos keladigan ketma-ketligi: mehnat usuli – mehnat operatsiyasi – mehnat jarayoni birinchi marta ishlab chiqilgan va qo`llanilgan.

Bu tizimda o`quvchilarga kasb ta`limi berish besh davrga bo`linadi:

1. Asosiy mehnat faoliyati va harakatlarini o`zlashtirish bo`yicha mashq

mashg`ulotlari.
2. Mehnat usullarini o`zlashtirish bo`yicha mashqlar.
3. Mehnat operatsiyalarini bajarishga doir o`rganish mashqlari.
4. O`quvchilarni maxsus tanlangan buyumlar ustida ilgari o`zlashtirilgan mehnat operatsiyalarini operatsiyalar kompleksiga birlashtirishga o`rganish.
5. Mustaqil davr, bunda o`quvchilar ayni kasbga doir xarakterli bo`lgan buyumlarni tayyorlaydi.

Operatsiya-buyum motor-mashq tizimlarining kamchiliklari va yutuqlari o`rganilib, *operatsion kompleks tizimi* yuzaga keldi. Bu tizimga asosan o`quvchi avval 2-3 ta ketma-ket operatsiyalarni o`zlashtiradi, so`ng shu operatsiyani ichiga olgan kompleks ishlarni bajaradi. Mehnat operatsiyalarini o`zlashtirish va ularni kompleks ishlarda qo`llash ta`limning 1-bosqichidagi asosiy vazifadir. Ikkinchi bosqichda o`quvchilar ishlab chiqarishdagi unumli mehnatga qo`shiladilar. Masalan, kiyim tikishda qo`llaniladigan barcha turdagi yengni, yoqani, mayda qismlarini tikishni o`rgatib bo`lingandan so`ng uni kiyimda qo`llash bajariladi. Kamchiligi: o`quvchi o`zi ishining natijasini juda uzoq vaqtdan so`ng ko`radi. Natijada qiziqish susayadi.

Hozirgi vaqtda o`quv ustaxonalarida amaliy ishni bajarish jarayonida operatsiya-buyum tizimidan foydalaniladi, chunki operatsiyani alohida o`rganish rejalashtirilgan va dasturda ko`rsatilgan buyum xilini mahalliy sharoitga qarab o`zgartirish mumkin.

**Kasb-hunar ta`limi didaktik tizimlarini takomillashtirish.** Keyingi yillarda o`quv ustaxonalarida *konstrukcion-texnologik tizim* bo`yicha mashg`ulotlar tashkil etiladi. Bu tizimning etakchi g`oyasi o`quvchilarni ijodiy faoliyatini oshirishdan iboratdir. O`quvchi biror buyumni tayyorlashdan avval uning loyihasi va ishlov berish jarayonini amalga oshirishi kerak bo`lgan sharoitga olib kiriladi. O`quvchi biror kiyimni tikish uchun avval o`lchov olishi, asos chizmasini chizishi, andoza tayyorlashi, modellashtirish, andozani gazlamaga joylashtirib, buyumni bichishi va tikish kabi murakkab jarayonni bajaradi. Bu jarayonni bajarishda o`quvchilarni ijodiy faoliyatlari ortib boradi. O`quvchilarni ijodiy faoliyatlarini ortishi uchun yaratiladigan hamma narsalar zo`r berib mehnat qilishni taqozo etadi.

Ijodiy ishga idrok qilish yo`li bilan emas, balki fikrlash faoliyati orqali erishiladi. Ijodiy ishlash jarayoni g`oyani paydo bo`lishi, ijodiy masalani vujudga kelishi, masalan yechish, echimni amalda qo`llash bosqichlariga bo`lish mumkin.

O`quvchilarning ijodiy faoliyatlarini amalga oshirishda pedagogik rahbarlik katta ahamiyatga ega.

1. O`quvchilarni har xil savol va masalalarni mustaqil hal qilish imkoniyatlaridan iborat faoliyatga qatnashtirish – o`quvchilarning ustaxona-

lardagi faoliyati har xil xarakterda bo`lishi va shunga ko`ra turli darajadagi fikrlash faolligida amalga oshirish mumkin.

2. O`quvchilarni ijodiy g`oyaga keltirish yoki ular oldida to`g`ridan-to`g`ri ijodiy xarakterdagi savol va masalalarni qo`yishi – o`quvchilarga texnik ijodkorlik uchun topshiriqlardagi imkoniyatlari va ulardan foydalanishni anglatish lozim.
3. O`quvchilarni fan va ishlab chiqarish asoslariga oid bilimlarini faollashtirish va qo`llashga undash – o`quvchilarga fan va ishlab chiqarish sohasidagi turli usul va uslublardan foydalanib, bilim, amaliy ko`nikma va malakalarini shakllantirish.
4. O`quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rag`batlantirish – o`qituvchining maqtashi, eng yaxshi ishlar ko`rgazmasini tashkil qilish, devoriy matbuotda o`quvchilarning yutuqlarini ommalashtirish va hokazolar bilan ijodiy faoliyatni rag`batlantirish mumkin.

O`quvchilarning texnik ijodkorligini rivojlantirishga qaratilgan mehnat topshiriqlari mazmuni bo`yicha Konstruksiyalash yoki loyihalash; texnologik jarayonlarni tuzish; mehnatni to`g`ri tashkil etish guruhlariga bo`linadi.

Texnik ijodkorlikni rivojlantirishni eng sodda topshiriqlardan boshlash va o`quvchilarning mustaqilligini orttirish, ular buyumlarni konstrukciyalay oladigan, texnologiyani ishlab chiqa oladigan, o`z mehnatlarini uyushtiradigan bo`lishi uchun mazkur topshiriqlarni asta-sekin murakkablashtirib borishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. "Sharq" Toshkent., 1998 y. 64 b.
2. Davlatov K., Vorob`yov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta`limi nazariyasi hamda metodikasi. "O`qituvchi" Toshkent., 1992 y.320 b.
3. Olimov Q.T. va boshqalar Kasb ta`limi uslubiyati "Iqtisod moliya" Toshkent., 2006 y. 192 b.

Nazorat savollari

1. Buyum (predmet) tizimi qanday tizim?
2. Operatsiya tizimi qanday tizim?
3. Motor mashq tizimi bilan operatsion- kompleks tizimining farqli tomonlarini yozing.
4. Operatsiya buyum tizimining afzalliklarini yozing.
5. Operatsion-kompleks tizimi va konstruksion-texnologik tizimini taqqoslang.
6. Konstruksion-texnologik tizimining afzalliklarini yozing.

Maxsus fan va ishlab chiqarish ta`limi o`qituvchisining faoliyat sohalari va unga qo`yiladigan talablar

Reja

1. Kasb ta`limi o`qituvchisi va o`quv ustasining malaka tavsifnomasi.
2. Kasb-hunar ta`limi o`quvchisining funksional vazifalari
3. Kasb ta`limi o`qituvchisi va o`quv ustasining huquq va burchlari
4. Kasb ta`limi o`qituvchisi va o`quv ustasini tayyorlash va unga qo`yiladigan talablar

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida ta`lim tizimining kadrlar salohiyatini tubdan yaxshilash, tarbiyachi, o`qituvchi, muallim va ilmiy xodimning kasbiy nufuzini oshirish uzluksiz ta`lim tizimini isloh qilish yo`nalishlaridan biri sifatida nazarda tutilgan. Kasb-hunar kollejining amaliy kasbiy ta`lim o`qituvchisi (ishlab chiqarish ta`limi ustasi) bo`lg`usi kichik mutaxassislarning kasbiy ta`limi va tarbiyasini amalga oshiruvchi yuqori malakali mutaxassis, pedagog-tarbiyachi bo`lishi lozim. Amaliy kasbiy ta`lim o`qituvchisi (ishlab chiqarish ta`limi ustasi) mehnati samaradorligining bosh mezoni kasb-hunar kolleji o`quvchilari tomonidan tegishli kasb (ixtisosliklar) bo`yicha amaliy ko`nikma va malakalarning muvaffaqiyatli egallanishidir.

Kasb-hunar kollejining amaliy kasbiy ta`lim o`qituvchisi (ishlab chiqarish ta`limi ustasi) o`quvchilarni kasbga amaliy jihatdan tayyorlash ishini fan, texnika, texnologiya, ishlab chiqarish, va madaniyatning yangi yutuqlari asosida o`z kasbiy mahorati, pedagogik va metodik darajasini doimo takomillashtirib borishi zarur.

Kasb-hunar ta`limi tizimida kichik malakali mutaxassislarni tayyorlash ko`p jihatdan kasb ta`limi o`qituvchilari va o`quv ustasining layoqatlariga bog`liqdir. Ishlab chiqarish ta`limi jarayonida kasbiy pedagogik ko`nikma va malakalar tizimi yaratiladi, o`quvchilar kerakli ishlab chiqarish tajribasiga, kasbiy mahoratga ega bo`ladilar. Shuning uchun kasb-hunar kollejlari kasb ta`limi o`qituvchilari va o`quv ustalari ishlab chiqarish jarayonining va o`z mehnat faoliyatining mazmunini aniq tasavvur etish lozim. Hozirda kasb-hunar ta`limi tizimiga har yili maxsus pedagogika ma`lumotiga va ta`lim-tarbiya ish tajribasiga ega bo`lmagan yangi muhandis pedagoglar, ya`ni korxonalarning malakali ishchilari, oliy va o`rta maxsus kasb-hunar ta`limi muassasalarining bitiruvchilari kelib qo`shilmoqda. Kasb-hunar ta`limi tizimida faoliyat ko`rsatayotgan muhandis-pedagoglar mutaxassislik malakasiga hamda pedagogik malakaga ega bo`lishi lozim.

Mutaxassislik malakasi deb, kasb ta`limi o`qituvchilari va o`quv ustaning maxsus soha bo`yicha ko`nikma va malakalari nazarda tutiladi. Ularni malakalarining ikkinchi qismi "Kasbiy pedagogika" bilim sohasiga tegishli bo`lib, pedagogik malakalarini o`z ichiga oladi. Chunki, o`quv jarayoni faqatgina bilim berishga asoslanib qolmasdan, balki ta`lim va tarbiya psixologiyasi bilan uzviy bog`langan. Bu esa ulardan psixologiya, kasbiy pedagogika, iqtisod asoslarini, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish asoslari bo`yicha ham malakalarga ega bo`lishini talab etadi. Mutaxassislik va pedagogik malakalar bilan bir qatorda kasb ta`limi o`qituvchilari va o`quv ustalarida shaxsiy va ijtimoiy layoqatlarning ham bo`lishi talab etiladi.

Shaxsiy layoqatlar quyidagilarni o`z ichiga oladi: o`zini tutishi, shaxsiy ijodkorlik, mas`uliyatlilik va boshqalar. Ijtimoiy layoqatlarga tashkilotchilik qobiliyati, o`quvchilar bilan munosabat, jamoa bilan munosabat kiradi. Bundan tashqari o`qituvchi va o`quv ustalar rahbarlik qobiliyatlariga ham ega bo`lishlari lozim. Chunki kasb ta`limi o`qituvchilari va o`quv ustalar faqat o`quv ishlab chiqarish faoliyatini bajaribgina qolmay, balki guruhlarga rahbarlik qiladilar.

Oliy va o`rta maxsus ta`lim Vazirligi tomonidan 2001 yil 16 noyabrda tasdiqlangan "O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarining rahbar, pedagog va muhandis-pedagog xodimlariga qo`yiladigan malaka talablari to`g`risida"gi Nizomda o`qituvchining va kasbiy ta`lim o`qituvchisining lavozim majburiyatlari aniq bayon qilingan. Nizomda kasb ta`limi o`qituvchisining lavozim vazifalari quyidagicha belgilangan:

- o`quvchilarning kasb-hunarga moyilligini, mahorat va malakasini rivojlantirish;
- tanlangan kasb va ixtisosligi o`quv fanlari bo`yicha chuqur bilimlarni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- ta`lim jarayonida o`qitishning samarali usullari, vositalari va shakllarini, yangi pedagogik texnologiyalarni keng qo`llash;
- o`qitadigan fani bo`yicha darsdan tashqari ishlarni, to`garak mashg`ulotlarni tashkil qilish;
- o`quvchilarni bilim sifati, o`zlashtirish darajasi va davomatini nazorat qilish;
- o`quvchilar bilan yakka tartibda ishlash;
- o`quvchilarni fan olimpiadalariga tayyorlash;
- o`quv xonalarini jahon standartlari va dizayn talablari darajasida jihozlashda qatnashish;
- ilg`or pedagogik tajribalarni o`rganish va qo`llash;

- muntazam ravishda malakasini oshirish.

Bilishi zarur:

- O`zbekiston Respublikasining "Ta`lim to`g`risida"gi, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" to`g`risidagi qonunlarni;
- o`qitadigan fanning o`quv reja, dastur va darsliklarning mazmunini;
- davlatning ichki va tashqi siyosatini, ta`lim va yoshlar to`g`risida hukumat tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlarni;
- mustaqil O`zbekiston ramzlarining mazmun va mohiyatini;
- o`smirlarning yosh va maxsus psixologiyasini, pedagogikani, o`smirlar rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini;
- pedagogik, ilmiy-metodik va tashkiliy boshqaruv vazifalarini hal qilish uchun zarur bo`lgan hajmda umumnazariy fanlar asoslarini;
- pedagogik sikl fanlarini;
- yosh fiziologiyasi va o`quvchilar gigiyenasini;
- informatika va elektron hisoblash texnikasi asoslarini;
- o`quvchilarning turli xil jamoalarini shakllantirish va boshqarish yo`llarini;
- o`quv xonalar va yordamchi xonalarni jihozlashga qo`yilgan talablarni;
- ta`lim vositalarini va ularning didaktik imkoniyatlarini;
- ta`limni va pedagogik fan taraqqiyotining asosiy yo`nalishlarini va istiqbolini;
- mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va huquq asoslarini.

Kasb ta`limi o`qituvchilari bundan tashqari mutaxassisligi bo`yicha ishlab chiqarish texnologiyalarini, iqtisod asoslari, ishlab chiqarish va boshqarishni tashkil etish asoslarini bilishi kerak.

Malaka talablari

Oliy toifali o`qituvchi – fan doktori, nomzodi ish stajiga talab qo`yilmaydi, pedagog (muhandis-pedagog) ixtisosligi bo`yicha magistr; pedagog (muhandis-pedagog) yo`nalishi bo`yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis va tegishli fandan 1-toifali o`qituvchi sifatida kamida 3 yil ish stajiga ega bo`lishi lozim;

1-toifali o`qituvchi – pedagog (muhandis-pedagog) ixtisosligi bo`yicha magistr, pedagog (muhandis-pedagog) yo`nalishi bo`yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis va tegishli fandan 2-toifali o`qituvchi sifatida kamida 3 yil ish stajiga ega bo`lishi lozim;

2-toifali o`qituvchi - pedagog (muhandis-pedagog) yo`nalishi bo`yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis o`qituvchi sifatida kamida 3 yil ish stajiga (magistr ish stajiga talab qo`yilmaydi) ega bo`lishi lozim;

o`qituvchi - pedagog (muhandis-pedagog) yo`nalishi bo`yicha bakalavr

yoki diplomli mutaxassis, ish stajiga talab qo`yilmaydi.

Rejalashtirish bo`yicha vazifalar:

O`qituvchining lavozim majburiyatlarini ish bajarish ketma-ketligiga qarab 3 bosqichga bo`lish mumkin:

- Rejalashtirish bo`yicha vazifalar;
- Amalga oshirish bo`yicha vazifalar;
- Baholash va tahlil qilish bo`yicha vazifalar.
- Davlat ta`lim standartlari, o`quv reja va dasturlar asosida ta`limning maqsad va mazmunlarini tanlash va rejalashtirish;
- o`quv reja va dasturlar asosida kalendar` mavzuli reja va dars rejasini ishlab chiqish;
- ta`limni tashkillashtirish va o`tkazish bo`yicha hujjatlarni tayyorlash;
- o`quvchilarning qobiliyatlari va bilimlarini baholash bo`yicha hujjatlarni tayyorlash;
- korxonaning turli bo`limlarida o`quvchilarni o`qitish joylarini rejalashtirish;
- qo`yilgan maqsadlarga javob beradigan ish topshiriqlari va mashqlarni tayyorlash;
- amaliy mashqlar hamda loyihalarni o`tkazish uchun xomashyo va chiqim materiallarni rejalashtirish;
- o`quv ustaxonasida o`qitish uchun yetarli sharoitlarni tayyorlash;
- o`quv-didaktik materiallarni aniqlash, tanlash va ishlab chiqish.

Amalga oshirish bo`yicha vazifalar:

- o`quvchilarni o`quv amaliyoti xonalari bilan tanishtirish;
- o`quvchilarni amaliy topshiriqlarni mustaqil bajarishga jalb etish;
- texnika xavfsizligi bo`yicha va amaliy topshiriqlar, mashqlarga taalluqli yo`l-yo`riqlar hamda ish o`rnida o`quv suhbatlar o`tkazish;
- uskunalar bilan ishlash yoki ishlab chiqarish va ta`mirlash ishlariga taalluqli namoyishlar o`tkazish;
- an`anaviy yoki noan`anaviy usullarga asoslangan amaliy mashqlarni o`tkazish.

Baholash va tahlil qilish bo`yicha vazifalar O`quvchilarning amaliy natijalarini kuzatish, tahlil qilish va baholash;

- o`quvchilarning o`zlashtirilgan nazariy bilimlarini baholash;
- o`quvchilarning xulqini baholash;
- ta`limning mavjud sharoitlari sifatini baholash;
- rejalashtirish va tashkillashtirish bo`yicha hujjatlarning sifatini baholash;
- o`quv-didaktik materiallar sifatini baholash;
- o`zi bergan yo`l-yo`riq va namoyishlarni o`zi baholash;

➢ berilgan topshiriqlarning sifatini o`zi baholash.

Kasb ta`limi o`qituvchisi va o`quv ustasining huquq va burchlari

O`quv jarayonida o`qituvchi rahbarlik rolini o`ynaydi. Kasb-hunar ta`limida vaqtning asosiy 80 % ini o`quvchilarning mustaqil amaliy ishlarida o`qituvchining roli katta, hamma narsa o`qituvchi tomonidan oldindan puxta o`ylansa va yaxshi rivojlantirilsa, o`quvchilar mustaqil ishlay oladilar. Bu esa kasb-hunar ta`limi o`qituvchisining keng bilimdonligi, puxta amaliy tayyorgarligi, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi. Shuning uchun mustaqil O`zbekistonning kasb-hunar kollejlaridagi kasb-hunar ta`limi o`qituvchilari va o`quv ustalari:

1. Yuksak axloqiy fazilatlarga, o`z kasbiga oid tegishli ma`lumot va kasbiy tayyorgarligiga ega bo`lgan qobiliyatli bo`lishi;
2. Milliy madaniyat va qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni yaxshi bilishi va diniy ilmlardan ham xabardor bo`lishi;
3. Yuqori metodik, psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo`lishi;
4. Erkin va ijobiy fikrlay oladigan talabchan, adolatli, odobli bo`lmog`i kerak.

Kasb ta`limi o`qituvchisi va o`quv ustasini tayyorlash va unga qo`yiladigan talablar. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi zamonaviy pedagogga qo`yiladigan talablar majmuini belgilaydi. Bir-biriga bog`liq bo`lgan talablarning ushbu majmui, pedagogning umumlashtirilgan modelini tashkil etadi. Umumlashgan modelga muvofiq asosiy (fundamental) talablar quyidagilardan iborat:

ta`lim berish mahorati: tarbiyalay olish mahorati; o`quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta`minlovchi shaxsiyat fazilatlari: ta`lim oluvchilarning bilimlarini xolisona baholay olish va nazorat qila olish mahorati.

***Ta`lim berish mahorati*** pedagogga qo`yiladigan talablar va o`quv-tarbiya jarayonini amalga oshirish shartlari bilan bog`liq bo`lgan quyidagi bosh (dominant) omillar bilan aniqlanadi: qo`llab-quvvatlash va o`quv jarayoni muhiti; pedagogning psixologik-pedagogik tayyorgarligi; fanni chuqur bilishi, kasbiy omilkorlik va eruditsiya: yangi pedagogik va kompyuter texnologiyalarni bilish; kasbiy axborot manbalari sifatida chet tillarni bilish; yangi uslub va bilim manbasi sifatida ilmiy-metodik va ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish; uzluksiz ta`lim tizimining me`yoriy hujjatlarini bilish;o`quv-tarbiya jarayonini amalga oshirishning moddiy texnika bazasi bilan bog`liq bo`lgan axborot bazasi va resurslari.

Tarbiyalay olish mahorati pedagogning yuksak madaniyat va ma`naviyat saviyasiga, shaxsiy axloqi, vatanparvarlik va burch (hislar)iga asoslanadi. Ta`lim oluvchilarda dunyo yaxlitligi yuksak madaniyat, ma`naviyat va dunyoviy tafakkurni shakllantirish uchun pedagogning o`zi gumanitar

va gumanistik ruhida tarbiyalangan hamda o`quv-tarbiya ishini tashkil etish mahoratiga ega bo`lishi shart.

Pedagogning o`quv-tarbiya jarayonida inson omilini ta`minlovchi ***shaxsiy fazilatlariga*** quyidagilar kiradi: talabchanlik va adolatlilik, halollik va xayrixohlik, kirishimlilik va hazil-mutoyiba hissi. Ushbu fazilatlar pedagogning ta`lim oluvchilar oldida obro`sini belgilaydi. Pedagogning shaxsiy fazilatlari uning ta`lim berish va tarbiyalay olish mahoratiga ta`sir ko`rsatadi.

Ta`lim oluvchilarning bilimlarini xolisona ***baholash va nazorat qilish*** mahorati psixologik-pedagogik jihatdan pedagogning ta`lim berish va tarbiyalay olish mahorati bilan uzviy bog`liq. Pedagog ta`lim oluvchilarning bilimlarini obyektiv baholash mexanizmlarini bilishi va ularni mukammal ravishda reyting nazoratda qo`llay olishi, hamda standart testlarni ishlab chiqa olish va qo`llay olish mahoratiga ega bo`lishi lozim.

*O`qituvchining mehnati va mahorati.* Pedagogik faoliyat o`z mohiyatiga ko`ra ijodiy xarakterga ega. Inson oldida biror muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug`iladi. O`qituvchilik faoliyati ana shunday xususiyatga ega. Pedagogik ijodkorlikning asosiy mohiyati pedagogik faoliyatning maqsadi va xarakter bilan bog`liq. O`qituvchi aniq maqsadni ko`zlash, qat`iylik, shirin so`zlik kabi xislatlarga ega bo`lishi kerak. O`qituvchining odobi, madaniyati yuksak bo`lsa, odamlarga nisbatan mehribon, sahovatli bo`lsagina tez obro` hurmatga ega bo`ladi.

*O`qituvchining faoliyati va kasbiy imidji.* O`qituvchining pedagogik faoliyati har bir boshqa faoliyat kabi o`zining aniq uslubiga ega bo`ladi. Faoliyat uslubi-to`la ma`noda usullar, holatlar, shakllarning turg`un tizimidan iborat bo`lib, u har xil sharoitlarda ham mavjud bo`ladi. U faoliyat tuzilishiga bog`liq bo`lib, uning-subyektning shaxsiy-psixolog xususiyatiga bog`liq. Bugungi kun o`qituvchisiga qo`yilayotgan zamonaviy talablarni quyidagicha ifodalash mumkin.

O`qituvchining kasbiy faoliyati favqulodda umumiy va xususiy qobiliyatlarni talab qiladi. Kasbiy-pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati xususiy pedagogik qobiliyatlarga bog`liq bo`ladi. Pedagogik qobiliyatlarning quyidagi guruhlari farqlanadi:

- obyektga (talabaga) nisbatan sezgirlik;
- kommunikativlik – insonlarga yuz tutish, xayrixohlik, muomalalik;
- perseptiv qobiliyatlar – kasbiy yetuklik, empatiya, pedagogik tuyg`u;
- shaxs dinamikasi – irodaga ta`sir eta olish va mantiqiy ishontira olish qobiliyati;
- hissiy barqarorlik - o`zini boshqara olish;
- kreativlik – ijodiy ish qobiliyati.

Pedagogning xususiy qobiliyatlariga bilim, malaka va ko`nikmalarni egallash faoliyati va shaxsni tarbiyalash qobiliyati ham tegishlidir. O`qitish, o`rganish va o`rgatish bo`yicha qobiliyatlariga quyidagilar kiradi:

- talabani tushunishni ko`rish va sezish, bunday tushunishning darajasini va xarakterini o`rnatish qobiliyati;
- o`quv materialini mustaqil tanlab olish, o`qitishning samara beruvchi usul va metodlarini belgilash qobiliyati;
- materialni yetarli bayon qilish, uning barcha talabalarga tushunarliligini ta`minlash qobiliyati;
- talabalarning individualligini hisobga olgan holda o`qitish jarayonini tashkil etish qobiliyati;
- o`qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish qobiliyati;
- talabalarning katta odimlar bilan rivojlanishini tashkil etish qobiliyati;
- o`zining pedagogik mahoratini takomillashtirish qobiliyati;
- o`zining tajribasini boshqalar bilan baham ko`rish qobiliyati;
- mustaqil ta`lim olish va mustaqil takomillashish qobiliyati.

Pedagogik jarayonga qaratilgan pedagogik qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:

- boshqa insonning ichki holatini to`g`ri baholash, unga hamdardlik bildirish, hamnafas bo`lish qobiliyati (empatiya qobiliyati);
- taqlid qilish uchun namuna bo`lish qobiliyati;
- tarbiya jarayonida individual xususiyatlarni inobatga olish qobiliyati;
- muloqotning lozim topilgan uslubini, o`z o`rnini topish, kelisha olish qobiliyati;
- hurmat qozonish, talabalar o`rtasida obro`ga ega bo`lish qobiliyati.

Amaliy kasbiy ta`lim o`qituvchisi (ishlab chiqarish ta`limi ustasi)ga qo`yilgan asosiy pedagogik talablarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o`z kasbi (ixtisosligi)ni chuqur bilish;
- o`quvchilarni kasbiy (maxsus) bilim, ko`nikma va malakalar bilan qurollantirish malakasi;
- turdosh kasblar (ixtisosliklar)ni bilish;
- o`quvchilarning o`ziga xos xususiyatlarini bilish va ta`lim jarayonida ulardan foydalanish ko`nikmasi;
- amaliy kasbiy ta`lim o`qituvchisi (ishlab chiqarish ta`limi ustasi)ning obro`-e`tibori;
- amaliy kasbiy ta`lim o`qituvchisi (ishlab chiqarish ta`limi ustasi)ning umumiy madaniyati.

O`quvchilarni kasbga tayyorlashni amalga oshiruvchi amaliy kasbiy ta`lim o`qituvchisi (ishlab chiqarish ta`limi ustasi) bundan tashqari tegishli

ishlab chiqarishning xususiyatlari va xarakterini, shuningdek, amaliy kasbiy ta`limni tashkil qilish va uning metodikasini yetarli darajada tushunishi va bilishi lozim.

Nazorat savollari

1. Kasb ta`limi o`qituvchisi va ishlab chiqarish ta`limi ustasining malaka tavsiflari qaysi bir me`yoriy hujjatda o`z aksini topgan?
2. Kasb-hunar ta`limi o`quvchisining funksional vazifalari nimalardan iborat?
3. Kasb ta`limi o`qituvchisi va o`quv ustasining huquq va burchlari nimalardan iborat?
4. XXI-asr zamonaviy kasb ta`limi o`qituvchisi va ishlab chiqarish ustasi qanday bo`lishi kerak?

Kasbiy ta`lim metodlari

Reja

1. Metod, ta`lim metodi tushunchalari
2. O`rta maxsus kasb-hunar ta`limi metodlari klassifikatsiyasi:
3. Kasb ta`limi metodlari mazmuni, amalga oshirish texnologiyasi
4. Ta`lim metodlarini tanlash mezonlari

METOD-yunoncha atama bo`lib, u maqsadga erishish yo`lini bildiradi – muayyan ma`noda tartibga solingan faoliyat.

O`qitish metodlari o`quv jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

**Ta`lim metodi-** ta`lim jarayonidagi ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchining muayyan o`quv maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan birgalikdagi hamkorlik yo`lidir.

Ta`lim metodlari quyidagilarga ko`ra:

a) bilim olishning asosiy manbai bo`yicha (og`zaki, ko`rgazmali va amaliy);
b) o`qituvchi faoliyati shakllari bo`yicha (o`qitish metodlari) va o`quvchilar faoliyatining shakllari bo`yicha (ta`lim (olish) metodlari);
c) fikrlash, eslab qolish va bilim olish faolligining xarakteri bo`yicha (reproduktiv, izohli-ko`rgazmali, muammoli-izlanishli, tadqiqotli);

d) xulosa chiqarish turlari bo`yicha (induktiv, deduktiv)
e) o`quvchilarning o`quv-bilish faoliyatlariga ko`ra passiv, faol va interfaol metodlar bo`yicha tasniflanadi.

**O`qitishning og`zaki, ko`rgazmali va amaliy metodlari**. Agar o`quvchilar asosiy o`quv axborotini o`qituvchining og`zaki mulohazalari va isbotlari jarayonida yoki darslik matnlari asosida olsalar, bunday metodlar

***Og`zaki:*** tushuntirish, hikoya, suhbat, bayon, izoh, va hokazo metodlar jumlasiga kiradi. Og`zaki metodlardan foydalanish jarayonida ko`rgazmali qurollardan foydalanish mumkin. Ammo, ular yordamchi o`rin o`ynaydilar

***Ko`rgazmali metodlar*** deganda ta`lim jarayonida qo`llaniladigan ko`zgazmali qurollar va texnika vositalariga ko`p darajada bog`liq bo`lgan o`quv materialini o`zlashtirish shakllari tushuniladi.

Mashqlar, mustaqil topshiriqlar, amaliy va laboratoriya ishlari asosida o`quv materialini egallash shakllari ta`limning ***amaliy metodlari*** jumlasiga kiradi.

O`quvchilarning o`quv materialini egallashlari asosan xotiraning eslash funksiyasiga asoslangan metodlar ***reproduktiv metodlar*** deyiladi.

***Izohli-ko`rgazmali metodlar*** yangi mazmunni o`rganishning turli shakllarida foydalaniladi. Izohli-ko`rgazmali metodlar ikki qismga bo`linadi: birinchi qismda nazariy ma`lumotlar berilsa, ikkinchi qismda og`zaki tarzda ham, ko`rgazmali qurollar yordamida ham ma`lumotlar beriladi.

Muammoli-izlanishli metodlar. O`quvchilar ongida muammoli vaziyat yoki ilmiy izlanishlarni tashkil etuvchi metodlar muammoli-izlanishli metodlar deyiladi.

Shuningdek, hozirgi vaqtda ta`lim muassasalarida o`qitishning ikki xil turi ya`ni, **an`anaviy va noan`anaviy o`qitish metodlari** qo`llanilmoqda.

Innovatsion (noan`anaviy) o`qitish metodlar- talabalarning o`quv-bilish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan bo`lib, ularni faol va interfaol turlariga bo`linadi.

**An`anaviy metodlar** deganda – ta`lim jarayonining markazida ta`lim oluvchi bo`lgan va ta`lim oluvchilar nisbatan passiv ishtirok etadigan metodlar tushuniladi.

An`anaviy ta`lim metodlariga ma`ruza, namoyish, taqdimot, savol-javob, to`rt pog`onali metodlar kiradi. O`quv amaliyoti mashg`ulotlarida o`tiladigan mavzu ancha murakkab bo`lganda, «To`rt pog`onali» metod ko`p hollarda ta`lim jarayonining birdan-bir qo`llaniladigan samarali metodi bo`lib qolmoqda.

Quyidagi materiallarda an`anaviy ta`lim metodlaridan "Ma`ruza" metodi va "To`rt pog`onali" metodlarni o`tkazish bosqichlari va ularning afzallik hamda kamchiliklari to`g`risida to`xtalib o`tamiz.

Ma`ruza-katta hajmdagi o`quv materialini nisbatan uzoq vaqt davomida monologik bayon etishdir.

Ma`ruza, hikoya, tushuntirish – o`quv materialini bayon qilish usuli - verbal (lot.t. Verbalis – og`zaki) usul hisoblanadi. Odatda bu usullar namoyish, videousul, ko`rgazma usullari bilan qo`shilgan holda olib boriladi. Ular o`quvchilarning bilimini o`zlashtirish, eslab qolish va tushunishga qaratilgan retseptiv faoliyatini ta`minlab beradi va o`qituvchi tomonidan tayyor holda bayon etiladi

Bugungi kunda ma`ruza o`tkazishda o`quvchilarning o`quv-bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida passiv metodlar bilan bir qatorda faol metodlarni qo`shib olib borish orqali ma`ruza metodini bir qancha quyidagi turlari amaliyotda qo`llanilmoqda:

- muammoli ma`ruzalar;
- jadallashtirilgan ma`ruzalar;
- ma`ruza – konferensiyalar;
- konspektsiz ma`ruzalar – fikrni so`z bilan ifodalash;
- mualliflik ma`ruzalari;
- ma`ruza –munozaralar;
- qaytar aloqa texnikasi qo`llangan ma`ruzalar;
- aniq vaziyatni tahlil qilish ma`ruzalari.



«Ma`ruza» metodining tuzilmasi

Hikoya – uncha katta bo`lmagan, ta`riflovchi xarakterga ega bo`lgan o`quv materialini monologik, hikoya qiluvchi, xabar beruvchi bayonidir.

Tushuntirish – bayon qilinayotgan materialni turli holatlarini tahlil qilish, tushuntirish, izoh berish va isbotlash yordamida o`quv materialini bayon qilish.

Namoyish – o`quvchilarni tabiiy holatda hodisalar, jarayonlar, obyektlar bilan ko`rgazmali – hissiy tanishtirish.

Namoyishni, oddiy ko`rgazmadan, faol bilish usuli sifatida farqlashda muammoli yoki tadqiqot xarakteriga kirayotgan «faol namoyish» jarayonida, o`quvchilar o`zlari fanlarni, jarayon va hodisalarni o`rganadilar, kerakli o`lchovlarni bajaradilar, bog`liqlikni belgilaydilar.

Shu tufayli, ularning e`tiborlari hodisa, jarayon, narsalarning (predmetlarning) tasodifan payqalgan emas, balki muhim bo`lgan xususiyatlarida jamlanishiga yordam beradi. Natijada bular o`quvchi ongiga to`laroq, osonroq va tezroq singadi.

O`quvchilarning mustaqilligini oshirish maqsadida, ularni kuzatilayotgan jarayon va hodisalarni tushuntirib berishga, ularning rivojlanishi va natijasini tahlil qilishga jalb etish o`ta muhimdir.

Namoyish usulining ta`limiy funksiyasi samaradorligini ta`minlash sizning quyidagi mahoratingizga bog`liq:

obyektlarni to`g`ri tanlash; o`quvchilar diqqatini namoyish qilinayotgan hodisalarning muhim taraflariga yo`naltirish; namoyish jarayonini shunday tashkil qilish kerakki, o`quvchilar namoyish qilinayotgan obyektlarni nafaqat ko`z bilan ko`ra bilishlari, iloji bo`lsa, ularni barcha sezish a`zolari bilan qabul qilishlari lozim; o`quvchilar e`tiborini imkoni boricha obyektning muhim taraflariga jalb etish; o`quvchilarga obyektning o`rganilayotgan sifatlarini mustaqil o`lchash imkonini yaratish.

Illyustratsiya – hodisa, narsa, jarayonlarni tasviriy shaklda sxema, reproduksiya, yassi modellar yordamida ko`rsatish va qabul qilishni ko`zlaydi.

Bu usulning asosiy vazifasi – o`rgatish. Illyustratsiya usulining vositasi bo`lib suratlar, jadvallar, rangli xaritalar, albomlar va atlaslar xizmat qiladi. Ko`rgazma qurollarini va illyustratsiya shakllarini tanlayotganingizda uning bilim olish jarayonidagi ta`lim-tarbiyaviy vazifasini, joyini va rolini puxta o`ylab ko`rmoq lozim. Shuningdek, sizning oldingizda ko`rgazma materialini eng ma`qul hajmini tanlab olish muammosi ham turibdi. Tajriba shuni ko`rsatdiki, katta hajmdagi illyustratsiya materiallari

o`quvchini o`rganilayotgan hodisalarning tub mohiyatini aniqlashdan chalg`itadi.

Illyustratsiyalarni o`qituvchi oldindan tayyorlab qo`yadi, lekin o`qitish jarayonida kerak bo`lgandagina ko`rsatadi.

Videousul – axborotni ko`proq ko`rgazmali o`zlashtirishga asoslangan bo`lib, unda kineskop, kodoskop, proyektor, kinoapparat, o`quv televideniyesi, videomagnitofon, axborotni displeyida aks ettiruvchi kompyuterlardan foydalaniladi.

O`quv jarayonida videousuldan foydalanish, ta`lim-tarbiyaviy vazifalarni unumli yechishni ta`minlaydi:

- yangi bilimlarni bayon etish, ya`ni juda sekin kechadigan jarayonlar bilan tanishish, bevosita kuzatish mumkin bo`lmagan (o`simliklar o`sishi, suyuqlikda diffuziya hodisasi va h.k.), shuningdek, tez sodir bo`ladigan jarayonlar, bevosita kuzatishlar hodisalarning mohiyatini ochib bera olmagan holda (qayishqoq tanalarning urilishi, moddalarning kristallanishi va h.k.) qo`llaniladi;

- murakkab mexanizmlar va mashinalarning ishlash tamoyillarini dinamikada tushuntirish;
- turli xil ish faoliyatini bajarish algoritmini tushuntirish;
- chet tili darslarida o`ziga xos til muhitini yaratish;
- videohujjatlarni taqdim etish;
- mashq qilish ishlarini bajarish, jarayonlarni modellashtirish, kerakli o`lchamlarni olib borish;
- o`quv-mashq va tadqiqot ishlarini olib borish uchun ma`lumotlar bazasini (bankini) yaratish;
- ta`limni tashkil qilishga differensiyalashgan yondoshuvni tashkil qilish va b.

Ushbu usulning samaradorligi, sizning shaxsiy mahoratingizga bog`liq emas, balki video qurollarning va qo`llanilayotgan texnik vositalarning sifatiga to`g`ridan to`g`ri bog`liq. O`qituvchidan, o`quvchilarni o`rganilayotgan muammolar doirasiga kiritish, ularning faoliyatini yo`lga solish, umumlashtiruvchi xulosalar yasash, mustaqil ish jarayonida ularga alohida yordam berish talab etiladi.

"To`rt pog`onali metod" metod - amaliy ko`nikmalarni o`zlashtirish jarayonining to`rt pog`ona doirasida kechadigan metodidir.

Bu metod ta`lim oluvchilarga bir xilda takrorlanadigan qo`l ko`nikmalarini tez va mukammal o`rganib olishlariga yordam beradi. "To`rt pog`onali" metod qo`llanilganda, ta`lim oluvchilar iloji boricha oddiy operatsiyalar bilan tanishtiriladi, so`ng uni takrorlaydilar va to mukammal o`zlash-

tirmaguncha mashq qiladilar. Ushbu metod quyidagi tushuntirish; nima qilish kerakligini ko`rsatib berish; ko`rsatilgan tarzda qaytarish; mashq qilish kabi bosqichlardan iborat.

"To`rt pog`onali" metodning bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. "Tushuntirish" bosqichida muhandis-pedagog ta`lim oluvchilarga avval oddiy operatsiya bosqichini tushuntirib beradi.
2. "Nima qilish kerakligini ko`rsatib berish" bosqichida muhandis-pedagog ta`lim oluvchilarga topshiriqni qanday bajarish kerakligini amalda ko`rsatib beradi.
3. Uchinchi bosqichda ta`lim oluvchilar muhandis-pedagog ko`rsatgan ish harakatlarini takrorlaydi. Muhandis-pedagog ta`lim oluvchilar bajarayotgan harakatlar yuzasidan o`z fikrini bildirib, xatolarini to`g`rilab turadi.
4. "Mashq qilish" bosqichida ta`lim oluvchilarning hatti-harakati muhandis-pedagog tomonidan nazorat qilib boriladi. Ta`lim oluvchilar ish amallarini mukammal o`zlashtirganlaridan so`ng, uni mustaqil bajaradilar.

"To`rt pog`onali" metodning asosiy belgisi-ta`lim oluvchilarning harakatlari muhandis-pedagog ko`rsatib bergan harakatlar doirasi bilan cheklanganligidadir.



Laboratoriya usuli – bu shunday ta`lim usulki, unda o`quvchi o`qituv-chi rahbarligida oldindan belgilangan reja asosida tajribalar o`tkazadi yoki amaliy vazifalarni bajaradi va shu jarayonda yangi bilimni anglaydi va tushunib yetadi.

Laboratoriya usulining asosiy funksiyasi – yangi

bilimlarni o`rgatish va rivojlantirish:

Bu usulni qo`llash orqali o`qituvchi o`quvchilarni quyidagi imkoniyatlar bilan ta`minlaydi:

- asbob-uskunalardan foydalanish ko`nikma va malakalarini egallash;
- mustaqil tadqiqotning yangi yo`llarini tanlash va ma`lum bo`lganlarini tekshirish;
- amaliy malakalarni egallash: o`lchash va hisoblash, natijalarni qayta ishlash va ilgarigi olinganlari bilan taqqoslash.

Mashq usuli -o`tilgan materiallarni amaliyotda qo`llash maqsadida, reja bilan tashkil etilgan amallarni ko`p marotaba bajarishdir.

Bu usulning asosiy funksiyalari: o`rgatuvchi va rivojlantiruvchi. Ushbu usulning afzalligi shundan iboratki, u, ko`nikma va malakalarni samarali shakllanishini ta`minlaydi, kamchiligi-motivatsion funksiyani sust bajari-shidadir.

Mashq quyidagi turlari mavjud: maxsus; sharhlangan; yozma; og`zaki; ishlab chiqarish – mehnat; laboratoriya - amaliy.

Sharhlangan mashqlar o`quv jarayonini faollashtirishga, o`quv vazifalarini ongli ravishda bajarilishiga xizmat qiladi. Ularning mohiyati shundan iboratki, o`qituvchi va o`quvchilar bajarilayotgan ishlarni sharhlaydi, natijada ular o`zlashtiriladi va tushunib yetiladi. Avval bunga eng yaxshi o`quvchilar jalb etiladi, keyin esa materialni tushuntirishda butun guruh ishtirok etadi. Sharhlangan mashqlar usuli o`quv mashg`ulotining yuqori sur`atini ta`minlaydi, materialni barcha o`quvchilar tomonidan ongli ravishda, mustahkam o`zlashtirilishiga yordam beradi.

**Og`zaki mashqlar** ta`lim oluvchilarning nutq madaniyati va mantiqiy tafakkurini taraqqiy ettirish, ularning bilish imkoniyatlari bilan bog`liq.

Yozma mashqlar. Ularning asosiy vazifasi – kerakli ko`nikma va malakalarni shakllantirish, chuqurlashtirish va mustahkamlashdan iborat. Shuning uchun, ular yetarli miqdorda va har xil bo`lishi kerak.

Grafik mashqlar matematika, fizika, chizmachilik, geografiya, rasm darslarida, ishlab chiqarishni o`rganish jarayonida ishlatiladi.

Laboratoriya-amaliy mashqlar mehnat qurollaridan, laboratoriya asbob-uskunalaridan (jihozlar, o`lchov apparatlari) foydalanish malakalarini egallashga imkon beradi, konstruktorlik-texnik mahoratni rivojlantiradi.

Ishlab chiqarish - mehnat mashqlari o`quv va ishlab chiqarish xarakteridagi alohida ishlab chiqilgan tarmoqni tashkil etadi. Ular oddiy va murakkab bo`ladi: birinchisi – alohida mehnat usullarini bajarish mashqlari, ikkinchisi – ishlab chiqarish – mehnat ishlarini butunligicha yoki ularning talay qismini (stanoklarni sozlash, detal qismlarini tayyorlash va h.k.) ko`zda tutilgan.

Hozirgi vaqtda ta`lim jarayonida o`qitishning innovatsion texnologiya-

lari keng qo`llanilmoqda. Mazkur o`qitish texnologiyalarni amalga oshirishda bir qator passiv, faol, interfaol va treninglardan keng foydalaniladi. Passiv metodlar turkumiga ma`ruza, hikoya, tushuntirish; namoyish, kitob bilan ishlash, illyustratsiya, videousul, to`rt pog`onali metod, laboratoriya, mashq, kabilar kiradi.

Faol o`qitish metodi bu-talabalarning o`quv–bilish jarayonidagi fikrlash faoliyatini, ish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan metodlardir. Faol metodlar turkumiga aqliy hujum, o`rgimchak to`ri, insert, B-B-B, idrok xaritasi, klaster, sinkveyn, videotopishmoq, davra suhbati; bahs; keys, labirint, assisment, munozara, charxpalak, tushunchalar tahlili, baliq skeleti, qanday? nima uchun? uch qadamli intervyu, 635 usul, pantomimo, muzyorar, mehmon mashq, suqrot suhbati va boshqalar

Interfaol metodi-bu ("inter"-bu o`zaro,"act" –harakat qilmoq) ma`nolaridan kelib chiqib, o`zaro harakat qilmoq, hamkorlik muloqot tartibida bo`lishni anglatadi.

Interfaol yoki interaktiv metodlar turkumiga muammoli vaziyat, yo`naltiruvchi matn, loyiha, damino, 9 olmos birligi, veer (yelpig`ich) beshinchisi, (oltinchisi, yettinchisi) ortiqcha, qora quti, venn diagrammasi, qizil va yashil kartochkalar bilan ishlash, tajriba vositasida o`qitish sikli, pinbord, zanjir, yumaloqlangan qor o`yini, ishbilarmon o`yin rolli o`yin; zakovatli zukko, aql zakovatni rivojlantiruvchi o`yinlar, zig-zag, kichik guruhlarda ishlash, eksprom, monitoring, zinama-zina, debat, kubik, sxema-T, SWOT, rezyume, FSMU, 6|6/6, SCORE, metaplan, qarorlar shajarasi, jamoa bloknoti kabi metodlar kiradi.

Interfaol metodlar deganda – ta`lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta`lim jarayonining markazida ta`lim oluvchi bo`lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo`llanilganda ta`lim beruvchi ta`lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta`lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta`lim oluvchi markazda bo`lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo`ladi: ta`lim samarasi yuqoriroq bo`lgan o`qish-o`rganish; ta`lim oluvchining yuqori darajada rag`batlantirilishi; ilgari orttirilgan bilimning ham e`tiborga olinishi; o`qish shiddatini ta`lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi; ta`lim oluvchining tashabbuskorligi va mas`uliyatining qo`llab-quvvatlanishi; amalda bajarish orqali o`rganilishi; ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

"Aqliy hujum" metodi - biror muammo bo`yicha ta`lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to`plab, ular orqali ma`lum bir yechimga kelinadigan metoddir. "Aqliy hujum" metodining yozma va og`zaki shakllari mavjud. Og`zaki shaklida ta`lim beruvchi

tomonidan berilgan savolga ta`lim oluvchilarning har biri o`z fikrini og`zaki bildiradi. Ta`lim oluvchilar o`z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta`lim oluvchilar o`z javoblarini qog`oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko`rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki «pinbord» doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. "Aqliy hujum" metodining yozma shaklida javoblarni ma`lum belgilar bo`yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to`g`ri va ijobiy qo`llanilganda shaxsni erkin, ijodiy va nostandart fikrlashga o`rgatadi.

"Aqliy hujum" metodidan foydalanilganda ta`lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo`ladi, shu jumladan ta`lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta`lim oluvchilar o`z fikrini faqat og`zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko`nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta`lim oluvchilarda turli g`oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta`lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

"Aqliy hujum" metodi ta`lim beruvchi tomonidan qo`yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

1. Ta`lim oluvchilarning boshlang`ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo`yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi.
2. Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog`lash maqsad qilib qo`yilganda –yangi mavzuga o`tish qismida amalga oshiriladi.
3. O`tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo`yilganda-mavzudan so`ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

"Aqliy hujum" metodini qo`llashdagi asosiy qoidalar:

1. Bildirilgan fikr-g`oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
2. Bildirilgan har qanday fikr-g`oyalar, ular hatto to`g`ri bo`lmasa ham inobatga olinadi.
3. Har bir ta`lim oluvchi qatnashishi shart.

Quyida "Aqliy hujum" metodining tuzilmasi keltirilgan.



"Aqliy hujum" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta`lim oluvchilarga savol tashlanadi va ularga shu savol bo`yicha o`z javoblarini (fikr, g`oya va mulohaza) bildirishlarini so`raladi;
2. Ta`lim oluvchilar savol bo`yicha o`z fikr-mulohazalarini bildirishadi;
3. Ta`lim oluvchilarning fikr-g`oyalari (magnitafonga, videotasmaga, rangli qog`ozlarga yoki doskaga) to`planadi;
4. Fikr-g`oyalar ma`lum belgilar bo`yicha guruhlanadi;
5. Yuqorida qo`yilgan savolga aniq va to`g`ri javob tanlab olinadi.

"Kichik guruhlarda ishlash" metodi - ta`lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o`quv materialini o`rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish. Ushbu metod qo`llanilganda ta`lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo`lishga, bir-biridan o`rganishga va turli nuqtai-nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo`ladi. "Kichik guruhlarda ishlash" metodi qo`llanilganda ta`lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo`ladi. Chunki, ta`lim beruvchi bir vaqtning o`zida barcha ta`lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.



"Kichik guruhlarda ishlash" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo`nalishi aniqlanadi. Mavzu bo`yicha bir-biriga bog`liq bo`l-

gan masalalar belgilanadi.

2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta`lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo`linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta`lim beruvchi tomonidan aniq ko`rsatmalar beriladi va yo`naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.
7. Kichik guruhlar baholanadi.

**"Ishbop o`yin" metodi** - berilgan topshiriqlarga ko`ra yoki o`yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.

O`yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining hulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o`yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko`ra ishtirokchilar o`z faoliyatlarini o`zgartirish imkoniyatiga ham ega bo`ladi. Ishbop o`yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo`ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat`iy belgilangan va o`yin davomida o`zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o`z maqsadlarini belgilaydilar. Ishbop o`yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli xarakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o`zining vazifasi bo`yicha qaror qabul qiladi, so`ngra guruh bilan maslahatlashadi. O`yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi. Quyida "Ishbop o`yin" metodining tuzilmasi keltirilgan.



"Ishbop o`yin" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta`lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo`riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.
2. Ta`lim oluvchilarni o`yinning maqsadi, shartlari va natijalarni baholash mezonlari bilan tanishtiradi.
3. Ta`lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.
4. Ta`lim oluvchilar o`z rollari bo`yicha tayyorgarlik ko`radilar.
5. Ta`lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o`yinni amalga oshiradilar. Ta`lim beruvchi o`yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.
6. O`yin yakunida ta`lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. ekspertlarning xulosalari tinglanadi, fikr-mulohazalar aytiladi.
7. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi.

Har bir rolni ijro etuvchi o`z vazifasini to`g`ri bajarishi, berilgan vaziyatda o`zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko`rsata olishi kerak.

**"Rolli o`yin" metodi** - ta`lim oluvchilar tomonidan hayotiy vaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko`rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o`yinlarning ishbop o`yinlardan farqli tomoni baholashning olib borilmasligidadir. Shu bilan birga "Rolli o`yin" metodida ta`lim oluvchilar ta`lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, "Ishbop o`yin" metodida rol` ijro etuvchilar ma`lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o`zlari hal etadilar.

Rolli o`yinda ham ishbop o`yin kabi muammoni yechish bo`yicha ishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo`lga qo`yilgan. Rolli o`yinlar ta`lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

"Rolli o`yin" metodida ta`lim beruvchi ta`lim oluvchilar haqida oldindan ma`lumotga ega bo`lishi lozim. Chunki rollarni o`ynashda har bir ta`lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta`lim oluvchilarning o`zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o`yinlar o`quv jarayonida ta`lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi.

"Rolli o`yin" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

- Ta`lim beruvchi mavzu bo`yicha o`yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o`yin ssenariysini ishlab chiqadi.
- O`yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
- O`yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.
- Ta`lim oluvchilar o`z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta`lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.
- O`yin yakunida ta`lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo`lgan ta`lim oluvchilar o`z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o`yinga xulosa qilinadi.

Ushbu metodni qo`llash uchun ssenariy t`lim beruvchi tomonidan ishlab chiqiladi. Ba`zi hollarda ta`lim oluvchilarni ham ssenariy ishlab chiqishga jalb etish mumkin. Bu ta`lim oluvchilarning motivatsiyasini va ijodiy izlanuvchanligini oshirishga yordam beradi. Ssenariy maxsus fan bo`yicha o`tilayotgan mavzuga mos ravishda, hayotda yuz beradigan ba`zi bir holatlarni yoritishi kerak. Ta`lim oluvchilar ushbu rolli o`yin ko`rinishidan so`ng o`z fikr-mulohazalarini bildirib, kerakli xulosa chiqarishlari lozim.

"Muammoli vaziyat" metodi - ta`lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning echimini topish bo`yicha ko`nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

"Muammoli vaziyat" metodi uchun tanlangan muammoning murakkabligi ta`lim oluvchilarning bilim darajalariga mos kelishi kerak. Ular qo`yilgan muammoning yechimini topishga qodir bo`lishlari kerak, aks holda yechimni topa olmagach, ta`lim oluvchilarning qiziqishlari so`nishiga, o`zlariga bo`lgan ishonchlarining yo`qolishiga olib keladi. «Muammoli vaziyat» metodi qo`llanilganda ta`lim oluvchilar mustaqil fikr yuritishni, muammoning sabab va oqibatlarini tahlil qilishni, uning yechimini topishni o`rganadilar.



"Muammoli vaziyat" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta`lim beruvchi mavzu bo`yicha muammoli vaziyatni tanlaydi, maqsad va vazifalarni aniqlaydi. Ta`lim beruvchi ta`lim oluvchilarga muammoni bayon qiladi.
2. Ta`lim beruvchi ta`lim oluvchilarni topshiriqning maqsad, vazifalari va shartlari bilan tanishtiradi.
3. Ta`lim beruvchi ta`lim oluvchilarni kichik guruhlarga ajratadi.
4. Kichik guruhlar berilgan muammoli vaziyatni o`rganadilar. Muammoning kelib chiqish sabablarini aniqlaydilar va har bir guruh taqdimot qiladi. Barcha taqdimotdan so`ng bir xil fikrlar jamlanadi.
5. Bu bosqichda berilgan vaqt mobaynida muammoning oqibatlari to`g`risida fikr-mulohazalarini taqdimot qiladilar. Taqdimotdan so`ng bir xil fikrlar jamlanadi.
6. Muammoni yechishning turli imkoniyatlarini muhokama qiladilar, ularni tahlil qiladilar. Muammoli vaziyatni yechish yo`llarini ishlab chiqadilar.
7. Kichik guruhlar muammoli vaziyatning yechimi bo`yicha taqdimot qiladilar va o`z variantlarini taklif etadilar.
8. Barcha taqdimotdan so`ng bir xil yechimlar jamlanadi. Guruh ta`lim beruvchi bilan birgalikda muammoli vaziyatni yechish yo`llarining eng maqbul variantlarini tanlab oladi.

"Loyiha" metodi - bu ta`lim oluvchilarning individual yoki guruhlarda belgilangan vaqt davomida, belgilangan mavzu bo`yicha axborot yig`ish, tadqiqot o`tkazish va amalga oshirish ishlarini olib borishidir. Bu metodda ta`lim oluvchilar rejalashtirish, qaror qabul qilish, amalga oshirish, tekshi-

rish va xulosa chiqarish va natijalarni baholash jarayonlarida ishtirok etadilar. Loyiha ishlab chiqish yakka tartibda yoki guruhiy bo`lishi mumkin, lekin har bir loyiha o`quv guruhining birgalikdagi faoliyatining muvofiqlashtirilgan natijasidir. Bu jarayonda ta`lim oluvchining vazifasi belgilangan vaqt ichida yangi mahsulotni ishlab chiqish yoki boshqa bir topshiriqning yechimini topishdan iborat. Ta`lim oluvchilar nuqtai-nazaridan topshiriq murakkab bo`lishi va u ta`lim oluvchilardan mavjud bilimlarini boshqa vaziyatlarda qo`llay olishni talab qiladigan topshiriq bo`lishi kerak. Loyiha o`rganishga xizmat qilishi, nazariy bilimlarni amaliyotga tadbiq etishi, ta`lim oluvchilar tomonidan mustaqil rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish imkoniyatini yarata oladigan bo`lishi kerak.



"Loyiha" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Muhandis-pedagog loyiha ishi bo`yicha topshiriqlarni ishlab chiqadi. Ta`lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar asosida topshiriqqa oid ma`lumotlar yig`adilar.
2. Ta`lim oluvchilar mustaqil ravishda ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta`lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalarni rejalashtirishlari lozim.
3. Kichik guruhlar ish rejalarini taqdimot qiladilar. Ta`lim oluvchilar ish rejasiga asosan topshiriqni bajarish bo`yicha qaror qabul qiladilar. Ta`lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo`yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Bunda har xil qarorlar taqqoslanib, eng maqbul variant tanlab olinadi. Muhandis-pedagog ta`lim oluvchilar bilan birgalikda "Baholash varaqasi"ni ishlab chiqadi.
4. Ta`lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda amalga oshiradilar. Ular individual yoki kichik guruhlarda ishlashlari mumkin.

5. Ta`lim oluvchilar ish natijalarini o`zlarini tekshiradilar. Bundan tashqari kichik guruhlar bir-birlarining ish natijalarini tekshirishga ham jalb etiladilar. Tekshiruv natijalari "Baholash varaqasi"da qayd etiladi. Ta`lim oluvchi yoki kichik guruhlar hisobot beradilar. Ish yakuni quyidagi shakllarning birida hisobot qilinadi: og`zaki hisobot; materiallarni namoyish qilish orqali hisobot; loyiha ko`rinishidagi yozma hisobot.
6. Muhandis-pedagog va ta`lim oluvchilar ish jarayonini va natijalarni birgalikda yakuniy suhbat davomida tahlil qilishadi. O`quv amaliyoti mashg`ulotlarida erishilgan ko`rsatkichlarni me`yoriy ko`rsatkichlar bilan taqqoslaydi. Agarda me`yoriy ko`rsatkichlarga erisha olinmagan bo`lsa, uning sabablari aniqlanadi.

Muhandis-pedagog "Loyiha" metodini qo`llashi uchun topshiriqlarni ishlab chiqishi, loyiha ishini dars rejasiga kiritishi, topshiriqni ta`lim oluvchilarning imkoniyatlariga moslashtirib, ularni loyiha ishi bilan tanishtirishi, loyihalash jarayonini kuzatib turishi va topshiriqni mustaqil bajara olishlarini ta`minlashi lozim.

"Loyiha" metodini amalga oshirishning uch xil shakli mavjud:

- ✓ yakka tartibdagi ish;
- ✓ kichik guruhiy ish;
- ✓ jamoa ishi.

**"Yo`naltiruvchi matn" metodi** - ta`lim oluvchilar mustaqil ravishda yo`naltiruvchi savollar yordamida ma`lumot yig`ish, rejalashtirish, amalga oshirish vazifalarini bajaradigan metoddir.

"Yo`naltiruvchi matn" metodida muhandis-pedagog va ta`lim oluvchi faoliyati

"Yo`naltiruvchi matn" metodining barcha bosqichlarida muhandis-pedagog faoliyati "passiv", ta`lim oluvchi faoliyati esa "aktiv" bo`ladi. Chunki ta`lim oluvchilar muhandis-pedagog tomonidan oldindan tayyorlangan materiallar asosida mustaqil ravishda faoliyat ko`rsatadilar. "Yo`naltiruvchi matn" metodidan o`quv amaliyot darslarida foydalaniladi. Ushbu metodni o`tkazish bosqichlari "Loyiha metodi"ning bosqichlari bilan bir-xildir. Ma`lumot yig`ish, rejalashtirish, amalga oshirish va tekshirish bosqichlarida ta`lim oluvchi mustaqil ishlaydilar. Qaror qabul qilish va xulosa qilish bosqichlarida ta`lim oluvchi va muhandis-pedagog orasida "qaytar aloqa" o`rnatilib, birgalikda muhokama qiladilar. Ta`lim oluvchilarga boshlang`ich bosqichlarda muhandis-pedagog tomonidan tuzilgan yozma hujjatlar beriladi. Bunday hujjatlarga texnik chizmalar, jadvallar, yo`naltiruvchi savollar, tarqatma materiallar, topshiriqlar varaqasi, baholash varaqasi va boshqalar kiradi.

Quyida "Yo`naltiruvchi matn" metodida muhandis-pedagog va ta`lim oluvchilarning faoliyati keltirilgan.

Quyidagi chizmada "Yo`naltiruvchi matn" metodining tuzilmasi keltirilgan.



“Yo`naltiruvchi matn” metodining bosqichlari:

1. Muhandis-pedagog topshiriqlarni, tarqatma materiallarni va yo`naltiruvchi savollarni ishlab chiqadi.



2. Ta`lim oluvchilar mustaqil ravishda darslik, sxemalar, tarqatma materiallar, yo`naltiruvchi savollar asosida topshiriqqa oid ma`lumotlar yig`adilar va “Yo`naltiruvchi matn” tuzadilar.
3. So`ngra ta`lim oluvchilar mustaqil ravishda “yo`naltiruvchi matn” asosida ish rejasini ishlab chiqadilar. Ish rejasida ta`lim oluvchilar ish bosqichlarini, ularga ajratilgan vaqt va texnologik ketma-ketligini, material, asbob-uskunalar va yordamchi vositalarni rejalashtirilishi lozim.
4. Ta`lim oluvchilar muhandis-pedagog bilan birgalikda qabul qilingan qarorlar bo`yicha erishiladigan natijalarni muhokama qilishadi. Ta`lim oluvchilar bajariladigan ishlar ketma-ketligi bo`yicha qaror qabul qiladilar, muhandis-pedagog esa faqat maslahatchi sifatida ishtirok etadi.



ISH REJASI

№	Ish tartibi	Zarur bo`lgan asboblar	Vaqt

5. Ta`lim oluvchilar topshiriqni ish rejasi asosida mustaqil ravishda yakka tartibda yoki guruhlarda amalga oshiradilar. Bu bosqichda ta`lim oluvchilarning amaliy ko`nikmalari shakllanadi. Muhandis-pedagoglar topshiriqning bajarilishini "Nazorat varaqasi"ga qayd qilib boradi.
6. Ta`lim oluvchilar ish natijalarini o`zlari tekshiradilar va "Baholash varaqasi"ni to`idiradilar. "Baholash varaqasi"da sifat mezonlari, ya`ni talab etilgan me`yorlar beriladi va ular erishilgan natija bilan taqqoslanadi.

BAHOLASH VARAQASI

№	Mezonlar	O`quvchi F.I.Sh.

NAZORAT VARAQASI

№	O`quvchi F.I.Sh.	Mezonlar

7. Muhandis-pedagog va ta`lim oluvchilar birgalikda ish jarayonini va erishilgan natijalarni yakuniy suhbat davomida tahlil qiladilar. Ushbu suhbatda barcha ta`lim oluvchilarning natijalari baholanadi va kelajakda ish jarayonida nimalarga e`tibor berish kerakligi ta`kidlanadi.

"Yo`naltiruvchi matn" metodi "Loyiha" metodi bilan chambarchas bog`liqdir. Ushbu ikki metodni bir-biridan quyidagi nuqtai-nazar bo`yicha farqlash mumkin:

- "Yo`naltiruvchi matn" metodi ta`lim oluvchilarning mustaqil o`rganishiga qaratilgan;
- "Loyiha" metodi esa ta`lim oluvchilarning mustaqil o`rganishidan tashqari, e`tiborni kasb o`rganishda kerak bo`ladigan shaxsiy qobiliyatlar va ko`nikmalarni takomillashtirishga qaratilgan.

Venn diagrammasi- ta`lim mazmunini tahliliy yondashuv asosida obyektlarning o`ziga xos va o`xshash xususiyatlarini tahlil qilish orqali o`quv materialini o`zlashtirishga va ko`nikmalarni takomillashtirishga yo`naltirilgan metoddir.

Mazkur metodni qo`llash bosqichlari: Bunda 1) **"A"** obyektning o`ziga xos jihatlari; 2) **"B"** obyektning o`ziga xos jihatlari; 3) **"C"** obyektning o`ziga xos jihatlari; 4) **"A" va "B"** obyektlarning o`xshash jihatlari; 5) **"A" va "S"** obyektlarning o`xshash jihatlari; 6) **"S" va "B"** obyektlarning o`xshash jihatlari; 7) **"A", "B" va "S"** obyektlarning o`xshash jihatlari yoritiladi.



1-rasm. Venn diagrammasini amalga oshirish bosqichlari

Ta`lim jarayoniga ushbu metodni qo`llash orqali tahsil oluvchilarda ta`lim mazmuniga tahliliy yondashuvni, o`rganilayotgan obyektlarning o`ziga xos va o`xshash xususiyatlarini bir-biriga qiyoslash, taqqoslash orqali tahlil qilish, mustaqil fikrlash kabi ko`nikmalarni takomillashtirishga erishiladi.



Venn diagrammasi metodini qo`llash texnologiyasi

Assisment metodi-o`z-o`zini tekshirish, nazorat qilish va baholashga yo`naltirilgan metoddir. Ushbu metodni darsning kirish, asosiy yoki

yakuniy qismida ya`ni uyga vazifa berish jarayonida qo`llash mumkin. Darsning kirish qismida tahsil oluvchilarning uyga vazifalarini qay darajada bajarganliklarini aniqlashda yoki mavzuni umumlashtirish jarayonida egallangan bilim, ko`nikmalarni aniqlashda foydalanish mumkin.

Assisment metodini dars jarayoniga tadbiq etish texnologiyasi. O`qituvchi tomonidan talabalarga jadval ko`rinishdagi vazifalarni qisqa vaqt ichida bajarishlari topshiriq sifatida beriladi va topshiriq bajarilganidan so`ng, javoblar o`qituvchi tomonidan e`lon qilinadi talabalar esa aynan javobga ko`ra o`z-o`zini tekshirishni amalga oshiradi hamda oldindan e`lon qilingan mezonlar asosida baholaydi. Bunda talabalar mavzu mazmunini qay darajada o`zlashtirganligi bo`yicha o`z-o`zini tekshirish va baholash orqali xulosa chiqaradi.

Rezyume metodi - murakkab, ko`p tarmoqli mumkin qadar muammoli mavzularni o`rganishga qaratilgan bo`lib, uning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo`yicha axborot beriladi. Ayni paytda ularning har biri alohida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan: ijobiy va salbiy tomonlari afzallik va kamchiliklar, foyda va zararlar belgilanadi. Ushbu metodning asosiy maqsadi: talaba (o`quvchi) larning erkin, mustaqil, taqqoslash uslubi yordamida mavzudan kelib chiqqan holda o`quv muammosini yechimini topishga ham kerakli xulosa yoki qaror qabul qilishga, jamoa o`z fikrini bilan ta`sir etishga, uni ma`qullashga, shuningdek, berilgan muammoni yechishda, mavzuga umumiy tushuncha berishda o`tilgan mavzulardan egallangan bilimlarni qo`llay olish, o`rgatishdir.

Texnik vositalarni tanlash va ulardan foylanish					
KODOSKOPDAN FOYDALANISH		**FLIPCHART FOYDALANISH**		**DOSKADAN FOYDALANISH**	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Xulosa					

Texnik qo`llanilishi: Ma`ruza darslarida (imkoniyat va sharoit bo`lsa), seminar, amaliy va laboratoriya mashg`ulotlarni yakka yoki kichik guruhlar ajratilgan tartib o`tkazish, shuningdek, uyga vazifa berishda ham qo`llash mumkin. Mashg`ulot foydalaniladigan vositalar: A-3, A-4 formatdagi qog`ozlarida (guruh soniga qarab) tayyorlangan tarqatma materiallar flamoster yoki rangli qalamlar kerak bo`ladi.

"Rezyume" interfaol metodini amalga oshirish texnologiyasi:

- O`qituvchi talaba (o`quvchi) larning soniga qarab 3 -4 kishidan iborat kichik guruh ajratiladi;
- O`qituvchi talaba (o`quvchi) ularning mashg`ulotning maqsadi va o`tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har biri kichik guruh qog`ozning yuqori qismiga yozuv bo`lgan ya`ni asosiy muammo, unda ajratilgan o`quv muammolari va ularni yechish yo`llari belgilangan, xulosa yozma bayon qilinadigan varaqlarni tarqatadi;
- Har bir guruh a`zolari topshiriq bo`yicha ularning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, o`z fikrlarini flomaster yordamida yozma tarzda bayon etadilar. Yozma bayon etilgan fikrlar asosida ushbu muammoning yechimini topib, eng maqbul variant sifatida umumiy xulosa chiqaradilar;
- Kichik guruh a`zolaridan biri tayyorlangan materialni jamoa nomidan taqdim etadi. Guruhning yozma bayon etgan fikrlari o`qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi;
- O`qituvchi boshqa kichik gruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so`rab, ular fikrini aniqlaydi va o`z xulosalari bilan tanishtiradi;
- O`qituvchi guruhlar tomonidan berilgan fikrlar yoki xulosalarga izoh berib, ularni baholaydi, so`nggi mashg`ulotni yakunlaydi.

"Rezyume" interfaol metodini amalga oshirish texnologiyasi

Kichik guruhlarni shakllantirish
Mashg`ulotning maqsadi va o`tkazilish tartibi bilan tanishtirish, tarqatma materiallarni tarqatish va topshiriq berish
Topshiriq bo`yicha ularning afzalligi va kamchiliklarini aniqlab, guruh fikrlarini yozma tarzda A-3 formatga bayon etadilar.
Taqdimotda guruhning yozma bayon etgan fikrlari o`qib eshittiriladi, lekin xulosa qismi bilan tanishtirilmaydi
O`qituvchi boshqa kichik guruhlardan taqdimot etgan guruhning xulosasini so`rashi, ular fikrini aniqlash va o`z xulosalari bilan tanishtirish
Xulosa chiqarish va baholash

Tushunchalar tahlili-o`quv predmeti bo`yicha talabalar tomonidan yodga olish, biron-bir mavzu bo`yicha o`qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o`z izohlarini berish, shu orqali o`z bilimlarini tekshirib baholashga imkon yaratish va o`qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha talabalarni baholashga yo`naltirilgan metoddir.

№	Tushunchalar	Mazmun
1	Metodologiya	
2	Metodika	
3	Texnologiya	
4	Pedagogik texnologiya	
5	Innovatsiya	
6	Axborot texnologiyasi	
7	Pedagogik mahorat	

«FSMU» metodi

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozara o`tkazishda yoki o`quv reja asosida biron bo`lim o`rganib bo`lingach qo`l-lanilishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o`z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o`z fikrini boshqalarga o`tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda talabalarni, o`quv jarayonida egallagan bilimlarni tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda talabalarni o`zaro munosabatlarga kirishish madaniyatiga o`rgatadi.

«FSMU» metodi

- **F** - fikrini bayon etish
- **S**- fikri bayoniga sabab ko`rsatish.
- **M**- ko`rsatilgan sababini isbotlash misolini (dalil) keltirish.
- **U**- fikrlarni umumlashtirish.

Ushbu texnologiya tarqatilgan oddiy qog`ozga o`z fikrlarini aniq, qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi. Bu texnologiya quyidagicha amalga oshiriladi: Mashg`ulotda avval har bir tinglovchi yakka tartibda berilgan vazifani bajaradi, keyin esa kichik guruhlarda ish olib boradi va dars oxirida jamoa bo`lib ishlaydilar. Har bir talabaga FSMU texnologi-yasining 4-bosqichi yozilgan qog`ozlar tarqatiladi. Har bir tinglovchi yak-ka tartibda tarqatilgan qog`ozdagi FSMU ning 4-bosqichini o`z fikrlarini yozma bayon etgan holda to`latadi. O`z qog`ozlarini to`latib bo`lganidan

keyin, tinglovchilarni kichik guruhlarga ajratadi va guruhlarga FSMU yozilgan katta qog`oz beriladi. Kichik guruhda har bir o`quvchi o`zining yozgan javobini o`qib tanishtiradi so`ngra guruh a'zolari birgalashib muhokama qilib umumiy javoblarini yozadilar va uni himoya qiladilar.



Qarorlar shajarasi-ta`lim oluvchilarda muammoli vaziyatlarning sabab va oqibatlarini tahlil qilish hamda ularning yyechimini topish bo`yicha ko`nikmalarini shakllantirishga qaratilgan metoddir.

"Qarorlar shajarasi" metodi muayyan fan, kurs asoslari borasidagi murakkab mavzularni o`zlashtirish, ma`lum masalalarni har tomonlama, puxta tahlil etish asosida ular yuzasidan muayyan xulosalarga kelish, bir muammo xususida bildirilayotgan bir necha xulosalar orasidan eng maqbul yyechimni topishga yo`naltirilgan texnik yondashuvdir.

"Qarorlar shajarasi" metodini qo`llash texnologiyasi quyidagi shaklda keltirilgan.

Ta`lim metodlarini tanlashda quyidagi: ta`lim maqsadi, tahsil oluvchilar soni, tahsil oluvchilarning o`quv imkoniyatlari, ta`lim metodlarining samaradorligi, ta`limning davomiyligi, o`quv –moddiy sharoitlari va o`qituvchining mahorati kabi mezonlarni hisobga olish zarur.

Ta`limning maqsadi-tahsil oluvchilarda muayyan kasb bo`yicha bilim, ko`nikma va malaka hamda shaxs sifatlarini shakllantirishdir.

O`quv faoliyatlarini amalga oshirishda turli metodlarni birgalikda qo`llash lozim. Shuning uchun ta`lim metodlarini tanlashda eng asosiy omil bo`lib, o`quv mashg`ulotlarning didaktik vazifasi xizmat qiladi.

Ta`lim metodlarini tanlashning ikkinchi mezoni –dars jarayonidagi tahsil oluvchilar sonini hisobga olishdir. O`quv jarayonini to`g`ri tashkillashtirishda tahsil oluvchilarning soni muhim ahamiyatga ega. Agar ular ko`pchilik bo`lmasa, faol o`qitish metodlaridan foydalanib, o`qitishni jadal sur`atda olib borish mumkin. Agar buni aksi bo`lsa, ularning har biriga

yetarli darajada e`tibor berish uchun vaqt yetishmasligi sababli, tahsil oluvchilarni boshqarish qiyinlashadi. Katta guruhlar uchun o`quv materialini bayon qilishda og`zaki usullardan: ma`ruza, hikoya, tushuntirish kabilardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.



O`quvchilarning o`quv imkoniyatlari - bunda tahsil oluvchilarning yoshi, darslarga tayyorgarlik darajasi hamda jamoadagi o`zaro munosabatlarni hamda tahsil oluvchilarning o`z-o`zini boshqarish qobiliyatlarini e`tiborga olish muhimdir.

Tahsil oluvchilarni o`z-o`zini boshqarish qobiliyatlari bo`yicha quyidagi darajalarga bo`lish mumkin.

Birinchi daraja-o`quvchi berilgan vazifani bajarish ketma-ketligini to`liq tushunadi, vazifani bajarishda qoidalarga rioya qiladi va uni ish oxirigacha esda to`liq saqlaydi. Diqqat bilan vazifalarni aniq bajaradi., bajargan ishini nazorat qila oladi, agar xatoga yo`l qo`ysa, buni sezadi va bartaraf eta oladi. Ishni topshirishga shoshilmaydi hamda uni to`g`ri, chiroyli, tartibli bajarilganini yana bir bor tekshiradi;

Ikkinchi darajasi-o`quvchi berilgan vazifani bajarish ketma-ketligini to`liq tushunadi, vazifani bajarish qoidalariga rioya qiladi va uni ish oxirigacha esda to`liq saqlaydi. Ish jarayonida ba`zi xatoliklarga yo`l qo`yishi mumkin, lekin uni sezmaydi va tuzatmaydi. Bajargan ishni tekshirish vaqtida ham xatolarni sezmaydi. Yaxshi baho olishga intilishi bo`lgani bilan, uni ish sifati qiziqtirmaydi;

Uchinchi darajasi- o`quvchi berilgan vazifani bajarish ketma-ketligini faqatgina bir qismini tushunadi, lekin mashg`ulot oxirigacha uni esda saqlab qolmasligi mumkin. Vazifani bajarayotganda faqat e`tiborsizlik

tufayli emas, balki vazifani bajarish qoidalarini eslab qolmaganligi uchun ham xatolarga yo`l qo`yadi. Xatolarni odatda sezmaydi, ish jarayonida tuzatmaydi, vazifani tekshirayotganida ham sezmaydi. Ishni yaxshilashga hohish bildirmaydi. Olingan natijalarga sovuqqonlik bilan ishga qaraydi;

To`rtinchi darajasi-o`quvchi vazifaning kichik qisminigina tushunadi, lekin shu zahotiyoq uni batamom esdan chiqaradi. Xatolarni sezmaydi, ularni tuzatmaydi, vazifaning to`g`ri bajarilganligini tekshirishga vaqt sarflamaydi. Bajarilgan ish sifatiga befarq;

Beshinchi darajasi-o`quvchi berilgan vazifani bajarish ketma-ketligini umuman tushunmaydi, faqatgina qalam bilan qog`ozdan foydalanish kerakliginigina ilg`ab oladi.

Ta`limning davomiyligi-ta`lim metodlarini tanlashga ta`sir etadi. Bunda darsga ajratilgan vaqtni, vazifani bajarishga sarflanadigan vaqtni hamda ta`lim metodlarini amalga oshirish uchun sarflanadigan vaqtni hisobga olish zarur.

O`quv-moddiy sharoitlari- bunda mavjud shart-sharoitlariga asoslanish zarur. Ba`zi metodlarni qo`llashda alohida sharoitlar talab qilinmaydi: kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, magnit doskasi, maxsus jihozlangan xona va h.k. Agar siz, maxsus o`quv-moddiy sharoitlar talab qiladigan metodlardan foydalanmoqchi bo`lsangiz, ularning naqdligini ta`minlashingiz kerak.

O`qituvchining mahorati-bunda tahsil oluvchilarning o`zlashtirish darajasiga, o`qitish metodlarining ta`sir darajasini hisobga olish zarurligini nazarda tutadi. Masalan: tahsil oluvchilarning o`quv materiallarini idrok qilish paytida ularning qancha ko`p sensorik (sezgi) kanallaridan foydalanilsa, esda olib qolingan bilimlarning miqdori va sifati shunchalik yuqori bo`ladi. Agar bilimlar faqat «ma`ruza»lar orqali (passiv tinglash yo`lida) berilgan bo`lsa, unda 3 kundan so`ng ularning faqat 25%ni eslash mumkin xolos. Agar u ma`ruzalar o`qish (tinglash), namoyish va ko`rgazmali qilish (ko`rish, ushlab ko`rish va shu kabilar) orqali berilsa va shu to`g`risida bahslashilsa, unda 3 kundan so`ng 75%ini esga tushirish mumkin.

Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sensorik kanallar birgalikda ishga solingan bo`lsa, ma`lumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o`tish jarayoni tezlashadi, bu esa bilishning asosi bo`lib hisoblanadi.

Tahsil oluvchilarning o`zlashtirish darajasiga o`qitish metodlarining ta`sir darajasi

1.	Ma`ruza-eshitish orqali	5%
2.	O`qish orqali	10%
3.	Videousul, namoyish-ko`rish orqali	20%
4.	Tajribani namoyish qilish orqali	30%

5. Bahs-munozara-muhokama qilish orqali 40%
6. Mashqlar-o`qigan, yozgan, gapirish orqali 50%
7. Ishbop o`yin, kichik guruhlarda ishlash, loyihalash-mustaqil o`qish, tahlil va muhokama qilish, himoya va namoyish qilish orqali -75%
8. Yo`naltiruvchi matn, muammoli vaziyat, boshqalarni o`qitish – mustaqil o`rganganimizni tahlil va muhokama qilish, boshqalarni o`qitish orqali berilayotgan axborotni 90%i esda saqlanib qolishi mumkin.

Xulosa qilib, shuni ta`kidlash joizki, ta`lim metodlarini tanlashda yuqorida sanab o`tilgan mezonlariga asoslangan holda o`quv jarayonlarini to`g`ri loyihalashtirish orqali tashkil etilsa, berilayotgan o`quv materiallari mazmuni tahsil oluvchilar ongiga tez va oson singdirilishiga hamda ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanilishiga erishishimiz mumkin.

Nazorat savollari

1. Interfaol metodi – bu?
2. Rezyume va venn diagrammasi metodlarini maqsadi, mohiyati va ularni amalga oshirish bosqichlari jihatidan taqqoslang.
3. Loyiha metodini amalga oshirish boqichlarini sxema ko`rinishida izohlang.
4. Tahsil oluvchilarning o`zlashtirish darajasiga ko`ra o`qitish metodlarining ta`sir darajasini ko`rsating. (5%, 10%. 20% 30% 40% 50% 75% 90%)

O`quv-didaktik material hamda vositalarni tayyorlash va ulardan foydalanish

Reja:

1. Ta`lim vositasi tushunchasi va uning mohiyati
2. Ta`lim vosita turlari va ulardan foydalanish
3. O`quv- didaktik materiallarni ishlab chiqish
4. Taqdimotni tashkil etish va o`tkazish qoidalari

Ta`lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish ko`p jihatdan ta`lim vositalari bilan qay darajada ta`minlanganligiga bog`liq bo`ladi.

**Ta`lim vositalari deb** – o`rganilish lozim bo`lgan o`quv materialni talabalar ongiga yetkazish uchun xizmat qiluvchi vositalar majmuasiga aytiladi.

Ta`lim vositalarining xususiyatlariga ko`ra 3 turga ajratish mumkin: bosma, texnik va real vositalar. Quyidagi chizmada ta`lim vositalarining turlari keltirilgan.



**Ta`lim vositalarining xususiyatlarga** ko`ra matnli vositalar; tasvirli vositalar; audiovizual vositalar; yordamchi (jihoz) vositalar; modelli vositalar; haqiqiy vositalarga bo`lish mumkin.

Ma`lumot olish va ma`lumotlarni qayta ishiash uchun

- o`quv dasturlari
- maxsus adabiyot (darslik, o`quv qo`llanmalar)
- ma`ruza matnlari
- tarqatma materiallar
- imtihon va nazorat varaqalari

TASVIRLI

Umumiy tasavvurni vujudga keltirish uchun

- fotosuratlar
- eskiz, chizma, sxemalar
- tasvirlar, jadvallar, simvollar
- plakatlar

AUDIOVIZUAL

Jarayonlar va ishlash mexanizmlari to`g`risida tasvir va ovoz orqali tasavvurni vujudga keltirish uchun

- videofil`mlar
- kompakt disklar
- audiokassetalar
- PowerPoint materiallari
- elektron darsliklar

YORDAMCHI (JIHOZLI)

Tasvir va matnni yozish va saqlash uchun

- doskalar (bo`r doska, oq doska, magnitli doska, elektron doska)
- «pinbord» doskasi
- videoproyektor
- kodoskop
- kompyuter
- flipchart
- audiomagnitafon, videomagnitafon
- televizor

MATNLI

O`rganilayotgan obyektning modeli orqali tasavvur hosil qilish uchun

- modellar
- mulyajlar, maketlar
- trenajyerlar

HAQIQIY

O`rganilayotgan obyektlar haqida haqiqiy tasavvurni vujudga keltirish

- asbob-uskunalar, moslamalar
- stanoklar, vagonlar, stansiyalar, teplovozlar, samolyotlar, mashinalar, mashinistlar
- temir yo`l rel`slari
- yarim tayyor va tayyor mahsulotlar
- xom-ashyolar

Nazariy darslarda ta`lim beruvchilar asosan matnli va yordamchi vositalardan, misol uchun darsliklar va tarqatma materiallardan va texnik vositalardan foydalanadilar.

Amaliy mashg`ulotlarda ular ko`proq tasvirli va real vositalardan, ya`ni eskiz, chizmalar, asbob-uskunalardan foydalanadilar.

Ovoz va tovushli (audio), shuningdek, tasviriy tasavvurlarni shakllantiradigan audiovizual vositalar jarayonlar va vazifalar to`g`risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi.

Yordamchi vositalar buning aksi o`laroq tasvir va matnlarni yozib olish va saqlash imkonini beradi. Ular doska, flipchart, pinbord doskasi, kodoskop, videoproyektor kabilardir.

Ish sohasiga tegishli real narsalar, ya`ni mahsulotlar, asboblar va boshqalar dars paytida didaktik funksiyaga ega bo`lsa, o`quv vositasi sifatida qo`llanilishi mumkin.

Ta`lim vositalaridan foydalanishda ularni muayyan maqsad, mo`ljallangan guruh, maxsus soha va metodlarga mos holda tanlash muhim o`rin tutadi. Bundan tashqari ta`lim beruvchi o`quv va ko`rgazmali vositalarni ishlata olishni va ulardan maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo`lishi lozim.

Ta`lim jarayonida texnik vositalardan foydalanish juda muhim o`rin egallaydi. Ushbu vositalar yordamida mashg`ulotlarni zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda olib borish hamda ta`lim oluvchilarning diqqatini jalb etishda keng foydalanish mumkin. Texnik vositalar ma`lumotlarni vizuallashtirishga yordam berib, kerakli tasvir va matnlarni yozib olish va saqlash imkonini beradi. Ta`lim beruvchilar doska tasvirlari, flipchart tasvirlari va kodoskop slaydlari kabi vizual vositalarni o`zlari ishlab chiqadilar. Shu sababli bunday vositalardan foydalanish qoidalari, ularning afzallik va kamchiliklarini hisobga olish lozim. Quyidagi materiallarda bo`r doska, flipchart, kodoskop, pinbord doskasi va videoproyektor kabi texnik vositalardan foydalanish bo`yicha yo`l-yo`riqlar berilgan.

MODELLI

Bo`r doska eng qadimgi, arzon va boshqalarga nisbatan ko`proq ishlatiladigan vosita hisoblansa kerak.

Mana ko`p yillardirki, u nazariy va amaliy darslarda qo`llaniladigan texnik vosita hisoblanadi. Bugungi televizorlar va kompyuterlar dunyosida doska sinfdagi eng ishonchli va ko`proq qo`llaniladigan o`quv vositasidir.

Doskadan foydalanishni ham rejalashtirib olish zarur. Buning uchun o`tiladigan mavzu bo`yicha doskaga yoziladigan matn va chizmalar tartib bilan rejalashtirib, qog`ozga xomaki varianti ishlab chiqiladi.

Doskadan foydalanishning asosiy qoidalari

- Barcha yordamchi vositalarni oldindan tayyorlab qo`yish
- Doskaga aniq va orfografik xatolarsiz yozish
- Matn yoki chizmalar oraliqlarini bir xil taqsimlash
- Rangli bo`rlarni didaktik talablarga mos kelgan holatda ishlatish
- Ta`lim oluvchilar bilan doim «ko`z aloqasi»ni saqlab turish

- Faqat bir tomonga emas, barcha ta`lim oluvchilarga qarab gapirish
- O`zlashtirish natijalarini tekshirib turish
- Muhim bo`lgan ma`lumotlarga alohida e`tiborni yordamchi vositalar yordamida qaratish

Doskaning afzalliklari:

- arzonligi;
- ma`lumotlarni taqdimot qilish uchun qulayligi;
- yozuvlar yozish uchun ishlatilishi;
- asosiy punktlarni tushuntirish uchun foydalanish mumkinligi;
- chizma va grafiklarni chizib ko`rsatish mumkinligi;
- diqqatni jalb qilish uchun foydalanilishi.

Doskadan foydalanishdagi kamchiliklar:

- doskaga diqqat bilan yozish ta`lim beruvchidan doskaga qarashini talab qiladi, buning uchun u ta`lim oluvchilarga teskari o`girilishga majbur bo`ladi;
- doskadagi yozuv (tasvir) saqlanishi mumkin emas va shuning uchun uni qayta qo`llash mumkin emas;
- doskaga yozish ko`p vaqtni talab qiladi.

Flipchart- doskaga juda o`xshashligiga qaramasdan, ko`pgina farqlar ham mavjud. Flipchartning eng asosiy qulayligi – bu matnni o`chirmasdan yozib ketaverish imkoniyatining borligi, ya`ni joy etishmasligidan yozilgan yozuvlarni o`chirishga hojat yo`q, faqat yetarlicha qog`oz bo`lishi talab etiladi. Shunday qilib, barcha fikr-mulohazalarni saqlash mumkin, hatto bir necha kundan so`ng bu qog`ozni yana osib qo`yish va munozarani davom ettirish mumkin. Flipchartning boshqa qulayligi, sinfdagi devor yoki doskaga birin-ketin hamma varaqlarini yopishtirish imkoniyati hisoblanadi. Butun guruh ishining natijalarini bir paytda ko`rish, taqqoslash va saqlab qolishning bunga teng boshqa imkoniyati yo`q.

Flipchartdan nima maqsadda foydalaniladi?

- guruhiy bahs-munozaralarning natijalarini saqlash va ularni kelajakdagi tadbirlarda ishlatish uchun;
- jarayonning bosqichlarini ko`rsatish uchun;
- taqdimotni tashkillashtirish uchun;
- turli masalalar bo`yicha asosiy qismlarini ajratib ko`rsatish uchun.

Flipchartning afzalliklari:

- flipchartni kerakli joyga siljitish mumkinligi;
- foydalanishning qulayligi;
- taqdimot uchun foydalanish mumkinligi;

- varaqalarni saqlab qo`yib, kerakli vaqtda undagi ma`lumotlardan takror foydalanish mumkinligi;
- turli rangli markerlardan foydalanish imkoniyati;
- o`quvchilarning diqqatini jalb etish uchun foydalanish mumkinligi.

Flipchartning kamchiliklari:

- yozuv tushunarli bo`lishi kerak, aks holda uni o`qish qiyin bo`ladi;
- xato yozmaslikka harakat qilish kerak, aks holda hamma to`g`rilangan joylar doim ko`rinib turadi;
- varaqlarni nusxalashtirish faqat fotosurat yoki ko`chirib yozish orqali mumkin xolos;
- ko`p flipchart qog`ozlari talab etiladi.

Kodoskop uchun sath (ekran), shuningdek, plyonka-slaydlar kerak. Kodoskop ta`lim beruvchi uchun eng yuqori darajadagi taqdimot imkoniyatini beradi. O`quv jarayonini bu vositasiz tasavvur qilish mumkin emas. Asosiy qulayligi shundaki, slaydlarni kompyuterda yoki shuningdek, qo`lda professional darajada tayyorlash mumkin. Ulardan istalgan vaqtda foydalanish va ish o`rni o`zgarganida boshqa joyga o`tkazish mumkin. Ammo kodoskopning faqat sifati emas (yorug`lik kuchi), balki ishlab chiqilgan slaydlarning sifati ham muhimdir.

Slaydlarni tayyorlash uchun quyidagi materiallar kerak bo`ladi:

- ✓ acetatli qog`oz – sun`iy toladan qilingan tiniq qog`oz;
- ✓ alohida qoplamaga ega, nusxalashtirish mumkin bo`lgan slaydlar;
- ✓ slaydlarga yozish uchun flomasterlar (doimiy yoki suv bilan o`chirish mumkin bo`lgan);
- ✓ slaydlarni tozalash uchun spirt;
- ✓ simvolli asboblar (shablonlar, chizg`ich va shu kabilar).

Kodoskopdan foydalanishdan oldin uning bexato ishlashini va tozaligini tekshirish lozim. Slaydlar taqdimot qilinishidan avval tartib bilan mantiqiy ketma-ketlikda tayyorlab qo`yilishi maqsadga muvofiqdir.

Taqdimot davomida ekranga emas, balki ta`lim oluvchilarga qarab nutq tezligiga e`tibor bergan holda gapirish kerak. Ta`lim oluvchilar bilan doim «ko`z aloqasi»ni saqlab turish va barcha ta`lim oluvchilarga qarab gapirish lozim.

Slaydlarga ishlov berishda shrift turi va shrift kattaligi bo`yicha qoidalarga rioya qilib, yaxshi o`qilishi mumkin bo`lgan slaydlarni ishlab chiqish kerak. Bundan tashqari slaydlarni tayyorlashda ularning dizayniga ham katta e`tibor berish, ranglarni haddan tashqari ko`p ishlatmaslik lozim.

Kodoskopning qulayliklari:

- kodoskopni boshqa joyga siljitish mumkinligi;

- foydalanishning qulayligi;
- slaydlarni qo`lda, fotonusxa va kompyuter yordamida tayyorlash mumkin;
- slaydlarning katta guruhga ko`rinarli bo`lishi;
- bir marta tayyorlab, ulardan bir necha bor foydalanish mumkinligi;
- rangli tasvirni qo`llash mumkinligi;
- ta`lim beruvchi ta`lim oluvchilar bilan «ko`z aloqasi»ni doimo saqlab turishi mumkinligi.

Kodoskopning kamchiliklari:

- kodoskop doska yoki flipchartga qaraganda qimmatroq;
- ko`pincha takrorlanadigan xato: bir slaydga haddan tashqari ko`p ma`lumot yoziladi;
- slayd ustida to`g`rilash ko`pincha murakkab (kodoskop nurida doimo ko`rinadi);
- ranglardan haddan tashqari ko`p foydalanish;
- elektr energiyasini talab qiladi.

"Pinbord" inglizcha so`z bo`lib, (pin-mahkamlash, bord-doska) doskaga mahkamlash degan ma`noni anglatadi.

Qoidaga ko`ra, pinbord doskasi ustiga o`rash qog`ozi tortiladi va qo`shimcha kerakli material sifatida turli rang va shakldagi kartochkalar bo`lishini talab qiladi. Ular pinbord doskasiga ignalar bilan mahkamlanadi. Ishni tugatgandan so`ng kartochkalarni o`rash qog`oziga yopishtirish va ularni navbatdagi tadbirlar uchun qo`llash mumkin. Kartochkalar maxsus rangli flomasterlar yoki markerlar bilan yoziladi. Bu vosita asosan yig`ilishlarda muhim o`rin egallaydi, chunki bu vosita yordamida qarorlar, muammolarni ishlab chiqish va guruhiy bahs-munozaralarni boshqarishni ko`rgazmali qilish mumkin.

Pinbord doskasining afzalliklari:

- pinbord doskasini siljitish mumkinligi;
- ma`lumotlarni doskaga mustahkamlash imkoniyati;
- kartochkalarni guruhlash imkoniyati;
- turli rangli qog`ozlardan foydalanish mumkinligi.

Pinbord doskasining kamchiligi:

- ko`p qog`oz talab etilishi;
- kartochkadagi yozuvlarning turli-tumanligi.

Har bir ta`lim vositasi talab darajasida ishlab chiqilib, o`z o`rnida va samarali foydalanilsa, ta`lim jarayonida mazmunni o`zlashtirishga katta

yordam beradi. Ta`lim jarayonidagi eng muhim vositalar yuqorida ta`rif berilgan texnik vositalar hisoblanadi. Bu vositalar dars jarayonini ko`rgazmali qilishga, o`quv materialining o`zlashtirilishini yengillashtirishga va ta`lim oluvchilarning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi. "Yuz marta gapirgandan ko`ra, bir marta ko`rgan afzal" degan xalq iborasi bunga yaqqol misol bo`ladi. Ko`rgazmalilik, tushunarlilik va misol-namunalardan foydalanish kabi didaktik tamoyillar bu iboraga javob beradi. Chunki bu vositalardan foydalanishning mohiyati, ta`lim oluvchilarda bilimlarni ko`rgazmali va imkon qadar real hayotga yaqin holda shakllantirishdan iboratdir.

Tarqatma materiallarni tayyorlash bo`yicha tavsiyalar: bir mavzu ta`lim oluvchilarga haddan tashqari ko`p tarqatma materiallar bermang; sarlavhalarni bosh harflar bilan yozing, bir mashg`ulot uchun ikkita tarqatma material zarur bo`lsa, ularga kod-nom berib, ularni ajratishni osonlashtiring; matn shrifti 12 dan kichik bo`lmasligi kerak; bir betda 80 tadan ko`p belgi (harf, qavs, undov belgisi va h.k.) ishlatmang; matnlar tushunarli, qisqa va oddiy bo`lishi kerak; varaq dizayni e`tiborni o`ziga tortishi kerak.

**Slaydlar tayyorlash bo`yicha tavsiyalar:** har bir slaydda sarlavha bo`lishi kerak – jumla tuzishda aniq va lo`nda fikringizni bayon eting; ma`lumotlarning ketma-ketligini ta`minlang; slayd tayyorlashda telegraf usulidan foydalaning; chalkashtiruvchi iboralarni kiritmang; ma`lumotlar ko`pligi tahsil oluvchilarning aqliy zo`riqishiga olib kelishi mumkin; har bir slaydda so`z birikmalari 7-8 qatordan oshmasligi kerak; slayd ranglarini tanlash – slayd tayyorlashda och ranglardan foydalanish; slayd foniga to`q ranglarni ishlatish; slayd yozuviga to`q ranglarni ishlatish; to`q ko`k va yashil ranglardan qora rang o`rnida foydalanish; to`q ranglarni katta hajmda ishlatmaslik; sabzirang tusdagi ranglar ishtirokchilarning kayfiyatiga salbiy ta`sir ko`rsatishini hisobga olish; qizil rangni faqat biror bir elementga urg`u berish uchun ishlatish; slayd tayyorlashdagi xatoliklar – ko`p ma`lumotlarni tartibsiz joylashtirish; kir slayd (barmoq izlari) ni qo`llash; juda mayda harflarda yozish; taqdimotda rasmlardan foydalanmaslik; uyg`unlikning yetishmasligi.

Taqdimotning asosiy maqsadi – diqqatni to`plash, qiziqtirish, ishontirishdir. taqdimotchining vazifasi – mavzuga tayyorlanishi; auditoriyaga yetkaza olishi; ta`lim vositalaridan to`g`ri foydalana olishidir. Taqdimotdan o`quv jarayonida foydalanish orqali ko`rgazmalilik, vaqtni tejash, motivatsiya oshirish, tizimlilik, samarali natijaga erishiladi. Taqdimotni olib borishda quyidagi qoidalarga rioya etiladi: kiyinish madaniyati yaxshi bo`lsin, taqdimotni yaxshi kayfiyatda boshlash va yakunlash, nutq (so`zlash

usuli, ritorika) ravon bo`lsin, harakatlar bilan ifodalansin (jestikulyatsiya), vaqt taqsimotiga amal qilinsin, auditoriya bilan vizual aloqani yo`qotmaslik, o`zingizni ishonchli va erkin tutish; harakatlari bir maromda va qo`llaringiz old tomonda erkin bo`lishi, taqdimot vaqtida bir joyda turib qolmaslik, auditoriyaga qarab gapirish, auditoriyaga orqa bilan turmaslik, auditoriyadagilarning diqqatini ko`rgazmalarga yo`naltirish, haddan ortiq ko`p ma`lumotlar bermaslik, muhim ma`lumotlarni takrorlash, taqdimotni shoshilmasdan, bafurja o`tkazishga harakat qilish, taqdimot o`tkazilayotganda ekranni to`sib qo`ymaslik, berilayotgan materialni qisqa va lo`nda bayon etish; misol keltirish va taqqoslash, "Men" dan ko`ra "Biz" so`zini ko`proq ishlatish, slaydlarni o`zgartirayotganda izoh berib borish, nutq so`zlash qoidalari, ravon til melodikasi, nutq tempi (ovozni baland va past pardalarda o`zgartirib turish), auditoriyaga qarab gapirish; so`z bo`g`inlarini to`liq talaffuz qilish, taqdimotni olib borilishida man etiladi: auditoriya bilan vizual aloqani yo`qotish; beharakat ko`rinishda bo`lish, asabiylashish, ortiqcha, behuda harakatlarni qilish kabilarga rioya etiladi. Shuningdek, taqdimotni olib borishda texnik vositalaridan foydalanishda esa quyidagi qoidalariga: xona sharoiti va texnik vositalarning sozligini tekshirish; texnik nosozliklarga doimo tayyor turish; ekranda tasvirning tushishini tekshirish; proyektor ishiga xalaqit beradigan jihozlarni olib qo`yish; taqdimot uchun mo`ljallangan dasturlardan foydalanish, auditoriya diqqatini ko`rgazmalarga maqsadli yo`naltirish, taqdimot jarayonida ekrandan emas, kompyuter monitoridan foydalanish, ekrandagi tasvirlangan matnlarni o`qimasdan, o`z so`zingiz bilan ifodalash maqsadga muvofiqdir.

NAZORAT SAVOLLARI

Texnik vositalarni tanlash va ulardan foylanish

Kodoskopdan foydalanish		**Flipchart foydalanish**		**Doskadan foydalanish**	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi
Xulosa					

Kasb-hunar kollejlarida o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash

Reja

1. O`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini baholash tushunchasi
2. O`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini baholash shakllari va turlari
3. O`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini baholash tamoyillari va baholashda uchraydigan kamchiliklar
4. O`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini baholash metodlari
5. O`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini baholashni loyihalashtirish

O`zbekistonda iqtisodiy islohotlar jarayonining tezkor rivojlanish dinamikasi ta`lim tizimi oldida ijodkorlik va tashabbuskorlik qobiliyatiga ega bo`lgan, mustaqil qaror qabul qila oladigan va texnik texnologiyalarga tez moslashishga layoqatli, malakali mutaxassislarni tayyorlash vazifasini qo`ymoqda.

Mazkur vazifani amalga oshirishda Oliy va kasb-hunar ta`lim tizimlari oldida turgan dolzarb vazifalardan biri o`qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg`or tajriba yutuqlardan keng foydalanish, ularni o`quv jarayoniga joriy etish hamda rivojlangan davlatlarning kasbiy ta`lim tajribalarini mamlakatimiz ta`lim tizimiga tatbiq etish orqali sifatli malakali kadrlar tayyorlash zarurati aniq, qat`iy mezonlar asosida tahsil oluvchilarning bilim, ko`nikma va malaka darajasini baholash lozimligini taqozo etmoqda. Ana shu zaruratning samarasi sifatida talabalarning bilim darajasini aniqlovchi reyting tizimi ishlab chiqildi.

Bugungi kunda talabalarning bilim, ko`nikma va malakalari "Baholashning reyting tizimi to`g`risida»gi muvaqqat Nizomi asosida baholanib kelinmoqda. Ta`lim tizimiga reyting nazoratini tatbiq etishdan ko`zlangan maqsad–talabalarning bilimi, ularning ma`lum faoliyat borasidagi ko`nikma va malakalari darajasini har tomonlama, chuqur va xolis nazorat qilish, baholashdan iborat. Ushbu jarayonni to`g`ri tashkil etish va amalga oshirish muhim ahamiyatga egadir. Reyting tizimining o`ziga xos yutuq va kamchiliklari mavjud. Pedagogik adabiyotlarning tahlili, vatanimiz olimlari fikriga ko`ra, uzluksiz ta`lim tizimida hanuzgacha talabalarning bilimini nazorat qilish va ularni baholash masalalari muammo sifatida talqin etilmoqda. Shundan kelib chiqqan holda o`quv maqsadlariga erishganlikni baholash mexanizmi haqida fikr yuritishdan oldin talabalarning bilim savi-

yasini baholash tushunchasi va uning mohiyatiga to`xtalib, o`tsak:

Baholash- ta`lim jarayonining ma`lum bosqichida o`quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o`lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

Ta`lim oluvchilar tomonidan o`quv materiallari o`zlashtirilganligini, ko`nikma va malakalar hosil bo`lganligini tekshirish va baholash ta`lim jarayonining zarur tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faqat o`qitish natijalarini nazorat qilish emas, balki o`quv jarayonining turli bosqichlarida ta`lim oluvchilarning bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamdir.

Baholash natijasida tushuncha va qonun-qoidalarning qaysi birlari qiyin, qaysi birlari esa oson o`zlashtirilishi aniq ravshan bo`ladi. Bu ta`lim oluvchining ijodiy tarzda darsga tayyorgarlik ko`rishi va o`quv mashg`ulotini o`tkazishi uchun asos bo`lib xizmat qiladi. Xuddi shuningdek, ta`lim oluvchiga ham ta`lim jarayonida qaysi o`quv materialini yaxshi, qaysini qoniqarli va nimani yomon o`zlashtirgani ma`lum bo`ladi. Bilimlarni tekshirmasdan ta`lim oluvchi o`z bilimlarini chuqur, har tomonlama va to`g`ri baholashga qodir emas. Ba`zan unga go`yo o`quv materialini yaxshi egallab olganday tuyuladi, tekshirish chog`ida esa materialni yaxshi bilmasligi, yaxshi tushunmasligi ma`lum bo`lib qoladi. Baholash natijasida, ta`lim oluvchilarning o`rganilayotgan materiallarni bilish, tushunish, esda saqlab qolish, anglab olish, amalda qo`llay olish, tahlil qilish va o`z bilimlariga tanqidiy baho berish darajalari aniqlanadi.

Bilimlarni, ko`nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda ta`lim oluvchilarning o`qishga, o`z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan munosabati shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug`iladi. Baholash hamisha ta`lim oluvchining shaxs sifatida o`ziga nisbatan muayyan bir munosabatini hosil qiladi. Ta`lim oluvchini muntazam ravishda o`z natijalari to`g`risida xabardor qilib turish, uning maqsad sari intilishiga va istaklarini ro`yobga chiqarishga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. Ta`lim beruvchi ta`lim oluvchining o`ziga nisbatan munosabatini, tuyg`ularini, uning xarakteridagi irodalilik, hamkorlik, o`zaro bir-biriga yordam berish kabi sifatlarini shakllantirishga e`tibor qaratishi lozim bo`ladi.

Ba`zan baholash jarayonida ta`lim oluvchi qo`shimcha bilim, ko`nikma va malakalarga ham erishadi. Ta`lim jarayonida o`zlashtirmagan tushunchalarining mohiyatiga tushunib yetadi. Shu bois, baholashni ta`lim olish jarayonining davomi deb ham aytish mumkin.

Bilimlarni nazorat qilish va baholash davlat ahamiyatiga egadir. Baholash natijalarini umumlashtirib, ta`lim muassasasi jamoasining ta`lim-tarbiya sohasidagi faoliyatiga, talabalarning umumiy o`zlashtirish darajasiga

baho beriladi va tegishli xulosalar chiqariladi. Davlat ta`lim standartlarida davlat tomonidan qo`yilgan talablar nechog`lik bajarilayotganligi aniqlanadi.

Natijalarni baholash orqali bir paytning o`zida butun ta`lim tizimi va uning komponentlari tekshirilib ko`rilishi kerak. Bu bilan ta`lim tizimida kutilayotgan natijaga erishilayotganlik darajasi tekshirilib o`lchanadi. Baholash natijasida nafaqat ta`lim oluvchining, balki ta`lim beruvchining kuchli va kuchsiz tomonlari, shuningdek, o`quv jarayonidagi kamchiliklar ham aniqlanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, baholashning mohiyati haqida quyidagi xulosalarni aytish mumkin:

Nima uchun baholash kerak?

- O`quv maqsadlariga erishilganlikni aniqlash uchun;
- keyingi bosqichga o`tishdan oldin avvalgi o`zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- natijaga erishganligini tasdiqlash uchun;
- ta`lim oluvchilarning qiziqishlarini aniqlash uchun;
- yutuq va kamchiliklarni aniqlash uchun;
- ta`lim beruvchi o`z faoliyatiga tuzatishlar kiritishi uchun;
- yalpi o`zlashtirish darajasini aniqlash uchun;
- ta`lim jarayoni yutuqlarini aniqlash uchun;
- ta`lim oluvchilarni yutuqlarga qiziqtirish uchun;
- tashqi qiziquvchilarga, ish beruvchilarga, yuqori tashkilotlarga va ota-onalarga ma`lumot berish uchun.

Nimani baholash kerak?

- Nazariy bilimlarni;
- amaliy ko`nikma va malakalarni;
- hulq-atvor va shaxsiy fazilatlarni.

Qachon baholash kerak?

- Ta`lim jarayoni boshida (boshlang`ich baholash);
- ta`lim jarayoni davomida (joriy baholash);
- ta`lim jarayoni yakunida (yakuniy baholash).

Bilimlarni tekshirish va baholash muayyan didaktik talablarga javob berishi kerak. Tekshirish va nazorat qilish sistemali, doimiy tarzda bo`lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa, ta`lim oluvchilarning o`qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta`sir qiladi. Bilimlarni baholash individual xarakterga egadir. Har bir ta`lim oluvchi uning qaysi bilimlari, ko`nikma va malakalari baholanayotganini bilishi kerak. Ta`lim beruvchining savollariga va vazifalariga javob berishga tayyorlik

holati bilimlarni tekshirish va baholash o`quv jarayonining muhim bir bo`lagiga, uning tarkibiy qismiga aylangan taqdirdagina ro`y beradi.

Bilimlarni, ko`nikma va malakalarni nazorat qilish va baholashda o`quv maqsadlariga asoslanganlik; haqiqiylik; haqqoniylik; ishonchlilik, qulaylik kabi asosiy **tamoyillar** baholash tizimi samaradorligining poydevori hisoblanadi.

**1. O`quv maqsadlariga asoslanganlik.** Samarali baholashning asosiy tamoyili o`quv maqsadlariga asoslanganlik hisoblanadi. Baholashning sifati o`quv maqsadlariga to`g`ridan–to`g`ri bog`liqdir. O`quv maqsadlari baholash mazmunini aniqlab beradi. O`quv maqsadlarining qo`yilish darajasiga qarab, baholashning shakli va usullari tanlanadi. Shuningdek, o`quv maqsadlariga erishish uchun bajarilgan faoliyat natijasi, baholash mezonlarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Har qanday baholash tizimi loyihalashtirilayotganda, baholash topshiriqlari berilgan ta`lim mazmuni doirasida bo`lishi talab etiladi. Baholashni loyihalashtirayotganda, har doim quyidagi ikki savolni e`tiborga olish lozim:

1. Baholash topshiriqlari ta`lim jarayonidan ko`zlangan o`quv maqsadlarini to`la aks ettiradimi?
2. O`quv maqsadlari darajasiga baholash shakllari, usullari va mezonlari to`g`ri tanlandimi?

Masalan, yo`l harakati qoidalari bo`yicha olingan bilimlarni baholashda yozma test olish usuli mos kelishi mumkin. Lekin undan mashinani boshqarish malakalarini baholashda foydalanib bo`lmaydi. Bu malakalar og`zaki yoki yozma emas, balki amaliy faoliyatga asoslangan baholash usuli yordamida baholanishi maqsadga muvofiq bo`ladi.

2. Haqiqiylik. O`quv maqsadida ko`zda tutilgan natijanigina baholashga qaratilgan topshiriq yoki test haqiqiy hisoblanadi. U baholanishi lozim bo`lgan bilim va ko`nikmalar sohasidagi natijalarga qaratilgan bo`lishi lozim.

Ta`lim oluvchining erishgan natijalari to`g`risida asoslangan va ishonchli axborotlar berish kerak. O`lchanishi talab etiladigan narsalargina o`lchanishi kerak. Ta`lim oluvchi egallagan bilim, malaka va ko`nikmalar hamda shaxsiy fazilatlarni o`lchash imkonini beradigan metodlardan foydalanish zarur.

3. Haqqoniylik (obyektivlik). Bir-biridan mustaqil ta`lim beruvchilar bir xil ta`lim oluvchilarga berilgan bir xil topshiriq va testlar bo`yicha bir xil baho bergan holdagina mazkur baholash haqqoniy hisoblanadi. Bu haqqoniylik har xil vaqtlarda berilgan baholar uchun ham taalluqlidir.

Baholash tizimi o`quv maqsadlariga mos bo`lishi, shuningdek, baholash shart-sharoitlari va maqsadlari bilan ta`lim oluvchilar oldindan

tanishgan bo`lishlari lozim. Ta`lim oluvchilarga bir xil murakkablikdagi va hajmdagi topshiriqlar berilishi kerak.

4. Ishonchlilik. Natijalarni baholash mobaynida har xil usullardan foydalanish mumkin. Lekin bu usullarni tanlashga qo`yiladigan asosiy shart ishonchlilik hisoblanadi. Uslub ishonchli bo`lishi uchun baholash asosli va aniq ma`lumotlarga asoslangan bo`lishi zarur. Bunda topshiriq yoki testning o`rganish maqsadlarini nazorat qilishga yo`naltirilganligi qanchalik ishonchli ekanliligi nazarda tutiladi.

Baholash ishonchli bo`lishi uchun ta`lim oluvchilarda bir-biriga o`xshash, ammo har xil sharoitlarda baholash o`tkazilganda, natijalari bir xil bo`lishi kerak. Baholash metodining ishonchliligi turli metodlarning natijalari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Baholash tizimi ishonchli bo`lishi uchun turli ekspertlar yordamida baholash o`tkazilganda, uning natijalari bir-biriga o`xshash bo`lishi kerak.

Baholash ishonchliligining ikki tomoni bor:

1. **Baholash usulining ishonchliligi**. Agar foydalanilayotgan baholash usulining ishonchliligi yuqori bo`lsa, talabaning o`zlashtirish darajasi baholashning har xil usullaridan foydalanganda ham o`zgarmay qoladi (olingan natijalar bir xil, o`zgarmas bo`ladi).
2. **Baholashning o`zlashtirish darajasini hisobga olish ishonchliligi**. Ta`lim oluvchining o`zlashtirish darajasini baholash usullarining ishonchliligi deb, baholash boshqa joyda va boshqa imtihon oluvchi tomonidan o`tkazilganda ham, uning bir xil bo`lishi, o`zgarmasligi tushuniladi.

Baholash usullarining ishonchlilik darajasi quyidagi holatlarda ko`proq bo`ladi:

- hamma ta`lim oluvchilar qo`yilgan talabni aniq tushunsa;
- baholash shartlari oldindan ma`lum qilinsa va unga rioya qilinsa;
- hamma natijalar baholashning oldindan kelishilgan mezonlariga to`la asoslangan bo`lsa;
- tasodifiy xatolarni kamaytirish maqsadida mos baholash turlari qo`llanilsa.

5. Qulaylik. Baholash tizimi o`quv maqsadlaridan kelib chiqqan holda, o`quv va ishlab chiqarish standartlariga mos bo`lishi, murakkab bo`lmasligi, nazorat o`tkazuvchi va ta`lim oluvchi uchun qulay bo`lishi lozim. Baholashni o`tkazishda imkon qadar kompyuterlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Topshiriq yoki test paytida ball beriladigan bo`lsa, ball berish o`rganish maqsadlari nazorat qilishga moslashtirilgan bo`lishi lozim. Bunda mavzuning muhimroq bo`lgan qismlariga unchalik muhim bo`lmagan qismlariga nisbatan ko`proq ball berish kerak bo`ladi.

Ta`lim jarayonida ba`zi holatlarda baholashga subyektiv yondoshishlarga duch kelamiz. Bunday yondoshishga **baholashdagi xatoliklar** deb ataladi. Ta`lim beruvchining shaxsiy qarashlari bilan bog`liq bir necha baholash xatolari mavjud:

- **Hayrixohlik xatosi**

Agar ta`lim beruvchi biror ta`lim oluvchiga nisbatan hayrixohlik bilan qarasa, bu bahoning biroz yuqoriroq bo`lishiga olib kelishi mumkin.

- **Yuqori talab qo`yish xatosi**

Agar ta`lim beruvchi o`ziga nisbatan yuqori talablar qo`ysa va xuddi shunday yuqori darajadagi talablarni ta`lim oluvchilarga nisbatan qo`llasa, bu bahoning biroz pastroq bo`lishiga olib kelishi mumkin.

- **O`rtacha baho berish xatosi**

Bu xato ta`lim oluvchilarning natijalari o`rtacha baholanishini bildiradi. Buning sabablari ta`lim beruvchining o`ta yaxshi yoki o`ta yomon baho berishdan qo`rqishi bo`lishi mumkin.

- **O`z fikrini o`zgartirmaslik xatosi**

Ta`lim beruvchi o`zining birinchi fikrini o`zgartirishni xohlamasligi tufayli, o`z nazoratining natijalarini o`zgarishsiz qoldiradi. Bir marta sodir bo`lgan voqea tufayli ta`lim beruvchida biror ta`lim oluvchi to`g`risida qolgan ijobiy yoki salbiy taassurot, keyinchalik bu ta`lim oluvchining shaxsiyatiga oid barcha boshqa xususiyatlariga e`tibor bermasligiga olib keladi.

- **Yoqtirmaslik xatosi**

Biror ta`lim oluvchini yoqtirmasligi yoki unga nisbatan salbiy fikrda bo`lishi tufayli ta`lim beruvchi ta`lim oluvchiga yomon baho qo`yadi. Bu xato «hayrixohlik xatosi»ning aksidir.

Ta`lim beruvchining baholashdagi xatoliklarining oldini olish uchun quyidagilarga amal qilish kerak:

- Baholash mezonlarini aniq ishlab chiqish va ularni to`g`ri tanlash.
- Baholashdan oldin ta`lim oluvchilar bilan talablar va baholash mezonlarini muhokama qilish.
- Nazorat varaqasini ishlab chiqish.
- Baholovchining bir emas, balki ikkita bo`lishi.
- Baholash usullarini to`g`ri tanlash.
- Baho mezonlarga muvofiq qo`yilgach, ta`lim oluvchilarga ma`lum qilish.
- Baholash topshiriqlarini va ularga javoblarni imkoni boricha yozma ravishda o`tkazish va rasmiylashtirish.

- Ta`lim beruvchi ta`lim oluvchi bilan birgalikda olingan baholarning natijalarini va yo`l qo`yilgan xatolarni muhokama qilish hamda sababini aniqlash.
- Xatolarni tuzatish chora-tadbirlarini belgilab olish.

Baholash, uning mohiyatidan kelib chiqib, ikki xil shaklda o`tkazilishi mumkin:

1. Mezonga asoslangan baholash
2. Me`yorga asoslangan baholash.

Mezonga asoslangan baholash baholanuvchining ta`lim jarayonida qo`lga kiritgan natijalarini, bilim, ko`nikma va malakalarini oldindan belgilangan o`quv maqsadlari asosida ishlab chiqilgan, hamma uchun umumiy va bir xil mezonlarga ko`ra taqqoslash va o`lchashdan iborat bo`lgan baholash shaklidir. Bunday baholash mezonlarni aniq belgilab beruvchi o`rganish maqsadlari bo`yicha natijalarga baho berish imkoniyatini yaratadi. Bu orqali natijalar to`g`ridan-to`g`ri va xolis baholanadi, shuningdek, kuchli guruhlarni kuchsiz guruhlardan yaxshiroq farqlash imkonini beradi. Bu baholash shakli ikki bosqichdan iborat bo`lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, natijalar mezonlarga taqqoslanadi va o`lchanadi.

Mezonga asoslangan baholashning **afzalliklari** quyidagilardan iborat:

- o`quv maqsadiga muvofiq baholanadi;
- ta`lim oluvchining o`zlashtirish darajasini obyektiv baholaydi;
- baholash o`zining aniq ko`rsatkichlariga ega bo`ladi;
- ta`lim oluvchi olgan bahosida yo`l quygan xatolarini yaqqol ko`rib turadi;
- baholanuvchini ta`lim olishga yo`naltiradi;
- baholanuvchilarning baholanayotgan sohadagi kuchli va kuchsiz tomonlarini xolisona aniqlab beradi, ularning o`z bilimi va malakalariga bo`lgan ishonchini oshiradi;
- hamma uchun bir xil bilim va malaka talablarini o`rnatadi;
- ta`lim mazmunini aniqlab beradi;
- baholanuvchilarning o`z faoliyati natijalariga bo`lgan mas`uliyatini oshiradi.

Mezonga asoslangan baholashning **kamchiliklari** esa quyidagilardan iborat:

- mezonlarni ishlab chiqish ko`p vaqt talab qiladi;
- mezonlarning obyektivligi, haqqoniyligi va aniqligini aniqlashga nisbatan talablarning ko`pligi;
- ijtimoiy fan yo`nalishlari bo`yicha mezonlar ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch kelinadi.

**Me`yorga asoslangan baholash** nisbiy baholash shakli bo`lib, baholashdan so`ng baholanuvchilarning ta`lim jarayonida qo`lga kiritgan natijalarini o`zaro taqqoslash orqali o`lchashdan iborat

Bu baholash shakli ham ikki bosqichdan iborat bo`lib, birinchi bosqichda baholanuvchining erishgan natijalari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa, bu natijalar o`zaro taqqoslash orqali o`lchanadi. Me`yoriy baholashda baho bir necha ko`rsatkichlarga va ta`lim olish shart-sharoitiga ko`ra o`zgarishi mumkin bo`ladi.

Me`yorga asoslangan baholashning **afzalliklari** quyidagilardan iborat:

- ta`lim beruvchi ortiqcha vaqt sarflamaydi;
- turli shart-sharoitga oson moslashtirish mumkin;
- baho bo`yicha ko`rsatkichlar umumiy tarzda olinadi;
- muayyan baholanuvchilar guruhi ichida ularning o`zlashtirish darajasiga qarab tabaqalashtirish imkonini beradi;
- baholash natijasida guruh ichidan ma`lum sondagilarini ajratib olish imkonini beradi (masalan, kirish imtihonlari natijasida boshqalarga nisbatan eng yuqori ko`rsatkich ko`rsatgan 25 kishini ajratib olish mumkin).

Me`yorga asoslangan baholashning **kamchiliklari** esa quyidagilardan iborat:

- bilimlarni obyektiv va haqqoniy baholashning pasayishiga imkoniyat yaratadi.
- baholashda bilim bilan hulqni baholash aralashtirib yuboriladi;
- ba`zan hulqni baholash bilimni baholashni belgilab qo`yadi;
- baholar ta`lim beruvchi tomonidan subyektiv belgilanishi mumkin;
- ta`lim oluvchiga nisbatan simpatiya ham bahoni yuqori qo`yib yuborishga olib keladi.

Baholash o`tkazilish vaqtiga ko`ra uch turga ajratiladi:

- Boshlang`ich baholash;
- Joriy, ya`ni shakllantiruvchi baholash;
- Oraliq umumlashtiruvchi baholash.
- Yakuniy umumlashtiruvchi baholash.

***Boshlang`ich baholash*** ta`lim jarayoni boshida ta`lim oluvchilarning dastlabki bilim, ko`nikma va malakalarini aniqlash uchun o`tkaziladi. Bunday baholash natijalari ta`lim jarayonining mazmuni, metodlari va shakllarini tanlash imkonini beradi.

Joriy (shakllantiruvchi) baholash muntazam ravishda o`tkazib boriladi. U ta`lim jarayonidagi yutuq va kamchiliklarni, ta`lim jarayoni samarasini tezkor(operativ) aniqlab borish, o`quv jarayonini muvofiqlashtirish va

ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchi o`rtasidagi qaytar aloqani ta`minlash imkonini beradi.

Joriy (shakllantiruvchi) baholashda fanning xar bir mavzusi bo`yicha talabalarning nazariy bilimi va amaliy ko`nikmalarini aniqlab borish nazarda tutiladi va u amaliy, seminar yoki laboratoriya mashg`ulotlarida amalga oshirilishi mumkin

Oraliq baholash- fanning bir necha mavzularini qamrab olgan bo`limi yoki qismi bo`yicha nazariy mashg`ulotlar o`tib bo`lgandan so`ng talabalarning nazariy bilimlari baholanadi va unda talabalarning muayyan savolga javob berish yoki muammo yechish mahorati va qobiliyati aniqlanadi. Oraliq baholash ma`ruza darslarida amalga oshirilishi mumkin. OB lar soni fanning umumiy soatlari hajmida kelib chiqib, oliy ta`lim muassasasi tizimida aniqlanadi.

Yakuniy (umumlashtiruvchi) baholash-talabaning bilim, ko`nikma va malakalari umumiy mazmuni doirasida baholanadi. YaB semestr yakunida o`tkaziladi. Muayyan fan bo`yicha ta`lim oluvchining semestr davomida o`zlashtirish ko`rsatkichi aniqlanadi.

Umumlashtiruvchi baholashni o`tkazishda quyidagilarga e`tibor berish lozim:

- Ta`lim oluvchi umumlashtiruvchi baholash nima uchun o`tkazilishi haqida ma`lumotga ega bo`lishi lozim. Bu uning baholashga tayyorgarlik ko`rishiga olib keladi.
- Baholashni o`tkazish shartlari unga jiddiy yondashishga, diqqatni chalg`itadigan yoki tasodifiy uzilishlardan o`zini chetga olishga hamda ta`lim oluvchining o`z qobiliyatini namoyish qilishiga imkon beradi.
- Baholash o`tkazish sharoitida ta`lim oluvchi o`zini erkin tutishi va noxushlik his etmasligiga imkoniyat yaratish kerak.
- Baholovchi va ta`lim oluvchi baholash nima maqsadda, u qachon, kim tomonidan va qanday o`tkazilishini bilishlari muhim ahamiyatga egadir.
- Qo`yilgan baho o`quv natijasiga qay darajada erishganlikni tushunish va uni mujassamlashtirish uchun ahamiyatlidir.
- Ta`lim oluvchi oldindan belgilangan natijalar mezoni yordamida baholanishi lozim.
- Rejalashtirilmagan baholashni o`tkazish maqsadga muvofiq emas.

Ta`lim jarayonida ta`lim oluvchilarning nazariy bilimlari va aqliy layoqatini baholashda og`zaki va yozma baholash topshiriq shakllaridan foydalaniladi.



Og`zaki shakldan ko`proq og`zaki savol-javoblarni qisqa vaqt ichida o`tkazish uchun foydalaniladi. Ushbu jihatiga ko`ra, bu baholash topshiriq shaklidan oraliq nazoratni amalga oshirishda foydalanish maqsadga muvofiq.

Og`zaki topshiriqning ochiq va yopiq turlari mavjud.

Og`zaki shaklning **ochiq turi** deganda, ta`lim oluvchining so`ralgan material yuzasidagi ma`lumotlar bilan bir qatorda erkin va ijodiy yondoshish asosida javob berishi nazarda tutiladi.

Yopiq turda esa ta`lim oluvchi faqat berilgan material doirasida javob berish bilan cheklanib qoladi.

Og`zaki topshiriqlarni bajarish jarayonida ta`lim oluvchilarning bilimlari bilan birga o`zini tutishi, reaksiyasi va muloqot qilish qobiliyati inobatga olinadi. Ularni quyidagilarga ajratish mumkin: kasbiy holatlarga simulyatsiya (taqlid) qilish; yechish yo`llarini topish bilan bog`liq muammoli holatlarni muhokama qilish; ta`lim oluvchining muammoli holatlarga bo`lgan shaxsiy munosabati.

Psixik omil (tanglik, erkin emaslik, qo`rquv kabilar) katta rol` o`ynashi tufayli ko`pincha haqiqiy natijalar berish qobiliyati ko`rinmay, yuzaga chiqmay qolishi mumkin. Ta`lim beruvchi savol bergan paytda ta`lim oluvchi yaxshi javob beradi, deb kutmaslik kerak. Shu sababdan, ta`lim beruvchining savol berish tarzi muhim rol o`ynaydi. U savolni tushunarli va aniq berishi kerak: javob berish uchun yetarli vaqt berish kerak; ikki xil ma`noni anglatadigan savollar bermaslik kerak; ta`lim oluvchi savollarga javob berishda qiynalishni boshlasa, savollar qamrovini mos ravishda qisqartirish kerak.

Ta`lim beruvchi og`zaki topshiriq bo`yicha savollar tuzayotganda quyidagi xususiyatlarni inobatga olishlari lozim:

- Gaplar mos so`roq so`zlardan tuzilgan bo`lishi kerak (nima, qanday, nima uchun).
- Savol aniq va tushunarli tuzilgan bo`lishi lozim.

- Savol to`g`ridan - to`g`ri muammoga qaratilgan bo`lishi kerak.
- «Ha» yoki «yo`q» javobini talab etuvchi savollar bo`lmasligi kerak.
- Savol faqatgina bitta gapdan tuzilishi lozim.
- Savol faqat bir ta`lim oluvchiga emas, balki barchaga taalluqli bo`lishi kerak.
- Javob berishga vaqt ajratilgan bo`lishi lozim.

Yozma baholash topshiriqlari ta`lim beruvchi tomonidan ta`lim oluvchiga yozma ravishda savollar berilib, ulardan yozma tarzda javoblar olishga mo`ljallangan topshiriq shakllari hisoblanadi.

Bugungi kunda test topshiriqlarining bir qator turlaridan (3-chizma) ta`lim jarayonida ta`lim oluvchilarning nazariy bilimi va aqliy layoqatini baholashda foydalanilmoqda.



Agar xorij ta`lim tajribalariga tayanib mulohazalar yuritsak, test deganda, barcha baholash topshiriqlari nazarda tutiladi. Ammo bizning sharoitimizda esa testlar (psixologik testlar bundan mustasno) topshiriq va bir yoki bir necha javobdan iborat tuzilma sifatida tushuniladi.

Testlarni tuzishda bir qator qoidalarga rioya qilish zarur:

- Testning barcha chalg`ituvchi javoblari haqiqatga yaqin bo`lishi kerak.
- Javoblarni ifodalovchi jumlalar uzunligi deyarli bir xil bo`lishi kerak.
- Javoblar asos bilan uyg`unlashgan holda grammatik jihatdan to`g`ri tuzilgan bo`lishi kerak.
- Asos qismining jumlasi ta`lim oluvchining tushunishi uchun mos bo`lishi kerak.
- Javoblarning hech biri sinonim (ma`nodosh) bo`lmasligi kerak.
- Asosda ham, javoblarda ham ikki fikrlilik bo`lmasligi kerak.
- Asos imkon qadar keng mazmunli bo`lmog`i kerak.
- Asosda nomuvofiq jumlalardan imkon qadar foydalanmaslik kerak.
- Javoblarda mantiqsiz so`zlar bo`lmasligi kerak.

- To`g`ri javoblarni ketma-ket bermaslik kerak.

BIR TANLOVLI TESTLAR. Bir tanlovli test topshiriqlari yagona javobni tanlash imkoniyati berilgan topshiriqlar hisoblanadi.

Bir tanlovli savollar «asos» deb yuritiladigan tugatilmagan jumla yoki savollardan iborat bo`lib, unda ketma-ket to`rtta yoki beshta haqiqatga yaqin bo`lgan javoblar tanlovi keltiriladi. Ta`lim oluvchi ular orasidan bitta to`g`ri javobni tanlashi kerak. To`g`ri javob «kalit» deb, noto`g`ri javoblar «chalg`ituvchi» javoblar deb ataladi.

Misol: Qanday metodlar "Interfaol metodlar" deb ataladi?

a) Katta hajmdagi o`quv materialini nisbatan uzoq vaqt davomida monologik bayon etiladigan metodlar.
b) Ta`lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta`lim jarayonining markazida ta`lim oluvchi bo`lgan metodlar.
c) Muayyan muddatga mo`ljallangan, ta`lim jarayoni ko`proq ta`lim beruvchi shaxsiga qaratilgan metodlar.
d) Hammasi to`g`ri

Javob: **Б**

**KO`P TANLOVLI TESTLAR.** Ko`p tanlovli test topshiriqlarida javoblar varianti bir nechta to`g`ri javoblardan iborat bo`ladi.

Misol. Qanday baholash shakllari mavjud?

1) me`yoriy
2) joriy
3) mezoniy
4) yakuniy

Javoblar:

a) 1 va 2
b) 1 va 4
c) 1 va 3
d) 2 va 4

Javob: **В**

**TO`LDIRUVCHI TESTLAR.** Bu topshiriqni yechish to`liq bo`lmagan matnlarga kiritiladigan tushunchalar, gap bo`laklari, simvollar va sonlardan tashkil topadi va ta`lim oluvchidan berilgan jumlani kerakli so`z bilan to`ldirishi so`raladi.

Misol. Ta`lim oluvchi va ta`lim beruvchining muayyan maqsadga qaratilgan, birgalikdagi faoliyati tashkil qilishning tartibga solingan yo`llar yig`indisi_____ deb ataladi.

**MUQOBIL JAVOBLI (AL`TERNATIV) TESTLAR.** Bunday testlardagi savollarga javob "HA" yoki "YO`Q" deb belgilanadi. Ba`zan topshiriqlarning savoli bilan javoblari ham birga berilishi mumkin. Bunday topshiriqlarda faqatgina bitta to`g`ri va bitta noto`g`ri javoblar berilgan bo`ladi. Topshiriq shartiga ko`ra to`g`ri javobni topib, belgilash kerak bo`ladi.

Misol. Interfaol metodlar an`anaviy ta`lim metodlari hisoblanadimi? (To`g`ri javobning tagiga chizing). Javob: HA YO`Q

MUVOFIQLASHTIRUVCHI TESTLAR. Bunday test topshiriqlarida ta`lim oluvchilarga ikkita ro`yxat taqdim etilib, ulardan birida savollar turkumi, ikkinchisida esa javoblar turkumi aks ettirilgan bo`ladi. Ta`lim oluvchilar savollar turkumiga muvofiq keluvchi javoblarni topishlari va belgilashlari talab etiladi.

Muvofiqlashtiruvchi testlar bir qiymatli yoki ko`p qiymatli bo`lishi mumkin. Bir qiymatli testlarda ustunlardagi savollar va javoblar miqdori bir xil nisbatda, ya`ni bir savolga bir javob to`g`ri kelishi kerak bo`ladi. Ko`p qiymatli muvofiqlashtiruvchi testda esa ustunlardagi savollar va javoblar miqdori har xil nisbatda, ya`ni bir necha savolga bir javob to`g`ri kelishi mumkin, yoki aksincha bir savolga bir necha javob to`g`ri kelishi mumkin.

Javobni belgilashda birinchi ustundagi savollarga ikkinchi ustundagi javoblarni topib, uni " " belgisi orqali ifodalash mumkin. Yoki javoblarni savollar belgisi va javoblar raqamini mos ravishda belgilash mumkin.

Misol:

A ro`yxat: metodlar V ro`yxat: ta`riflar



Yoki javob: A2, B3, C1.

KETMA-KETLIKNI ANIQLASH TESTLARI. Bu turdagi topshiriqlarda berilgan jarayonlar ularga taalluqli mantiqqa asoslangan holda, to`g`ri tartib bilan joylashtirilishi lozim.

Tartibsiz joylashtirilgan topshiriqlar umumiy, lekin bir - biridan farq qiluvchi xususiyatlariga va ularga taalluqli bo`lgan darajaga ko`ra tartibga solinishi kerak (to`g`ri ketma-ketlikda, kamayib yoki o`sib boruvchi tartibda).

Misol. Nazariy dars bosqichlarini to`g`ri ketma-ketlikda ifodalang:

1. Yangi mavzu bayoni
2. Uyga vazifa
3. Mustahkamlash
4. Tashkiliy
5. Xulosa yasash

Javob:

4	1	3	5	2

QISQA JAVOBLI TESTLAR. Qisqa javobli test-javobi bir yoki bir necha so`zdan iborat ko`rinishdagi test hisoblanadi. Ushbu testlarda javoblar qisqa ko`rinishda beriladi

Misol. Tartiblangan, o`zaro uzviy bog`langan va birgalikda umumiy funksiyani bajaruvchi elementlar to`plamiga nima deb ataladi?

Javob: _____

ERKIN JAVOBLI TESTLAR. Bu turdagi topshiriq savollariga javoblar aniq belgilab qo`yilmaydi, balki ta`lim oluvchi erkin va to`laqonli javob berishi mumkin bo`ladi.

Misol. Ilg`or ta`lim texnologiyalarini dars jarayoniga tadbiq etishning dolzarbligini izohlab bering.

Tahsil oluvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarni baholashdan avval ayniqsa, oraliq yakuniy nazoratlarda baholash dasturlari ishlab chiqish ya`ni baholash loyihalashtirish muhim ahamiyatga ega. Tahsil oluvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarini baholashni loyihalashtirish quyidagi o`quv maqsadlarni aniqlash: baholash metodlarini tanlash; baholash dasturlarini ishlab chiqish; natijalarni rasmiylashtirish kabi bosqichlarni o`z ichga oladi.

Baholashda obyektivlikni ta`minlash uchun baholanuvchi ham oraliq, yakuniy nazorat sinovidan oldin baholash maqsadi, topshiriq mazmuni, baholash mezonlari, sinov topshirish qoidalari to`g`risida ma`lumotga ega bo`lishi lozim. Buning uchun avvalo, baholashning o`quv paketlarini ishlab chiqish va u asosida oraliq, yakuniy nazoratni amalga oshirish zarur.

Mazkur o`quv paketi quyidagilarni o`z ichiga oladi: baholash dasturini umumiy sharhi, baholash standarti, baholanuvchi uchun yo`riqnoma, baholovchi uchun yo`riqnoma va baholash varaqasini ishlab chiqish. Quyida baholash paketini ishlab chiqish namunasini keltiramiz:

Fanning nomi:

Yozma ish dasturi sharhi

Faoliyat	Shart-sharoitlar	Baholash mezonlari

Yozma ish (Yoi)

T.r	Davomiyligi	qisqacha mazmuni	Nazorat turi
ON1			

Baholash standarti:

"qoniqarsiz"	"qoniqarli"	"yaxshi"	"a`lo"

TAHSIL OLUVCHI UCHUN YO`RIQNOMA

Fan nomi:

Sinov turi: Yozma ish

Umumiy ko`rsatmalar:

1. Quyidagilarni diqqat bilan o`qing. Agar sizda biror tushunmovchilik bo`lsa, u holda sinov boshlangunga qadar sinov nazoratini oluvchiga

murojaat qiling.

2. Javob yozish varaqasining qayeriga ismi-sharifingiz ko`rsatilishiga e`tibor bering.
3. Sinov boshlangunga qadar o`zingizda barcha zarur materiallar borligini tekshiring, masalan, savollar berilgan varaqa, javob yozish varaqasi, qalam, o`chirg`ich va h.k.
4. Yozma ish javoblarini yozishda taqiqlangan vositalardan (qo`l telefoni, darslik, adabiyot, ma`ruza matni, shpargal`ka) foydalanish mumkin emas,
5. Yozma ish javoblarini yozishda taqiqlangan vositalardan (qo`l telefoni, darslik, adabiyot, ma`ruza matni, shpargal`ka) foydalanish holati sezilsa sinovdan mahrum etiladi
6. Yozma ish javoblarini mustaqil hech kimning yordamsiz yozishingiz kerak.
7. Barcha savollarga javob berishga harakat qiling.
8. Boshqa oluvchilarga yordam bergan yoki xalaqit bergan tahsil oluvchilar topshiriqni bajarishdan mahrum etiladi
9. Yozma ish javoblarini belgilangan vaqt oralig`ida bajarishingiz shart, aks holda qabul qilinmaydi.

SINOV OLUVCHI UCHUN YO`RIQNOMA

Fan nomi:

Sinov turi: Yozma ish

Sinovni o`tkazish shartlari:

1. Sinov boshlanishidan to yakunlanguncha, tahsil oluvchilarni barcha zaruriy materiallar va jihozlar bilan ta`minlash.
2. Yozma ishni (sinov) baholash mezonlarini tahsil oluvchilarga sinov boshlanguncha o`qib eshittirish.
3. Yozma ishni (sinov) bajarish uchun yo`l-yo`riq berish
4. Sinov yakunigacha ajratilgan vaqtga ahamiyat berish.
5. Tahsil oluvchilar tomonidan bajarilayotgan sinovni mustaqil bajarilishini nazorat qilish.
6. Sinov ishlarini belgilangan vaqtda qabul qilish.

Baholash varaqasi baholovchi va baholanuvchi uchun ishlab chiqiladi. Baholash varaqasida mavzu nomi, sinov turi, topshiriq nom, baholanuvchilarning ism-sharifi, sinov uchun ajratilgan vaqt, boshlanish vaqti, tugash vaqti, baholash mezonlari, eslatma, baholovchi imzosi va sinov o`tkazish sanasi kabilar aks ettirilishi lozim

BAHOLASH VARAQASI

Fanning nomi: Mavzuning nomi:												
Topshiriqning nomi:	Sinov turi: Boshlanish vaqti: Tugash vaqti:											
Sinov o`tkazish vaqti: 180 daqiqa	Baholanuvchining tartib raqami											
Mezonlar	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
1-topshiriq												
2-topshiriq												
3-topshiriq												
JAMI:												

Izoh: «Qoniqarsiz» baho olgan ta`lim oluvchilar OTM ma`muriyati dekanat tomonidan belgilangan muddatlarda qayta sinov topshiradilar.

Baholovchi imzosi: _____ **Sana:** _____

Yuqorida keltirilgan "Baholash varaqasi"da amaliy topshiriqni bajarishda baholanuvchi e`tiborini qaratishi kerak bo`lgan asosiy mezonlar batafsil aks ettirilgan. Ushbu "Baholash varaqa"si bilan baholanuvchi amaliy topshiriqni bajarishdan avval tanishtirilishi lozim. Bu bilan baholanuvchi amaliy topshiriqni bajarish mobaynida qanday mezonlarga e`tibor berishini aniq tasavvur qila oladi.

"Baholash varaqasi" ta`lim oluvchilarning obyektiv baholanishiga, amaliy topshiriq natijasini rasmiylashtirishga va yo`l qo`yilgan kamchiliklarni aniq ko`ra bilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Xaydarov B, Nuriddinov B, Razzoqov D, Dexkanova M va boshqalar. Baholash metodlari. –T: 2003 yil
2. K.Olimov, O. Abduquddusov, L. Uzoqova, M. Ahmed-jonova, D. Jalilova. «Kasb ta`limi uslubiyati» o`quv qo`llanma. T: TFI, 2006. 197-bet.

Nazorat savollari

1. Talabalarning bilim, ko`nikma va malakalari nima uchun baholanadi?
2. Talabalarning bilim, ko`nikma va malakalarini baholashda qanday tamoyillarga rioya etiladi?

3. Qanday baholash xatoliklari mavjud?
4. Mezonga asoslangan baholash qanday afzalliklardan iborat?
5. Me`yorga asoslangan baholash qanday kamchiliklardan iborat?
6. Baholashda qanday test turlaridan foydalaniladi?
7. Testlarni tuzishda qanday qoidalarga rioya qilinadi?
8. Talabalarning amaliy ko`nikmalari qanday mezonlar orqali baholanadi?

Topshiriq:

Muayyan buyumni payvandlash ishlari bo`yicha talabalarning amaliy ko`nikmalarini baholash paketini ishlab chiqing.

Kasb ta`limini rejalashtirish

Reja

1. Kasb ta`limini rejalashtirish maqsadi
2. Ishlab chiqarish ta`limni rejalashtirishda didaktik hatti-harakatlar
3. Maxsus fan o`qituvchilari va muhandis-pedagogning asosiy o`quv-rejalashtirish hujjatlari

O`quv va ishlab chiqarish ta`limi jarayonlarini rejalashtirish muhim pedagogik va tashkiliy ahamiyatga ega bo`lib, o`quv muassasalarida o`quvchilarga kasbiy ta`lim hamda tarbiya berish sifatini ko`tarish yuqori malakali kadrlar tayyorlash samaradorligini oshirishning zarur shartidir.

Rejalashtirish:

- o`quv jarayonini oqilona tashkil etish uchun zarur sharoit yaratiladi, o`quv guruhlarining o`quv rejalari va dasturlarini o`z vaqtida hamda to`liq bajarishlarini ta`minlanadi, muhandis-pedagog har bir mash-g'ulotga puxta tayyorgarlik ko`radi.
- fanlararo bog`lanishlar va nazariy ta`limning o`quv amaliyoti va ishlab chiqarish amaliyoti bilan bog`liqligi amalga oshiriladi.
- o`quvchilarning bilimlari, ko`nikmalari va malakalari darajasini muntazam ravishda nazorat qilinadi.
- har bir o`quvchining, butun o`quv guruhlarining, umuman bilim yurtining o`quv ishlariga o`z vaqtida yakun yasash imkonini beradi.

- kasb-hunar kollejlarida o`quv ishlarini ko`ngildagiday tashkil qilish uchun oldindan ishlab chiqarish ta`lim mazmunini, o`tish ketma-ketligi va o`quvchilarga o`rgatish yo`llari belgilab olinadi.

Ishlab chiqarish ta`limi rejalashtirishni talab etadigan o`ziga xos xusu-

siyatlarga ega.

Rejalashtirishlarsiz yuqori sifatli hunar texnik tayyorgarlikka o`quv ishlarini uzilishlardan holi bo`lishga erishish mushkul.

Kasb-hunar kollejlarida o`quvchilar mahsulot ishlab chiqarayotganida yoki tugallangan ishlarni bajarayotganda ishlab chiqarish ta`limini rejalashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ishlab chiqarish ta`limini rejalashtirishning to`g'ri tashkil etilganligi o`quv materialini yoki maxsus fanlarning biror bir bo`limini o`rganish ketma-ketligini belgilashda, ishlab chiqarish ta`limi bilan maxsus texnologiya fanlari o`rtasida bog`lanishni o`rnatishda katta rol` o`ynaydi.

Ishlab chiqarish ta`limini rejalashtirishda o`quv ishlari bilan bir qatorda ba`zi iqtisodiy maqsadlar (jumladan ishlab chiqarish ta`limi jarayonida tayyorlanadigan mahsulotni yoki bajariladigan ishlarni ishlab chiqarish hajmi va muddatlarini belgilash) ham ko`zda tutiladi.

Shu sababli hunar bilim yurtlarida faqatgina o`quv faoliyati emas, balki o`quv ishlab chiqarish faoliyati ham rejalashtiriladi.

Ishlab chiqarish ta`limi mazmuni deganda zamon talablariga javob beradigan mutaxassisni o`quv jarayonida egallaydigan amaliy bilim, ko`nikma va malakalar birligi tushuniladi.

Ishlab chiqarish ta`lim insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasining bir qismidir va o`z yo`lida fan va texnika sohasidagi barcha yangiliklarni ham aks ettirishi lozim.

O`quvchilarga beriladigan amaliy bilimlarning izchil, sistemasi va chuqur bo`lishi shaxs rivojlanishidagi yoshi bilan bog`liq bilim imkoniyatlari bilan beligilanadi. Ishlab chiqarish ta`limining natijasi esa barkamol, har tomonlama yetuk, mustaqil O`zbekiston sha`nini yuksaklarga ko`tara oladigan, o`z kasbining mohir ustasi-kichik mutaxassis egallagan kasbi bo`yicha ishlab, mehnat qilib, taraqqiyotga o`z hissasini qo`shgan shaxsning yetilib chiqishidir.

Ishlab chiqarish ta`limi mazmuni axloqiy xislatlarni, e`tiqodlarni, intizom uyushqoqlik, o`ziga va o`rtoqlariga talabchanlik, mehribonlik, oqibatlilik, e`tibor, sezgirlik singari xislatlarni shakllantirish uchun katta imkoniyatlar beradi. Ishlab chiqarish ta`lim mazmuni, davlat ta`lim standarti, o`quv reja, o`quv dasturida aks ettiriladi.

Muhandis-pedagog rahbarning rejalashtiruvchi hujjatlariga quyidagilar kiradi:

O`quv-ishlab chiqarish ishlari ro`yxati yillik yoki yarim yillik ish rejasi, ish reja asosida muhandis-pedagog o`zining chorak ish rejasini tuzadi. Bunda o`tkazilgan tadbirlar va ularning bajarilish vaqtlari ko`rsatiladi.

Muhandis-pedagog rahbar bir oylik ish rejasidan kelib chiqib, haftalik ish rejasini tuzadi. Haftalik ish rejadan keyin kunlik ish rejasini tuzadi.

Nazariy dars va amaliy mashg`ulotlarni to`g`ri rejalashtirish uchun, ta`lim beruvchi o`zining vaziyatidan boshlashi lozim, ya`ni «Mavzuni ilm-fanning eng so`nggi zamonaviy talablariga muvofiq o`rgata olamanmi yoki buning uchun men yana alohida tayyorlanishim kerakmi? » hamda «Biror ishlab chiqarilgan nazariy dars rejasi yoki amaliy mashg`ulotlarning rejasi bormi?» degan savolga javob berishi kerak.

Bundan keyin, ta`lim beruvchi ta`lim oluvchilarning dastlabki bilim va ko`nikmalarini aniqlab olishi lozim.

Buning uchun quyidagi asosiy savollar qo`yilishi lozim:

- Nazariy dars yoki amaliy mashg`ulotlarni o`tkazish uchun ta`lim oluvchilarning dastlabki bilimlari qay darajada?
- Nazariy dars va amaliy mashg`ulotlarni o`tkazish uchun qanday shart-sharoitlar mavjud?
- Qanday o`quv mazmunlar o`rgatilishi ko`zda tutilmoqda?

Rejalashtirish uchun yuqoridagi savollarni o`rganib chiqish – nazariy dars va amaliy mashg`ulotning boshqa barcha tayyorlash harakatlariga asosdir. Bu tushunchalar va savollar o`rtasidagi bog`liqlikni quyida ko`rsatilgan omillar aniq ko`rsatadi.

Ta`lim beruvchining didaktik hatti-harakatlari

Maqsadlar: Nima uchun?

Har bir nazariy dars va har bir amaliy mashg`ulot oldindan belgilangan maqsadlarga rioya qilishi lozim. Odatda o`quv dasturi asosida belgilashi-

miz mumkin bo`lgan aniq bir maqsadga erishilishi lozim. Maqsadlar yozma ravishda nazariy dars rejasiga kiritiladi va maqsad erishilgan-erishilmaganligi test va topshiriqlar yordamida tekshiriladi va mustahkamlanadi.

Mazmunlar: Nima ?

Belgilangan o`quv maqsadlarga muvofiq ravishda bilimlar sohaning mazmuni (shu jumladan ko`nikmalar va o`zini tutish tarzlari) belgilanadi. Bu mazmunlar bir tomondan kerakli dastlabki bilimlarni (nazariy dars mazmunini) va boshqa tomondan topshiriqlarni bajarish uchun kerakli maxsus bilimlarni (amaliy mashg`ulot mazmunini) inobatga olishi kerak.

Metod: Qay tarzda ?

Agar maqsadlar va mazmunlar aniq bo`lsa, aynan shunday metodlar tanlab olinishi kerakki, ular shu maqsad va mazmunlarni o`lchanadigan natijalarga aylantira olishlari lozim. Bu munosabatda "an`anaviy" va "interfaol metodlar" deb atalgan metodlar ta`lim beruvchi tomonidan tanlab olinadi va qo`llanadi.

Sharoitlar: Nimalar yordamida ?

Sharoitlar deganda, birinchi navbatda moddiy-texnik shart-sharoitlar tushuniladi. Bir tomondan, moddiy-texnik sharoitlar, ya`ni binolar, sinfxonalar, o`quv ustaxonalar, laboratoriyalar, ularning jihozlanganlik darajasi, instrumentlar, chiqim materiallarning umumiy holati va hokazo, chunki ular ma`lum sifat standartlariga javob berishi kerak.

Boshqa tomondan esa, o`quv vositalari tushuniladi, chunki ular o`quv jarayondagi bilimlarni o`zlashtirilishiga yordam beradi. O`quv maqsadlariga mo`ljallangan ko`plab o`quv vositalari mavjud. Lekin gap vositalarning ko`pligida emas, balki muayan o`quv maqsadiga erishish uchun ma`qul keladigan vositalarni tanlab olishdadir.

Tashkillashtirish: Bu qanday amalga oshiriladi ?

Yuqorida aytilgan hamma narsalar vaqt omilini inobatga olgan holda tashkil qilinishi kerak. Chunki har bir nazariy dars va har bir amaliy mashg`ulot uchun aniq vaqt me`yorlari bor va aynan shu vaqt doirasida o`quv maqsadlarga erishish lozim. Buning uchun nafaqat puxta reja, balki unumli tashkillashtirish ham kerak. Vaqt davri, vaqt davomi va o`quv joyi – tashkillashtirish jarayonida belgilanadi. O`rgatish va o`rganishni tashkil qilishning xilma-xil imkoniyatlari mavjud.

Natijalar: Maqsadga erishildimi ?

Nazariy dars yoki amaliy mashg`ulotning oxirida maqsadlarga erishilgan-erishilmaganligi tekshirilishi kerak. Buning uchun baholash vositalari, metodlari va mezonlari belgilanishi lozim. Buning imkoniyatlari – mashqlar, og`zaki va yozma testlar hamda imtihonlar. Ular ta`lim oluvchilarning

qobiliyatlari, bilim, ko`nikma va malakalarini baholash imkoniyatini yaratadi.

O`qitish va o`qish sikli- nazariy dars va amaliy mashg`ulotlarni rejalashtirish omillariga asoslangan bo`lib, nazariy dars va amaliy mashg`ulotlar rejalashtirish, amalga oshirish hamda xulosa chiqarish bosqichlariga taalluqli didaktik hatti-harakatlarni tushuntiradi.



O`qitish va o`qish sikli

1-bosqich: Nazariy dars va amaliy mashg`ulotga nisbatan inobatga olinishi kerak bo`lgan **mavjud vaziyat va dastlabki shart-sharoitlarni baholash (o`rganish)**. Shu o`rinda 3 xil tahlil, ya`ni adresatlar (ta`lim oluvchilar) tahlili, shart-sharoitlar tahlili va maxsus soha (mazmun) tahlili amalga oshirilishi lozim. Bu tahlillar odatda ta`limning boshlanishida, natijalari esa keyinroq kerak bo`ladi.

2-bosqich: O`quv dasturi asosida **o`quv maqsadlarni belgilash yoki aniqlash**. Nazariy dars va amaliy mashg`ulot uchun maxsus o`quv maqsadlar belgilab olinadi.

**3-bosqich:Nazariy dars yoki amaliy mashg`ulot rejasini tuzish**. Bu rejada barcha mazmunlar, mavzular, rejalashtirilgan metodlar, tanlab olingan o`quv-didaktik materiallarga muvofiq holda o`quv vositalar hamda umumiy vaqt taqsimoti aks etadi.

Bu rejada nafaqat ta`lim beruvchining hatti-harakatlari, balki ta`lim oluvchilarning rejalashtirilgan hatti-harakatlari ham ko`rsatilsa maqsadga muvofiq bo`ladi.

**4-bosqich:O`quv-didaktik materiallarni tayyorlash**, chunki ular amalga oshirish bosqichining asosiy dastlabki shartlaridan biridir. Agar tayyor materiallar bor bo`lsa, ularning orasidan to`g`ri keladiganlari tanlab olinadi. Agar tayyor o`quv-didaktik materiallar yoki o`quv vositalar bo`lmasa, ular ishlab chiqarilishi kerak. Odatda bosma o`quv vositalar, masalan tarqatma materiallar, slaydlar va topshiriq varaqalari kerak bo`ladi, ularga qo`shimcha ravishda esa matnli o`quv adabiyotlari ishlatiladi. Xuddi shunga o`xshab darsdan oldin plakat loyihalari va plakatlarning o`zi ishlab chiqiladi.

5-bosqich:Nazariy dars yoki amaliy mashg`ulot rejasi asosida jarayonni tashkillashtirish va amalga oshirish (o`tkazish).

6-bosqich: Nazariy dars va amaliy mashg`ulot davomida o`zlashtirilgan nazariy bilimlarni aniq baholash mezoniga ko`ra baholash.

Mashg`ulotlarni rejalashtirish va ularga tayyorgarlik ko`rish o`zaro chambarchas bog`langandir. Rejalashtirish-tayyorgarlikning bir qismi bo`lib, rejalashtirish hujjatlarida ta`lim beruvchining mashg`ulotlarga tayyorgarlik natijalari aks ettiriladi. Mashg`ulotlarga tayyorgarlikni ikki bosqichga bo`lish mumkin: **istiqbolli** tayyorgarlik-o`quv yiliga va dasturning mavzularini o`rganishga tayyorgarlik hamda **joriy**-navbatdagi darsga tayyorgarlik. Tayyorgarlikning har bir elementi ta`lim beruvchining shaxsan tayyorgarligini, o`quv ko`rgazmali qurollarini tayyorlashni va o`quv jarayonini rejalashtirishni o`z ichiga oladi.

O`quv jarayonini rejalashtirishda ta`lim beruvchi quyidagi vazifalarni amalga oshirishi kerak:

- ta`lim va tarbiya ishlari istiqbol rejalarini tayyorlash;
- o`quv ishlab chiqarish ishlari uchun me`yorlar va texnika talablarini ishlab chiqishda qatnashish;
- o`quv texnika hujjatlarini, baholash mezonlarini, ishlab chiqarish amaliyotining batafsil dasturini ishlab chiqish;
- maxsus va umumkasbiy fanlarni o`rganish paytida mavzu bo`yicha olingan o`quvchilar bilimlarini tahlil qilish;
- mavzu materialini kichik mavzular va darslarga taqsimlash;
- o`tilgan mashg`ulotlar yakunlarini tahlil qilish, kelgusi dars mazmuni, mavzusi, ta`lim va tarbiya maqsadlarini aniqlash;
- kirish instruktajini o`tkazish metodlarini belgilash;
- o`quvchilarning mashqlari va mustaqil ishlari tizimini, joriy instruktaj metodlarini belgilash;
- dars rejasini va kirish instruktaji konspektini tuzish, o`quvchilarga beriladigan muayyan uy topshiriqlarini belgilab qo`yish.

Maxsus fan o`qituvchilari va muhandis-pedagoglar quyidagi asosiy o`quv-rejalashtirish hujjatlarini yuritadi:shaxsiy ish reja, fanning ishchi dasturi, taqvim-mavzuiy reja; kundalik dars rejasi; darsning ma`ruza matni; yozma ko`rsatma berish hujjatlari: a) yo`l-yo`riq xarita; b) yo`l-yo`riq texnologik xarita; v) ko`p uchraydigan xatolar xaritasi.Rejalashtirish hujjatlari dars o`tkazish uchun asosiy vosita bo`lib xizmat qiladi.

Taqvim-mavzuiy reja va dars rejasining tuzilmasi qat`iy belgilangan emas. Shu bilan birga, ushbu rejalashtirish hujjatlarini ishlab chiqishdagi ba`zi qoidalarni e`tiborga olish lozim.

Taqvim-mavzuiy reja o`quv materialini to`g`ri taqsimlashda mazkur fanni boshqa fanlar va o`quv amaliyoti bilan bog`lashda, darsga kerakli o`quv materiallari va jihozlarini tayyorlashda yordam beradi, o`qish jarayonining samaradorligini oshirish sharoitini yaratish imkonini beradi.

Taqvim-mavzuiy reja va dars rejasini ishlab chiqishda dars turini farqlash muhim ahamiyatga ega. Har qanday dars o`ziga xos xususiyatga ega bo`lib, u o`zining konkret vazifalari va mazmuniga ko`ra bir-biridan farq qiladi. Lekin darslarda o`qitish va o`quv faoliyatlarining umumiy xususiyatlari ham mavjuddir.

Taqvim-mavzuiy rejaning asosini mavzular bo`yicha darslar tizimi tashkil etadi. Mazkur rejani o`qituvchi fanning o`quv rejasi va dasturiga asosan tuzib oladi va unda quyidagilar ko`zda tutiladi: mavzular nomi, har bir mavzuga ajratilgan vaqt; mashg`ulot turi; ta`lim metodlari; fanlararo bog`liqlik; kerakli asbob-uskuna va jihozlarni belgilash; darsda o`quvchilarning mustaqil ishlashi bo`yicha topshiriqlar; foydalaniladigan adabiyotlar nazorat turlari; uyga vazifa; sana va guruhlar va izoh

Taqvim-mavzuiy rejaning bo`limlari o`quv fani va mavzu materialining mazmuni, kasb-hunar kollejining o`quv-moddiy bazasi, o`quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab aniqlanadi. Taqvim-mavzuiy reja kasb-hunar kollejining metodik kengashida ko`rib chiqiladi.

Quyida o`quv amaliyoti mashg`uloti bo`yicha taqvim-mavzuiy rejasi keltirildi.

Taqvim-mavzuiy reja

T.r.	Mavzu	Ajra-tilgan soat	Mash-g`u-lot turi	Ta`lim metod-lari	Fan-lararo bog`liq -lik	Kerakli asbob-uskuna va jihozlar
1	2	3	4	5	6	7

T.r	O`quvchilarning auditoriyadagi bajaradigan mustaqil ishlari	Foyda-lanilgan manba lar	Na-zo-rat turi	Uyga vazi-fa	Sana va guruhlar						Izoh
8	9	10	11	12	13						14

Yuqoridagi jadvalda berilgan taqvim-mavzuiy reja nazariy dars bo`yicha ishlab chiqilgan taqvim-mavzuiy reja bilan deyarli bir xil. Faqatgina 7-bo`limdagi dars uchun kerak bo`ladigan asbob-uskuna va jihozlarning ro`yxatini aniq belgilash lozim bo`ladi. Ushbu ro`yxat amaliy mashg`ulotlarni samarali olib borishda muhim omil hisoblanadi.

Taqvim-mavzuiy rejadan kelib chiqqan holda har bir mashg`ulot uchun, ya`ni nazariy dars uchun ham, o`quv amaliyoti mashg`uloti uchun ham alohida dars rejasi ishlab chiqiladi.

Dars rejasi asosiy o`quv-rejalashtirish hujjatlaridan biri bo`lib, uni o`qituvchi o`quv dasturi va tavqim-mavzuiy reja asosida tuzadi. Unda darsning ta`lim-tarbiyaviy maqsadlari, o`qitish va tarbiyalash masalalari ko`rsatiladi hamda darsning tarkibi va bosqichlari, har bir bosqichga ajratilgan vaqt, o`qituvchi tomonidan izohlanadigan o`quv materialining ketma-ketligi va mazmuni, mustaqil ishlarning xarakteri va mazmuni, uy topshirig`i va boshqalar ifodalanadi.

Dars rejasining asosiy maqsadi o`qitish jarayonini to`g`ri rejalashtirishga va uning samaradorligini oshirishga yordam berishdir. Dars muvaffaqiyatli o`tishi uchun uni tashkil etish bo`yicha o`qituvchi faoliyatining maqsadini aniqlash lozim.

O`quv amaliyoti mashg`ulotlari rejasi nazariy dars rejasidan dars bosqichlari va ularga ajratilgan vaqt bo`yicha farq qiladi.

O`QUV AMALIYOTI DARS REJASI

Dars mavzusi:
Dars maqsadi:
Kutilayotgan natija:
Darsning moddiy ta`minlanishi:
Ko`rgazmali o`quv qurollar:
Mashg`ulotga ajratilgan vaqt:

Mashg`ulotning texnologik xaritasi

Bosqichlar	Ajratilgan vaqt	Mashg`ulot mazmuni	Metod
Tashkiliy			
Motivatsiya			
Kirish yo`l-yo`rig`i			
Joriy yo`l-yo`riq va o`quvchilar-ning mustaqil ishlari			
Yakuniy yo`l-yo`riq			

**Yozma ko`rsatma berish hujjatlari** ishlab chiqarish jarayonida keng qo`llanadigan muhim metodik vositadir. Yozma yo`l-yo`riq berish mustaqillik, o`z-o`zini nazorat qilish malakalarining rivojlanishiga imkon beradi, mehnat unumini oshiradi, o`quvchilarda zamonaviy texnologiya haqida to`g`ri tasavvur hosil qiladi, ularning tez sur`atlarda kasb o`rganishlariga yordam beradi, muhandis-pedagogning o`quv-ishlab chiqarish jarayoniga rahbarlik qilishini osonlashtiradi.

Yozma yo`l-yo`riq didaktik talablarga javob bersa va uni o`quv amaliyotining boshqa usullari bilan birga qo`shib qo`llanilsagina uning samaradorligi yanada ortadi.

Yozma yo`l-yo`riqlar mazmun va xususiyati jihatidan turlicha bo`lishi mumkin, lekin tuzilishi jihatidan oddiy, ya`ni aniq, tushunarli, qisqa, texnik savodli bo`lishi kerak. Unga ko`rgazmalilik namunalari, fotosuratlar, rasmlar, chizmalar singari turlarini kiritish kerak.

Yozma yo`l-yo`riqni ishlab chiqayotganda ishlab chiqarish ta`limi dasturini davrlar bo`yicha tahlil qilib chiqish va yo`l-yo`riq xaritalari tuzish uchun kerakli operatsiyalar va ish turlarini ajratib ko`rsatish, har qaysi mashqning bajarilishi tartibini belgilash, ishlov berish texnologiyasini va ishlash yo`llarini tushuntiruvchi surat-rasmlar tanlash, ishlatiladigan xaritalar turlarini belgilash kerak.

**Yo`riqli xaritalar**-mehnat operatsiyalarini o`rganishda qo`llaniladi mehnat operatsiyalarini tashkil etuvchi eng maqbul ketma-ketliklar, qoidalar, vositalar va mehnat usullarini bajarishni yoritiladi. Yo`riqli xaritalar oddiy operatsiyalarni bajarish uchun ishlab chiqiladi va turlicha ko`rinishda bo`lishi mumkin. Yo`l-yo`riq xaritasida muayyan ishning, mashqning

qanday ketma-ketlikda ekanligi yoki ma`lum qoida va ko`rsatmalarga rioya qilish shartligi haqidagi yo`l-yo`riqlar ko`rsatilgan bo`lishi kerak.

Yo`riqli xaritasi

T/r	Operatsiya turlari	Sxemasi	Bajarish tartibi

Yo`l-yo`riq texnologik xarita o`quv yoki texnologik operatsiyalar va ishlarni bajarishning kerakli ko`rsatmalari va talablarini o`z ichiga oladi. Texnologik xaritada ishlov berish ketma-ketligi, texnologik va texnik talablar hamda ishlatiladigan asboblar albatta ko`rsatilishi kerak. Yo`l-yo`riq texnologik xaritada mehnat xavfsizligi qoidalari va hokazolar bo`lishi mumkin. Yo`l-yo`riq texnologik xaritalaridan foydalangan holda dars o`tkazish yuqori samara beradi. Chunki o`quvchilar o`z o`rinlarida ana shunday xaritalarga ega bo`lib, mashqlar jarayonida istagan paytlarida xaritaning yo`l-yo`riq ko`rsatmalariga murojaat qila oladilar va muhandis-pedagogning yordamisiz mashqni to`g`ri davom ettiraveradilar.

Yo`l-yo`riq texnologik xarita murakkab operatsiyalarni bajarish uchun ishlab chiqiladi va turli ko`rinishga ega bo`lishi mumkin. Murakkab operatsiyalarni o`rganish vaqtida yo`l-yo`riq texnologik xaritalaridan foydalanish muhandis-pedagog ishini ancha yengillashtiradi, o`quvchilarning o`quv amaliyoti sifatini oshirishga yordam beradi.

**Yo`riqli-texnologik va texnologik xaritalar**-majmuaviy xususiyatga ega bo`lgan ishlarni bajarishda qo`llaniladi; o`quv-ishlab chiqarish ishlarini bajarishda texnologik ketma-ketlikni, tartiblarni, texnik talablarni, mehnatning maqbul usullari va vositalarini aks ettiradi.

**O`quv algoritmlari**-o`quvchilarni murakkab jihozlarni sozlash, ishga tushirish, nosozliklarga tashxis qo`yish, xizmat ko`rsatishga o`rgatishda qo`llaniladi

Yo`l-yo`riq texnologik xaritasi

T/r	Bajariladigan ishlar	Asbob va jihozlar	Ishni bajarish tartibi	O`zini-o`zi tekshirish
1				
2				
3				

Yo`l-yo`riq texnologik xarita

Faoliyat turi	Asbob-uskunalar, moslamalar va materiallar	Namuna	O`quvchilar bajaradigan ishlar ketma-ketligi

Xaritalarda mashq va ishlarning bajarilishi ketma-ketligi, mehnat harakatlarini, operatsiya va ishlarni nazorat qilishni bajarish metodlarining xarakteri va xususiyatlari ko`rsatilishi kerak.

Tipik xato (nuqson) larni oldini olish xaritasida ishlab chiqarish ta`limi mashg`ulotlarida yo`l qo`yiladigan nuqsonlar, ularning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish usullari ko`rsatilgan. Tajribali muhandis-pedagog qanday nuqsonlar ko`proq uchrab turishini biladi, shuning uchun nuqsonlarning oldini olish yuzasidan yakka tartibdagi kartochka-topshiriqlarni o`zi ishlab chiqadi yoki o`quvchilar bilan birga tayyorlaydi.

Quyida namuna sifatida ko`p uchraydigan xatolar xaritasini misol tariqasida keltiramiz.

Tipik xatolarni oldini olish xaritasi

T/r	Tipik nuqsonlar	Paydo bo`lish sabablari	Bartaraf etish usullari
1.			
2.			

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. K.Olimov, O.Abduquddusov, L.Uzoqova, M.Ahmedjonova, D.Jalilova. «Kasb ta`limi uslubiyati» o`quv qo`llanma. T: TFI, 2006. 197-bet.
2. Xodjaboyev A.R, Qosimov. Sh.U. Amaliy kasbiy ta`limni tashkil qilish va o`tkazish metodikasi.-T: 2007
3. Xodjaboyev A.R, Xusanov I. Kasbiy ta`lim metodologiyasi -T: 2007

Nazorat savollari

1. Qanday darslarga "Amaliy mashg`ulot" deyiladi?
2. Dars jarayonlarini rejalashtirishda nimalarni nazarda tutadi?
3. «Ta`lim beruvchining didaktik hatti-harakatlari» modeli qanday elementlardan iborat?
4. Qanday o`quv-rejalashtirish hujjatlari yuritiladi?
5. O`qitish va o`qish sikli qanday bosqichlardan iborat?

O`quv–ishlab chiqarish amaliyotini amalga oshirish bosqichlarini yozma izohlang.

№	O`quv–ishlab chiqarish amaliyotini amalga oshirish bosqichlari							
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1								
2								
3								
4								

Kasb-hunar kollejlarida o`quv, ishlab chiqarish amaliyotlarni tashkil etish va o`tkazish

Reja

1. O`quv, ishlash amaliyotning maqsadi va uning mohiyati
2. O`quv amaliyotini rejalashtirish va uni tashkil etish.
3. Ishlab chiqarish amaliyoti va diplom oldi amaliyotini rejalashtirish va tashkil etish metodikasi.

***Ishlab chiqarish ta`limi***-nazariy ta`lim jarayonida o`rganilgan umumkasbiy, maxsus bilimlar asosida ish usullari va operatsiyalarini amaliy bajarish bo`yicha ko`nikma hamda malakalarni shakllantirish maqsadida amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish ta`limi o`quv amaliyoti, ishlab chiqarish amaliyoti va diplom oldi amaliyotlarini o`z ichiga oladi.

O`quv amaliyoti o`quv rejaning uchinchi blokida keltirilgan bo`lib, unga 660 soat o`quv soati ajratilgan. O`quv rejaning to`rtinchi blokida esa ishlab chiqarish amaliyoti keltirilgan. Unga jami 648 soat ajratilgan, shundan ishlab chiqarish amaliyoti 360 soatni, diplom oldi amaliyotlari esa 288 soatni tashkil etadi.

***O`quv amaliyotlari***- bitta umumkasbiy yoki kasbiy fandagi nazariy bilimlarni amaliy mustahkamlash, ish usullari va operatsiyalarini amaliy bajarib o`rganish bo`yicha ko`nikma hamda malakalarni shakllantirish maqsadida dastur asosida, ta`lim beruvchi nazorati ostida o`quv ustaxona va laboratoriyalarida, poligonlarda amalga oshiriladi.

Bu amaliyot muhandis-pedagoglar nazorati ostida ma`lum bir tartibda va didaktik maqsadli mashqlar tizimini amalga oshirish orqali bajariladi. Amaliy ta`lim mazmuni shu amaliyot uchun nazariy asos bo`luvchi fanlar mazmunidan hamda malakali kichik mutaxassis ish o`rni malaka tavsifidan kelib chiqib belgilanadi. Amaliyotlarni ilmiy asosda tashkillashtirishning birinchi sharti-unga asos bo`luvchi o`quv fanlarini o`zlashtirishdir. Shuning uchun «oldin nazariya, so`ng amaliyot» qoidasiga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

Amaliy mashg`ulotlarni ilmiy asosda tashkillashtirishning ikkinchi sharti-ixtisoslik bo`yicha laboratoriya va amaliy mashg`ulotlar davrida olingan boshlang`ich ko`nikmalardir.

O`quv amaliyoti mashg`ulotlari quyidagi bosqichlarda o`tkaziladi:

1. Tashkiliy qism
2. Kirish yo`l-yo`rig`i
3. Joriy yo`l-yo`riq

4. Yakuniy yo`l-yo`riq

1-bosqich: Tashkiliy qism

Ta`lim oluvchilar ish o`rinlarining dars boshlanishiga tayyorligi, ta`lim oluvchilar tashqi ko`rinishi (maxsus kiyimni), jurnal bo`yicha ta`lim oluvchilar davomatlari tekshiriladi. Ta`lim oluvchilarga kerakli materiallar, yarimtayyor mahsulotlar, asbob-uskunalar va hujjatlar beriladi.

2-bosqich: Kirish yo`l–yo`rig`i

Ta`lim oluvchilar dars mavzusi va maqsadi bilan tanishtiriladi. Ushbu mavzuga tegishli o`tilgan nazariy darsdagi bilimlari yuzasidan suhbat o`tkaziladi, ta`lim oluvchilarga savollar beriladi.

Shundan so`ng yangi material tushuntiriladi.

Materialni tushuntirish tartibi:

- mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, ish o`rinlarini tashkil etish, o`quv-texnika hujjatlaridan, texnik vositalar va h.k. dan foydalanish bo`yicha ma`lumotlar berish;
- o`quv-ko`rgazmali qurollar yordamida ish jarayonlarini tushuntirish va ko`rsatish;
- uchrashi mumkin bo`lgan xatolar va ularning oldini olish yo`llari bilan tanishtirish.

O`tilgan materialni mustahkamlash uchun turli ta`lim metodlari qo`llaniladi va ta`lim oluvchilar o`zlashtirishini tekshirish maqsadida savollar yoki testlardan foydalaniladi.

Kirish yo`l-yo`rig`ini o`tkazish metodlari

Bilimlar berish bo`yicha yo`l-yo`riq

To`rt pog`onali metod yoki ma`ruzalar, taqdimotlar va namoyishlardan foydalanish mumkin. Ushbu bosqichda sifatli tayyorlangan o`quv materialini ta`lim oluvchilar diqqat bilan tinglab, kuzatadilar.

Rivojlantiruvchi yo`l-yo`riq

Rivojlantiruvchi yo`l-yo`riqda izlanish, savol va javoblarga asoslangan davra suhbatlari, tafakkur qilishga undash uchun bahs-munozaralar o`tkazish, muammoni muhokama qilish metodlaridan foydalanish mumkin.

3-bosqich: Joriy yo`l–yo`riq va o`quvchilarning mustaqil ishlari

Ushbu bosqichda muhandis-pedagogning joriy yo`l-yo`rig`i va ta`lim oluvchilarning mashqlari yoki mustaqil ishlari amalga oshiriladi. Nazorat qilish maqsadida ta`lim oluvchilarning ish o`rinlari aylanib chiqiladi. Bunda ta`lim oluvchilar o`z vaqtida ish boshlashlari va ish o`rinlarini to`g`ri tashkil etishlari kuzatiladi, ishning mehnat yo`llari to`g`ri bajarilayotganligi tekshiriladi. Ayniqsa mehnat xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishi

doimiy nazoratda bo`lishi zarur.

Joriy yo`l-yo`riq bosqichida mashg`ulot maqsadi, mazmuni, ish o`rinlarining soni va boshqa shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda ta`lim oluvchilarni guruhlarga (zveno) ajratgan holda amalga oshirish mumkin. Buning uchun ta`lim beruvchi tomonidan o`rin almashtirish jadvali ishlab chiqilishi lozim. Shu jadval asosida mehnat jarayoni amalga oshiriladi.

Muhandis-pedagog ta`lim oluvchilar bajarayotgan operatsiyalarni oraliq nazoratdan o`tkazadi. Ushbu bosqich asosan ta`lim oluvchilarning mustaqil ishlashiga qaratilganligi sababli, ta`lim oluvchilarning mustaqil ish bajarishlariga individual holda e`tibor berish talab etiladi. Yo`l qo`yilgan xatoliklar ish joyida bartaraf etilishiga yordam beriladi.

Dars mobaynidagi ishlar qabul qilinib, baho qo`yiladi. Joriy yo`l-yo`riq bosqichiga mashg`ulotga ajratilgan vaqtning asosiy qismi, ya`ni 60-70 foizi sarflanadi.

4-bosqich. Yakuniy yo`l-yo`riq

Yakuniy yo`l-yo`riqda guruhning bir kunlik ishiga yakun yasaladi. Guruh ishidagi ijobiy tomonlar va kamchiliklar qayd etiladi.

Zarurat bo`lsa, dars materialini ta`lim oluvchilar qanchalik o`zlashtirganini aniqlash uchun savollar berish mumkin. Bunday savol-javoblar ishda yo`l qo`yilgan xato va nuqsonlarni tuzatish maqsadida amalga oshiriladi. Mashg`ulotning o`quv va ishlab chiqarish yakunlarini jamoa bo`lib muhokama etish maqsadga muvofiqdir. Bu o`z navbatida ta`lim oluvchilarni bajarilgan o`quv-ishlab chiqarish ishlari bo`yicha o`z-o`zini tahlil etish va o`z-o`zini baholashga o`rgatishga olib keladi.

Shundan so`ng, muhandis-pedagog xato va nuqsonlarni tuzatish yo`llarini ko`rsatishi mumkin.

Ta`lim beruvchi tomonidan har bir ta`lim oluvchi ishiga qisqacha ta`rif berilishi va qo`yilgan bahoni izohlab berilishi lozim. Bu o`z navbatida ta`lim oluvchilarda mas`uliyatning oshishiga, bajargan ishiga nisbatan ta`lim beruvchining befarq emasligiga, bildirilgan fikr va bahoning obyektiv ekanligini anglashiga yordam beradi.

Shundan so`ng, ta`lim oluvchilardan uy vazifasi va navbatdagi dars topshirig`ini kundalikka yozib qo`yish so`raladi. Dars yakunida ta`lim oluvchilardan ish o`rinlari qabul qilib olinadi.

O`quv amaliyotining tashkil etish yo`llarini to`g`ri tanlash va qo`llash ta`lim oluvchilar tomonidan materiallarni yaxshi o`zlashtirishga asos bo`ladi. Shuning uchun, yuqorida keltirilgan bosqichlarda dars mazmunini ta`lim oluvchilarga etkazish o`quv amaliyoti jarayonida olinadigan bilim, ko`nikma va malakalarning shakllanishiga qulay imkoniyatlar yaratishga asos bo`ladi.

Ishlab chiqarish amaliyoti kasb-hunar kollejlarida malakali ishchi kadrlar bo`yicha kasb-hunar tayyorgarligining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Kasb-hunar kollejlarida o`quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini o`tkazish o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi markazining «Kasb-hunar kollejlari o`quvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini o`tkazish to`g`risi» dagi muvaqqat Nizomi asosida amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish amaliyotining vazifasi-hozirgi zamon ishlab chiqarish korxonalariga malakali ishchi kadrlarni tayyorlash, o`quvchilarning o`rganayotgan kasblari bo`yicha bilim, ko`nikmalarini mustahkamlash va takomillashtirishdan iboratdir.Ishlab chiqarish amaliyotini o`tkazish va uning mazmuni, bajarilishi lozim bo`lgan ishlarning hajmi O`zbekiston Respublikasi O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi Markazi rahbari tomonidan tegishli kasb yo`nalishi bo`yicha tasdiqlangan o`quv reja va dasturlar asosida belgilanadi. Ishlab chiqarish amaliyoti boshlanishidan bir oy oldin kasb-hunar kolleji va ishlab chiqarish amaliyoti o`tkazilishi mo`ljallangan korxona (tashkilot, xo`jalik) bilan o`quvchilarning ishlab chiqarish amaliyotini o`tkazishlari to`g`risida shartnoma tuzishi lozim. Shartnomada kasblar bo`yicha ishlab chiqarish amaliyotiga yuborilayotgan o`quvchilar soni, uni o`tkazish muddati, sharoit va tartiblari, ishlab chiqarish texnologiyasi, sanitar-texnik tozalik va mehnat sharoiti va tomonlarning o`zaro majburiyatlari ko`rsatiladi.

Korxonaning mulkchilik shaklidan va yuborilayotgan o`quvchilar sonidan qat`iy nazar, o`quvchilarni ishlab chiqarish amaliyotiga yuborayotgan o`quv muassasasi har bir korxona (tashkilot, xo`jalik) bilan alohida shartnoma tuzadi.

Kasb-hunar kollejlari o`quvchilarining ishlab chiqarish amaliyoti haqida namunaviy shartnoma

_____ "___"_____2013 y.

_____

(o`quv muassasasi nomi)

_____

(shahar, viloyat)

quyida "Ta`lim muassasasi", uning rahbari_____

(ismi sharifi)

_____bir tomondan va_____

_____

(korxona, tashkilot, xo`jalik nomi)

uning rahbari_____

(ismi sharifi, lavozimi)

I. Kasb-hunar kollejining majburiyatlari:

1.1. Malakali ishchi xodimlarni tayyorlash bo`yicha o`quv reja va dasturlarga amal qilgan holda, 200 y_____dan 200 y._____gacha _____kasblari bo`yicha_____guruhlardagi _____nafar o`quvchilarni ishlab chiqarish amaliyotiga yuboradi. O`quv guruhlari o`quvchilarning har bir kasb va guruh bo`yicha amaliyot o`qituvchilarining ismi, sharifi ko`rsatilgan_____varaqdagi ro`yxat ilova qilinadi.

1.2. Amaliyotchilar sifatida korxonaga yuborilayotgan o`quvchilarga dastlabki kasb-hunar tayyorgarligi, ishlab chiqarish dastgoh jihozlarida ishlash qoidalarini o`rgatish, korxonadagi (tashkilot, muassasa) ish o`rni va hududda o`zini tutish talablariga, mehnatning xavfsizlik qoida va me`yorlariga o`rgatish.

1.3. Amaliyot o`qituvchilari orqali o`quvchilarning amaliyotiga uslubiy rahbarlik qilish va o`quv ishlarini tashkil etish.

II. Korxonaning majburiyatlari.

2.1. O`quvchi amaliyotchilarning kasblariga mos ish o`rni, ishlab chiqarish vazifalari, zarur hujjatlar, texnik xizmat ko`rsatish bilan ta`min etish, ta`lim muassasasida egallayotgan mutaxassisliklariga mos bo`lmagan ishlarga yo`l qo`ymaydi.

2.2. Mehnatning xavfsiz va tibbiy-gigiyena me`yorlariga mos keladigan sharoit yaratadi, himoya vositalari, maxsus kiyim va poyafzal, asbob uskuna va ish kiyimlari saqlanadigan joyni tegishli toifadagi ishchilar uchun korxonada amalda bo`lgan belgilangan me`yor asosida ajratadi.

2.3. O`quvchilar bajargan barcha ishlar hisobini yuritadi. Har bir o`quvchi tomonidan ishlab topilgan ish haqi miqdori ko`rsatilgan ro`yxati ta`lim muassasasiga taqdim etadi, hamda bu mablag`larni ta`lim muassasasining joriy hisobiga har oyning____kuniga o`tkazadi.

2.4. O`quvchilar va mutaxassis-pedagoglarning ish joyiga kelib-ketishi uchun yo`l haqini har bir kunga___so`m hisobidan to`laydi.

2.5. Har bir o`quvchi amaliyotchiga amaliyot yakuni bo`yicha ishlab chiqarish tavsifnomasi taqdim etadi.

3. Korxona o`quvchilarga ishlab chiqarish amaliyoti davrida bajargan ishlari uchun mehnatning ishbay haqi ko`rinishida belgilangan narxlar asosida maosh to`laydi. Vaqtinchalik ish haqi to`lash soatbay tarif stavkasi asosida, tegishli mutaxassislik bo`yicha bajarilgan ishlar yuzasidan yoki haqiqatda ishlangan vaqt uchun to`lanadigan oylik ish haqi bo`yicha mukofotlash haqidagi korxona ko`zda tutgan tartib asosida hamda ish haqiga qo`shimcha va boshqa ustama to`lovlar koeffitsientlarini olgan holda to`lanadi.

4. Korxona tomonidan o`quvchilarni kasblari bo`yicha ishlab chiqarish

amaliyotini o`tkazishlari uchun o`quv dasturi talablariga javob beradigan ish joyi va ishlar bilan ta`minlash vazifalari bajarilmasa, shuningdek, amaliyot o`tish davrida o`quvchilar tez-tez va ko`pincha bo`sh turib qolsalar, ularga mehnatning xavfsiz sharoitlari yaratilmasa, hamda malaka talab etilmaydigan ikkinchi darajali ishlarga jalb etilsalar ta`lim muassasasi ularni, korxonadan qaytarib olib ketadilar.

5. Tomonlarning qo`shimcha majburiyatlari:

_____

_____

_____

6. Mazkur shartnoma bo`yicha tortishuvlar (kelishmovchiliklar) haqida mahalliy O`rtma maxsus, kasb-hunar ta`limi boshqarmalariga ma`lum qilinadi va belgilangan tartibda hal qilinadi.

Shartnomaning amal qilish muddati_____yil

Ushbu shartnoma_____nusxada tayyorlangan va ikkala tomonda _____nusxadan saqlanadi.

Shartnoma tuzilgandan so`ng kasb-hunar kolleji korxona bilan hamkorlikda ishlab chiqarish amaliyotining kengaytirilgan dasturini ishlab chiqadi va tasdiqdan o`tkazadi. Dastur korxona (tashkilot, xo`jalik)ning sexlari, xizmat va boshqa bo`limlarining sharoiti, hamda imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, o`quv dasturida ko`zda tutilgan turli ishlarning mazmuni, hajmi va ketma-ketligini o`z ichiga oladi. O`quvchilarning ishlab chiqarish amaliyoti vaqtida ish kunining davomiyligi ma`lum kasb uchun o`quv rejasida ko`zda tutilgan ishlab chiqarish ta`limi uchun ajratilgan haftalik vaqt hisobidan chiqariladi va qonunchilikda belgilangan ish kunining davomiyligidan oshmasligi lozim. Og`ir va zararli mehnat sharoitlari bilan bog`liq bo`lgan ishlarga 18 yoshgacha bo`lgan shaxslarning ishlashlari taqiqlangan kasblar ro`yxatiga ko`ra, davlat me`yornomalari asosida ularning ish kuni 4 soatdan oshmasligi lozim. Ishlab chiqarish amaliyoti, korxonada mehnatni tashkil etishning shakliga qarab, belgilangan miqdordagi o`quvchilar guruhi tarkibida, o`quvchilar brigadasida (zvenosi), mustaqil ishchi o`rnida, shuningdek, maxsus, kompleks brigadalarda o`tkaziladi. O`quvchilar ishlab chiqarish amaliyoti davrida korxonaning ishchilari ro`yxatiga kiritilmaydilar. O`quv guruhlarining ishlab chiqarish amaliyotiga umumiy rahbarlik amaliyot o`qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi. Amaliyot o`qituvchisi o`quvchilarni tegishli kasb va mutaxassisliklari bo`yicha ish joylariga taqsimlanishi, ishlab chiqarish ta`limi va amaliyoti dasturlarining bajarilishi, o`quvchilarning mehnat intizomi va mehnat xavfsizligiga rioya qilishlarini va boshqa vazifalarning bajarilishi yuzasidan javobgar sanaladi.

Ishlab chiqarish amaliyoti davrida kollej tomonidan biriktirilgan amaliyot rahbari amaliyot obyekti tomonidan biriktirilgan rahbar bilan birgalikda:

1-talabalarning ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya qilishlarini nazorat qiladi;

2-amaliyot vaqtida talabalarda vujudga kelgan muammolar va munozarali savollar bo`yicha tushuntirishlar beradi;

3-talabalar tomonidan dasturni to`liq bajarilishini nazorat qilib boradi;

4-hisobot daftarining yuritilishini tekshirib turadi;

5-amaliyot natijalari bo`yicha talabaning hisobotini ko`rib chiqadi.

6-amaliyot obyektlarida bajargan ishlari yuzasidan amaliyot bo`limiga hisobot beradi.

Amaliyot yakunida talaba sinov oluvchi hay`atga quyidagi hisobot va kundalik daftari; tavsifnoma; amaliyot jarayonida to`ldirgan hujjatlardan namunalar kabilar taqdim etishi lozim.

Nazorat savollari

1. Ishlab chiqarish ta`limining asosiy tarkibiy qismini tushuntirib bering?
2. Kirish yo`l-yo`riq maqsadi va uni o`tkazish ketma-ketligini tushuntiring?
3. Joriy yo`l-yo`riq maqsadi va uni o`tkazish ketma-ketligini tushuntiring?
4. Yakuniy yo`l-yo`riq maqsadi va uni o`tkazish ketma-ketligini tushuntiring?

Topshiriq:

O`quv - ishlab chiqarish va diplom oldi amaliyotlari samaradorligini oshirish yo`llarini ishlab chiqing?



O`quv-ishlab chiqarish ishlarini me`yorlashtirish

Reja:

1. O`quv–ishlab chiqarish ishlarini me`yorlash maqsadi
2. O`quv–ishlab chiqarish ishlarini me`yorlash metodlari
3. Shogirdlik vaqt me`yorini belgilash va unga qo`yiladigan talablar

Me`yorlash ishlab chiqarish ta`limi jarayoni uchun faqat texnik jihatdagina emas, balki pedagogik jihatdan ham katta ahamiyatga egadir. Me`yorlashning texnikaviy (hisob bilan) metodida faqat berilgan ishni bajarish uchun sarflangan vaqt aniqlanadi.

O`quv-ishlab chiqarish ishlarini me`yorlashning pedagogik ahamiyati shundaki, o`qituvchi o`quvchilardan har bir topshiriqni belgilangan vaqt me`yorida bajarishlarini talab qilar ekan, ularni mehnatning yuqori unumdor usullarini egallashga undaydi, maqsadga erishishda qat`iylikni tarbiyalaydi, ijodiy qobiliyatni o`stiradi. Tajriba ko`rsatishicha, o`quv ishlab chiqarish ishlarini me`yorlashga yetarlicha baho bermaslik o`quvchilar mehnatining unumdorligini pasaytiradi, davr talablaridan orqada qolishga sabab bo`ladi.

O`quvchilar tomonidan bajariladigan o`quv-ishlab chiqarish ishlarini me`yorlash quyidagi maqsadlarni ko`zda tutadi:

Ishlab chiqarish ilg`orlarining ish metodlari va usullarini o`quvchilar tomonidan asta-sekinlik bilan egallashga yordam berishni; o`quvchilarga vaqt faktorlarini qadrlashga o`rgatish va shu orqali o`qitishning oxiriga kelib korxonalarda shunga muvofiq kasb va malaka darajasidagi ishchilar uchun belgilangan me`yorlarni egallashlarini ta`minlashni;

ishlab chiqarish ta`limini to`g`ri rejalashtirish va mavjud jihozlardan to`g`ri foydalanish uchun boshlang`ich ma`lumotlarni aniqlashni;

o`quvchilarning belgilangan me`yorini bajarish ko`rsatkichlari asosida ularning ishlab chiqarish ta`limi bo`yicha o`zlashtirishlarini oqilona baholashga yordam berishni;

kasb-hunar kollejlarida o`quvchilar ishini texnik me`yorlash, ishlab chiqarish imkoniyatlari, texnologik jarayonga muvofiq ish rejimlari va ishlab chiqarish ilg`or tajribalarini hisobga olib o`tkaziladi. Tashkiliy-texnikaviy va boshqa xarakterdagi kamchiliklar natijasidagi yo`qotishlar vaqt me`yoriga kirmaydi.

Shogirdlik vaqt me`yorlarini to`g`ri aniqlash va qo`llash o`quvchilarda rejalashtirish va o`z faoliyatlaricha nazorat qilish malakalarining vujudga kelishiga, kasb mahoratining mukammallashib borishiga, umuman kasbiy-texnikaviy tayyorgarlik sifatining yaxshilanishiga ta`sir qiladi.

*Me`yorlash metodlari.* O`quvchilarga ishlab chiqarish ta`limi berishda ikki asosiy davrni: operatsion va kompleks davrni ajratib ko`rsatish mumkin. Operatsion davrda dastlabki malakalar shakllansa, kompleks davrda ular mukammallashadi va mustahkamlanadi.

Operatsion davr o`qituvchi o`quvchilarga mazkur mehnat operatsiyasini tashkil etuvchi ayrim harakat va usullarni to`g`ri hamda maqsadga muvofiqroq bajarishga o`rgatadi. Bu davrda o`quvchilarga vaqt me`yori (yoki mahsulot tayyorlash me`yori) haqida gapirish salbiy natijalar berishi mumkin, chunki buning oqibatida ularning e`tibori ishning sifat tomoniga emas, balki miqdor ko`rsatkichlariga qarab yo`llanishi mumkin. Shuning uchun ham o`quvchilar asosiy ish usullarini, ya`ni mehnat operatsiyalarini o`rganayotganlarida ularga me`yor haqida hech narsa gapirilmaydi. Ular faqat ma`lum ishlarning bajarilishi uchun tashkil etiladigan o`quv jarayonini rejalashtirish maqsadlarigagina xizmat qiladi. O`quvchilar bajaradigan kompleks ishlar me`yorlanadi va vaqt me`yori o`quvchilarga ma`lum qilinadi.

Shogirdlik vaqt me`yorini belgilash uchun avval hisob (texnikaviy) vaqt me`yori aniqlanadi. Hisob (texnikaviy) metodi orqali vaqt me`yorining quyidagi tarkibiy qismlari sarflanadigan vaqt miqdori aniqlanadi: operativ vaqt, ish joyiga qarash vaqti, dam olish tanaffuslari va tabiiy zarurat uchun sarflanadigan vaqt tayyorgarlik va yakunlash vaqti.

Operativ vaqt bu berilgan topshiriq (operatsiya)ni bajarishga sarf qilinadigan vaqt bo`lagidir. Operatsion vaqt asosiy (texnologik) va yordamchi qismlarga bo`linadi.

Asosiy (texnologik) vaqt deb, ishlov berilayotgan detalning geometrik va shakl o`lchamini (asbob-uskuna yoki tikuvchilik ishlari) o`zgartirishga yoki mahsulot qismlarining o`zaro joylashuvini (yig`uv ishlari) o`zgartirish uchun sarflanadigan vaqtga aytiladi.

Asosiy (texnologik) vaqt quyidagicha bo`lishi mumkin: qo`lda, agar detal` hech qanday mexanizm qo`llanmay, ishchi tomonidan ishlansa, masalan, tikuvchilik ishlari (qo`lda qavish, qirqish va hokazo).

Yordamchi vaqt deb, ishchining detallarni o`rnatish va olish, tikuv mashinasini ishlatish hamda to`xtatish, uzatishni ulash yoki uzish, detallarni o`lchash va boshqalar uchun sarflanadigan vaqtga aytiladi.

Ish joyiga xizmat qilish vaqti - kun bo`yi ish joyiga qarash uchun sarflanadigan vaqtdir. Bunga smena almashtirishga hamda asboblarni charxlash, mashinani ish jarayonida sozlash va yo`lga solish, qirindini yig`ishtirish, jihozlarni moylash va tozalash, asboblarni yig`ish va joyiga qo`yish uchun sarflanadigan vaqt kiradi.

Dam olish tanaffuslari vaqti ma`lum yuk aylanmasi va ish sur`ati oshirilgan jismoniy toliqtiradigan og`ir ishlarni bajarilishi uchun ketgan vaqt

me`yoriga qo`shiladi. Qolgan paytlarda dam olish vaqti me`yoriga kiritilmaydi.

Tayyorgarlik-yakunlash vaqti - bu ishchining mazkur ishga tayyorlanish va uni yakunlanishiga aloqador harakatlarni amalga oshirishi: texnika hujjatlar, asbob hamda moslamalarni olish va topshirish; chizmalar bilan tanishish va bajarilayotgan ish bo`yicha instruktaj olish; jihozlarni sozlash; ish joyini tayyorlash; asbob va moslamalarni o`rnatish va olish; ishni topshirish kabilarga sarflanadigan vaqtdir. Tayyorgarlik-yakunlash vaqti- bu ishchi ishning boshlanishi va yakunida berilgan detal` partiyasi ustida sarflaydigan vaqt; uning davomiyligi detal`larning soniga bog`liq emas.

Donali vaqt deb, bitta mahsulotni tayyorlash uchun sarflanadigan vaqtga aytiladi. Unga asosan (texnologik): yordamchi; ish joyiga xizmat qilish; dam olish uchun tanaffus vaqtlari kiradi.

Detal` (mahsulotlar) partiyasi yoki bitta detalni tayyorlash uchun zarur bo`lgan vaqt me`yori quyidagi formula bo`yicha chiqariladi.

$$T_{par} = T_{dona}\, Z + t_{t\text{-}ya}\ (\text{min}),$$

$$T_{par} = t_{asos} t_{yor} + t_x + t_d + \frac{t_{m-s}}{Z}\ (\text{min})$$

bunda-T_{par} har bir partiya uchun vaqt me`yori: T-dona-donali vaqt me`yori: Z-partiyadagi detallar soni: $t_{t\text{-}ya}$-detal` partiyasini tayyorlash-yakunlash vaqti; $t_{asos}$-asosiy (texnologik) vaqt; t-yordamchi vaqt; $t_x$-ish joyiga xizmat ko`rsatish vaqti; t-dam olish vaqti.

Bir partiya detallar (yoki bitta mahsulot) uchun vaqt me`yorini minutlarda aniqlab bir soat va bir smenadagi ishlab chiqarish me`yorini quyidagi formulaga ko`ra topish mumkin:

$$I_v q \frac{60}{T_{dona}}\ (\text{soat}) \qquad I_v q \frac{360}{T_{dona}}\ (\text{6 soatda})$$

Bunda I_v-ishlab chiqarish me`yori (bir soat yoki smenada): $T_{dona}$-donali vaqt me`yori.

Ishlab chiqarish me`yori – vaqt birligida (soat, smenada) ishlab chiqarilishi lozim bo`lgan mahsulotlar miqdori birligining natural (t, kg, m, dona) ifodasidir.

Korxonalarning buyurtmasi bo`yicha zavod ishlab chiqarish texnologiyasiga mos o`quv-ishlab chiqarish ishlariga hisoblash (texnik) me`yori sifatida korxonalarda qo`llaniladigan me`yorlar ishlatiladi. Korxonalarda ishlab chiqilgan me`yorlari yo`q bo`lgan o`quv-ishlab chiqarish ishlari hamda korxona texnologiyasidan sezilarli farq qiluvchi texnologiya (yirik seriyali va ko`plab ishlab chiqarish o`rniga kichik seriyali va donalab ishlab chiqarish) bo`yicha bajariladigan o`quv-ishlab chiqarish ishlarini

o`quv yurtlari me`yorlash instruksiyasida berilgan me`yorlar jadvalidan foydalanib, hisobot me`yorlarini mustaqil belgilaydi.

Umumguruh instruktaji, ish o`rnini tayyorlash va yig`ishtirish, dam olish uchun tanaffuslar hamda yakunlash instruktajlariga ajratilgan vaqtlar ishlab chiqarish me`yorini belgilash uchun o`quv-ishlab chiqarish vaqtida qo`shilmaydi.

Misollar keltiramiz. O`quv kuni - 6 soat yoki 360 minut. Ishning bajarish uchun belgilangan vaqt 60 minut, bunda o`quv-ishlab chiqarish vaqti 300 minut bo`ladi. Demak, o`quv me`yori har bir mahsulot uchun aytaylik 120 minut bo`lganda o`quvchining kundalik ishlab chiqarish me`yori quyidagicha bo`ladi.

Ishlab chiqarish me`yori - $\frac{300мин}{120мин}$ - 2,5 mahsulot (3 ta mahsulot olinadi).

Agar guruh bir xildagi ishlarni bajarsa unda mahsulot soni o`quvchilar soniga ko`paytirib, butun guruh uchun kundalik ishlab chiqarish me`yoriga ega bo`lamiz.

Belgilangan (o`quv yoki ishlab chiqarish) me`yorning haqiqiy bajarilishi o`qituvchi tomonidan foiz hisobga olinadi va o`quvchilarning ish vaqtidagi hisoblariga qayd etiladi. Berilgan vaqt me`yoriga nisbatan haqiqiy bajarilgan ishning foizi quyidagi formulalar bo`yicha hisoblanadi:

$$N_{haqiqiy} = \frac{N_{ber,me`yor}}{V_{haqiqiy}} 100$$

Misol. Agar N berilgan = 12 soat - berilgan me`yor, mahsulot tayyorlash uchun ketgan haqiqiy vaqt $V_{vaqt}$ =8 soat bo`lsa, unda $N_{haqiqiy}$ $=\frac{12}{8}.100$-150(%) bo`ladi.

*Shogirdlik vaqt me`yorini belgilash.* O`qitishning ma`lum o`quvchilarning o`quv ishlarini bajarish me`yorlari, korxonalarda ishlayotgan malakali ishchilar me`yoridan farq qiladi.

Korxonadagi me`yorni hisoblashda ishchida zaruriy malaka va ishlab chiqarish tajribasi mavjud deb nazarda tutiladi. O`quvchilar esa ta`limning boshlang`ich davrida talab qilinadigan malakalarga butunlay yoki yetarlicha ega bo`lmaydilar, ularning ishlab chiqarish tajribalari juda cheklangan bo`ladi. Shu sabablarga ko`ra o`quvchilar ishni malakali ishchilar uchun qabul qilingan texnik me`yorlar bo`yicha bajara olmaydilar.

O`quvchilarda uzoq vaqt davomida zo`r berib ishlashni talab qiluvchi qator ishlarni bajarish sharoitlari uchun yetarli jismoniy moslashganlikning yo`qligini ham hisobga olish lozim. Bundan tashqari, o`quvchilar o`quv topshiriqlarini bajarish jarayonida instruktaj olish uchun ham vaqt

sarflaydilar. Shu tufayli har bir kasb bo`yicha tuzatish koeffitsiyentlarining yagona shkalasi kiritilgan.

Malakali ishchining hisoblash (texnik) me`yoridan shogirdlik me`yoriga o`tishida tuzatish koeffitsiyentining shkalasi tajribada sinalgan, kasb-hunar kollejlarida jamlangan materiallar asosida o`qitishning har bir oyiga mos qiiib tuziladi. Unda ta`lim davridan tashqari o`quvchilar tomonidan bajariladigan o`quv-ishlab chiqarish ishlarining murakkablik darajasi hisobga olinadi. Shkala o`quvchilarning malaka darajalarini asta-sekin oshirishni va o`quvchilar o`quv-ishlab chiqarish ishlarini birinchi o`quv yilining oxiriga kelib 1-2 razryad, ikkinchi o`quv yiliningg oxiriga kelib 2-3 razryad me`yorlariga muvofiq bajarishlarini nazarda tutib tuzilgan.

Shogirdlik vaqt me`yori quyidagi formulaga ko`ra aniqlanadi:

$$T_{sh} = (T_{dona} + \frac{T_{T-я}}{Z})\ K \text{ yoki } T_{sh} = TK,$$

Bunda T_{sh} - shogirdlik vaqt me`yori, minut; $T_{dona}$-donali vaqt me`yori, minut (bir topshiriqni tayyorlash uchun sarflanadigan vaqt); T_{t-ya}-tayyorlash yakunlash vaqti, min; T-texnik (hisoblash) vaqt me`yori, minut; Z-partiyadagi detallar soni; K-me`yorlash bo`yicha instrukciyadagi jadvaldan olingan tuzatish koeffitsiyentiga muvofiq.

Vaqt me`yorini belgilash katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bunda o`quvchilar o`z mehnatlarini to`g`ri tashkil qilishga va unumli mehnat qilishga harakat qiladilar. Shu bilan birga vaqt me`yorini belgilash o`quvchilardan ko`proq mahsulot olishni nazarda tutmaydi. Asosiy e`tibor mehnatga to`g`ri munosabatda bo`lish, tejamkorlikni, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishga intilishni tarbiyalashga qaratiladi.

O`quv ishlari me`yorlashni tatbiq qilar ekan, ishlab chiqarish ta`limi o`qituvchisi o`quvchilar tomonidan me`yorning bajarilishini qat`iy hisobga olib borishi va ana shu asosda ularning har birida mehnat unumdorligini asta-sekin oshirib borish choralarini ko`rishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. K.Olimov, O. Abduquddusov, L. Uzoqova, M. Ahmedjonova, D. Jalilova. «Kasb ta`limi uslubiyati» o`quv qo`llanma. T: TFI, 2006. 197-bet.
2. Xodjaboyev A.R, Qosimov Sh.U. Amaliy kasbiy ta`limni tashkil qilish va o`tkazish metodikasi.-T: 2007
3. Xodjaboyev A.R, Xusanov I. Kasbiy ta`lim metodologiyasi -T: 2007

Nazorat savollari

Shogirdlik vaqt me`yori formulasini yozing.	operativ vaqt, ish joyiga qarash, dam olish tanaffuslari va tabiiy zarurat uchun sarflanadigan vaqt tayyorgarlik va yakunlash vaqti nimaning tarkibiy qismi sanaladi?
Asosiy (texnologik) vaqt –bu?	Yordamchi vaqt-bu?

Kasb-hunar kollejlarida darslarni tahlil qilish

Reja:

1. Darslarni tahlil qilish maqsadi
2. Dars tahlil turlari va ularning mohiyati
3. Darslarni tahlil qilish mezonlarini ishlab chiqish
4. Darslarni tahlil qilish metodikasi
5. Kuzatilgan darslarni rasmiylashtirish

Ta`lim-tarbiya jarayonini nazorat qilish pedagogik jamoa ishiga rahbarlik qilishning asosiy shakllaridan biridir. Nazorat qilish kamchiliklarni topish, ishlarning holatini tasdiqlash emas, balki o`quv jarayonini nazorat qilishda o`qituvchilar tomonidan olib boriladigan ta`lim-tarbiyaviy jarayonning mazmun darajasini tashkil qilishlari va metodikasini yaxshilash, ishdagi xato va kamchiliklarni ochish lozim. Rahbar xodimlarning o`quv ishini mazmunan va sifatini nazorat qilishlarini ularning aniqlangan kamchiliklarini bartaraf qilish, o`qitish jarayonini yaxshilash yuzasidan o`qituvchilarga aniq yordamlarisiz tasavvur qilib bo`lmaydi.

Dars tahlili-bu pedagog faoliyatini o`rganish pedagogik ishning ijobiy va salbiy tomonlarini chuqur bilishga asoslanilgan malakali yordam hamda ilg`or pedagogik tajribalarni ommalashtirishdir.

O`quv amaliyot o`qituvchisi va o`qituvchilar bir-birlarining mashg`ulotlariga kirishlari ularni tajriba almashish tartibida tahlil qilishlari va o`z ishlarini yanada takomillashtirish yo`llarini qidirishlari maqsadga muvofiqdir. To`g`ri tashkil etilgan nazorat o`quv amaliyot o`qituvchisi va o`qituvchilarning eng yaxshi tajribalarni aniqlash hamda uni tarqatish choralarini ko`rishda yordam beradi. O`quv ishini nazorat qilish doimiy, rejali obyektlar bo`lishi kerak. Uni shunday tashkil qilish kerakki, u o`quv amaliyot o`qituvchisi va o`qituvchilarda ijobiy tashabbusni, o`quv ish holatiga javobgarlik hissini uqtirsin. Mashg`ulotlarni tahlil qilishda quyidagi bosqichlar bo`yicha tayyorgarlik ko`rishi lozim:

1. Mashg`ulotlarga kirish maqsadini aniqlash,
2. Mashg`ulotlarga kirishni rejalashtirish,
3. Mashg`ulotlarni nazorat qilishga tayyorlanish,
4. Mashg`ulotlarga kirish,
5. Mashg`ulotlar tahlili,
6. Nazorat natijalaridan foydalanishning o`z ichiga oladi.

O`quv mashg`ulotlarga kirishda dars mazmunining o`quv dasturiga muvofiqligini, o`rganilayotgan materialning ilmiy rejasini va uning g`oyaviy yo`nalishini aniqlash, darslarda didaktikaning asosiy tamoyillariga rioya qilinayotganligini, dars turi o`qtishning metod va tamoyillarini to`g`ri tanlanganligini, darsning tarbiyaviy ahamiyatini, o`qituvchining shu fandan dars berishga va mazkur darsni olib borishga tayyorgarligini, darsni ilmiy, didaktik va metodik jihatdan to`g`ri tashkil qilinganligini o`rganish kabi maqsadlar belgilanadi.

Maqsadiga ko`ra nazorat quyidagi turlarga bo`linadi: frontal (kundalik umumiy tekshirish) va tematik nazorat

Tematik nazorat bu nazoratning amalda eng ko`p tarqalgan turi hisoblanadi. O`quv amaliyot o`qituvchisi va o`qituvchining ish tizimni o`rganishdir. Agar nazorat obyekti bir pedagog bo`lsa, nazoratning shakli shaxsiy, agar bir fan o`qituvchilari bo`lsa, predmetli-umumlashtiruvchi bo`ladi. Agar nazoratning obyekti bir o`quv guruhda ishlovchi o`qituvchilar bo`lsa, nazoratning shakli guruhli-umumlashtiruvchi bo`ladi: agar o`qituvchilarning bir guruh yoki o`quv muassasasiida ishlovchi o`qituvchi va ishlab chiqarish ta`limi o`quv amaliyot o`qituvchisi bo`lsa, unda kompleks-umumlashtiruvchi bo`ladi. O`quv amaliyot o`qituvchisi yoki o`qituvchining ta`lim-tarbiyaviy ishining sifatini frontal usulda tekshirganda ular o`z vazifalarini qanchalik vijdonan va batartib bajarayotganliklarini, qanday yordamga muhtojliklarini aniqlash kerak.

Mashg`ulotlarga bunday maqsadlarda kirish har bir o`quv yilining yarim yillik doirasida bir me`yorda rejalashtiriladi. Ilgari ishlarida kamchiliklar (pedagogik mahoratning pastligi, mashg`ulotlarining yomon rejalashtirilganligi, o`quvchilarni bilim va ko`nikma sifatlarining pastligi gruppada intizomning yomonligi) va shu kabilar sezilgan o`quv amaliyot o`qituvchisi hamda o`qituvchilarning o`quv mashg`ulotlarini tez-tez nazorat qilib turish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Bunday hollarda mashg`ulotni to`liq tahlil qilmay, balki o`qituvchining mashg`ulotlarga tayyorgarligi mashg`ulot mazmunining yoki mashg`ulot o`tish metodining to`g`riligi, xavfsizlik texnikasiga rioya qilish va shu kabilar haqida qisqacha ta`riflangan yozuv bilan cheklanish mumkin.

Maqsadiga ko`ra nazorat quyidagi shakllarga bo`linadi:

1. **Shaxsiy**- Agar nazorat obyekti bir pedagog bo`lsa;
2. **Predmetli-umumlashtiruvchi**. Agar bir fan o`qituvchilari bo`lsa;
3. **Guruhli umumlashtiruvchi**. Agar nazorat obyekti bir guruh ishlovchi o`qituvchi bo`lsa;
4. **Kompleks**. Agar nazorat obyekti o`quv muassasadagi barcha xodimlar bo`lsa.

**Mashg`ulot tekshirishni rejalashtirish.** O`quv muassasasi rahbarlarining darslarga kirishlari puxta o`ylangan reja bo`yicha olib boriladi. Rejalashtirilgan nazorat o`z vaqtida xatolarning oldini olish va o`qitishda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish imkonini beradi.

Ta`lim-tarbiyaviy jarayonning holat va mazmunini nazorat qilish rejasini o`quv muassasasining direktori (ma`naviy va ma`rifiy ishlar bo`yicha direkor o`rinbosari, o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari, kasb-hunar ta`limi bo`yicha direktor o`rinbosari, bosh o`quv amaliyot o`qituvchisi bilan birgalikda) har bir o`quv yarim yilligiga o`quv muassasasi xususiyatlari, pedagogik jamoasining salohiyati, o`quv yili yoki yarim yilligining natijalarini nazarda tutgan holda tuzadi. Pedagogik nazorat o`quv muassasasidagi metodik ish kompleksi bilan har tomonlama bog`langan bo`lishi lozim.

O`quv muassasasining rahbarlari o`qituvchi va ishlab chiqarish ta`limi amaliyot o`qituvchisining o`quv mashg`ulotlarini baholashda bir xil yondoshishlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga egadir. Mashg`ulotlarga kirish mashg`ulot jadvallari, o`qituvchi va ishlab chiqarish ta`limi amaliyot o`qituvchilarining ish rejalari va boshqa shartlarga ko`ra rejalashtiriladi. Endigina o`qituvchilik qilayotgan yoshlarning mashg`ulotlariga zaruriyat tug`ilganda kirish, ularning ishlari bilan tanishish hamda ular qanday yordamga muhtojligini aniqlash, tajribali o`qituvchilar mashg`ulotlariga esa ularni o`rganish va tajribalarini o`quv muassasasiining yetarlicha tajribaga ega bo`lmagan yosh xodimlari o`rtasida tarqatish maqsadida kiriladi.

O`quv muassasasi muhandis-pedagog xodimlarning darslariga kirishni yarim yillikka mo`ljallab rejalashtirish maqsadga muvofiq. Mana shunday rejalar asosida mashg`ulotlarga kirishning oylik, haftalik rejalari ham ishlab chiqiladi. Ularda mazkur davrda darslarda o`rganilayotgan dasturning bo`limlari yoki mavzulari aniqlanadi, darslarga kiriladigan sanalar, tekshirishning shakli va metodlari ko`rsatiladi.

O`quv muassasasi rahbarlarining o`quv mashg`ulotlariga kirish jadvali.

_____oy o`quv yili uchun

№	Rahbar xodimning F.I.O.	Oy kunlar 1 2 3 4 5	Kirishning maqsadi
1.		5/1	Metodik
2.		8/2	O`quvchilarni faollashtirish
3.		12/10	Fanlararo aloqa

**Mashg`ulotlarni tekshirishga tayyorlanishi.** O`quv muassasasi rahbarlari tomonidan qilingan pedagogik nazoratning saviyasi va ta`sirchanligi avvalo ularning tayyorlanish darajasiga bog`liq. Darslarni to`g`ri tahlil qilish uchun rahbarlar ta`lim-tarbiyaviy ishning mazmuni va tashkil qilinishning o`quvchilarni o`qitish va tarbiyalashning metod va shakllarini, hozirgi zamon ilmiy-texnika, pedagogika, metodikaga doir va boshqa adabiyotlarni kuzatib borishlari kerak. Darsga kirishdan oldin rahbar darsga kirish maqsadini aniqlaydi; kirish mo`ljallangan darsda o`rganiladigan o`quv materialining mazmunini bilib oladi; mazkur fan bo`yicha dastur talablari va shunga muvofiq darslik, metodik adabiyotlar bilan tanishadi, guruh jurnalini ko`rib chiqadi, o`quvchilarning joriy o`zlatirishlarini tahlil qilib, o`tilgan materialning guruh jurnalida qayd qilinishi, kelajak mavzular rejasiga muvofiq kelishini hamda bo`lajak darsda o`rganiladigan mavzuni aniqlaydi. Darsni tahlil qilish va dars davomida o`z kuzatishlarini yozishni tahliliy namunasini o`ylab qo`yadi.

Nazariy ta`lim darslarini tekshirishni boshlashdan oldin tekshiruvchiga o`quv xonasining holati, o`quv ko`rgazmali qo`llanmalarning belgilangan normativlariga muvofiqligi, ularning holati, zamonaviy ta`lim texnologiya vositalari hamda ko`rsatmali qurollar bilan ta`minlanganligi bilan tanishib chiqish tavsiya qilinadi.

Mashg`ulotlarga kirish-darsga kirish, uni o`tishni tahlil qilish, ta`lim-tarbiyaviy jarayonni nazorat qilishning asosi hisoblanadi. O`quv muassasasi rahbarlarining darslarga kirishlari ularga o`quvchilarni o`qitish va tarbiyalashning haqiqiy ahvoli, pedagog xodimlarning muvaffaqiyati va kamchiliklari bilan tanishishning imkonini beradi, bu esa o`z navbatida O`quv muassasasida ta`lim-tarbiyaviy ishlarni yaxshilashga yordam beradi.

Nazariy o`qish darslariga kirishda dars boshlanishidan oldin yoki o`quvchilar bilan birga kirish tavsiya etiladi; mashg`ulotlar haqida to`liq

tasavvurga ega bo`lish uchun darsning boshidan oxirigacha kuzatish kerak.

Agar o`qituvchining o`quv ishini joriy tekshirish mo`ljallansa, mashg`ulotlarga kirish haqida oldindan ogohlantirib qo`yish maqsadga muvofiq bo`lmaydi. Agar asosiy maqsad o`quv mashg`ulotlarini tematik o`rganish, yo`l-yo`riq berish, o`qituvchining malakasini oshirish bo`lsa, bu mashg`ulotlarga maxsus tayyorgarlik ko`rishlari uchun ularni oldindan ogohlantirib qo`yish maqsadga muvofiqdir. Ayrim hollarida yetarlicha tajribaga ega bo`lmagan o`qituvchining o`quv mashg`ulotiga kirishdan oldin u bilan birgalikda mazkur mashg`ulotlarga qo`yiladigan talablarni tahlil qilish, uning ba`zi metodik masalalarini ijodiy hal qilishga yordam berish tavsiya qilinadi.

Darsni tekshirish haqidagi yozuvlarni vertikal chiziq bilan uch bo`lakka ajratilgan qog`oz varaqasi yozish, yoki namunaviy varaqasiga yozish qulaydir. Ularning biriga dars jarayonida aniqlangan va o`tkazib yuborilgan xato kamchiliklar, ikkinchisiga ijobiy moment, o`rinli metodik usullar, uchinchisiga darsni olib borayotgan o`qituvchiga aytilishi kerak bo`lgan maslahat va tavsiyalar yozib boriladi. Tekshiruvchi darsdan so`ng qisqa yozuvlar asosida dars haqida to`g`ri xulosa tuza olish yoki batafsil tahlil qila olishi uchun kuzatuvchan, diqqatli bo`lishi, ko`rgan va eshitganlarini yodida saqlay bilishi lozim. Darsga kirgan vaqtda o`qituvchilarning daftarlari bilan albatta tanishish, yozuvlarning batartibligi, savodliligi, daftarlarning o`qituvchi tomonidan tekshirilishning doimiyligi va sifatiga e`tibor berish kerak. Tekshirish natijalari maxsus hujjat xizmatini o`tovchi nazorat jurnaliga yoziladi. Har bir rahbar xodim bu jurnalga kirgan darslari haqidagi o`z xulosalarini yozadi va batafsil tahlil qiladi, ta`lim-tarbiya jarayonidan olingan barcha faktlarni bajarishlari kerak bo`lgan tadbirlarni qayd qiladi. Jurnallardagi bunday yozuvlar asosida darslar tahlillari mashinkada yozdirilib, pedagogik xodimlarning mulohaza va takliflar, tarbiya va o`qitish bo`yicha ijobiy tajribalar bilan tanishib chiqishlari uchun pedagogik xonaga ilib qo`yiladi.

Dars tahlilining maqsadi, mazmuni va mohiyatiga ko`ra shartli ravishda ilmiy, metodik, didaktik, umumpedagogik va umumpsixologik kabi tularga bo`lish mumkin.

Ilmiy tahlil-bu berilayotgan bilimlarning ilmiy-nazariy jihatini, o`quvchi bajarayotgan mustaqil ishning maqsadga muvofiq yo`nalishi jihatdan to`g`riligini aniqlash demakdir. Bunda asosan quyidagilarni e`tiborga olish maqsadga muvofiq:

- o`qituvchining ilmiy metodik jihatdan darsga tayyorlanganlik holati;
- o`z mutaxassisligiga oid fan bo`yicha eng ilmiy nazariy axborotlar bilan qurollanganligi;
- ilmiy asoslangan axborotlar berish;

- dars jarayonidan ilmiy qoida va ta`riflarning to`g`ri bayon etilishi hamda ilmiy an`analarning o`qituvchilar ongiga singdirib borilishi;
- ilmiy qoida va ta`riflarni ravon, tushunarli, baland ovozda o`quvchilarga yetkazish;
- mantiqiy va o`rinli misollar o`z vaqtida keltirish;
- darslik materiallarining qo`shimcha adabiyot materiallari bilan boyitilishi;
- o`quvchi va o`qituvchi bajarayotgan laboratoriya, amaliy hamda o`quv amaliyot o`qituvchisi qilgan ishlarning ilmiy-nazariy jihatdan maqsadga muvofiqligi;
- o`quvchilar mazmuni ilmiy jihatdan to`g`ri, qisqa va mukammal bayon etishini o`qituvchi tomonidan nazorat qilinishi;
- dars davomida, yangi mavzuni bayon etishni o`qituvchi tomonidan nazorat qilinishi, ta`limni tarbiya bilan bog`lab olib borilishi;
- o`qituvchi va o`quvchilarning nutq madaniyati.

**Metodik tahlil-o`**qituvchining dars jarayonida qo`llayotgan metodlarining maqsadga muvofiqligi ta`limning turiga va bosqichiga, uning o`ziga xos hususiyatlariga qarab beligilanadi. O`quv materialini bayon qilish va tushuntirish jarayonida qo`llanilgan o`qitish texnologiyalarining shu materialga mosligi yoki mos emasligini aniqlash demakdir. O`qituvchi darsda qo`llagan usullarning samaradorligi, rang-barangligi, namunaviyligi, uning o`tgan yangi mavzu materialini o`qituvchilarning qay darajada o`zlashtirilganligi bilan belgilanadi. Bunda quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir:

- o`quv maqsadi va natijalarining to`g`ri belgilanganligi;
- darsning texnologik xaritasini ishlab chiqqanligi va amalga oshirilishi;
- darsni o`qituvchi tomondan innovatsion texnologiya asosida olib borish darajasi;
- dars bosqichiga mos ravishda metodlarni tanlanganligi va dars jarayoniga tatbiq etishda qoidalarga amal qilinganligi,
- metodni amalga oshirishda ta`limning tashkiliy shakllaridan unumli foydanishi.
- ta`lim metodi, shakli va ta`lim vositalarini uyg`unlashuviga erishganligi;
- dars kirish, asosiy va yakuniy qismlardan iborat bo`ldi;
- darsda o`quvchilarning faolligiga erishish( qaytar aloqani o`rnatish);
- darsga ajratilgan vaqtdan unumli foydalanish;
- talabalarning bilim, ko`nikma va malakalarini baholash metodlarini to`g`ri tanlanganligi;
- baholash mezonlarining to`g`ri ishlab chiqilganligi va mezon asosida baholashi

Didaktik tahlil. Bu o`qituvchining o`z darsini ta`lim tamoyillariga amal qilgan holda olib borilayotgani, ta`lim turlari samaradorligi uni belgilovchi qonun-qoidalariga amal qilish demakdir. Darsni didaktik jihatdan tahlil etishda quyidagi mezonlardan foydalaniladi:

- Darsning ilmiyligi, tarbiyaviyligi, tushunarlilik darajasi, ko`rgazmaliligi, namunalardan foydalanish, dars jarayonida talabalarning ongli tarzda faol ishtirok etishi, fanlararo bog`liqlikni amalga oshirilishi, ta`limning tizimliligi, puxtaliligi;
- ta`lim vositalaridan unumli foydalanilganligi;
- darsga qo`yiladigan talablarga to`la rioya qilinganligi.

Umumiy pedagogik tahlil -bu darsning ilmiy, didaktik va metodik jihatlarining o`zaro bog`liqligi tahlilidir

Kuzatilgan darsni hujjatlashtirish. O`qituvchilar darsini kuzatish va uni tahlil qilishni maxsus daftarga yozgan holda hujjatlashtirish maqsadga muvofiq bo`ladi.

Mazkur daftarga kuzatilgan darsni quyidagi pedagogik talablar asosida yozib borish mumkin.

1. Dars beruvchi o`qituvchi va sinf haqida umumiy ma`lumot:

– shu kungi sana va yil;
– o`qituvchining ismi va sharifi;
– oxirgi marta qachon va qaerda, qanday muddatga malaka oshirishning turidan o`tgan;
– uning ma`lumoti, pedagogik staji va unvoni;
– dars olib borgan guruhlar;
– o`qituvchi dars berayotgan fan;
– dars mavzusi;
– o`qituvchining darsdagi ta`lim-tarbiyaviy maqsadi;
– o`quv xonalarining ta`lim muassasasi gigiyenasi talablariga to`liq javob berish holati.

2. O`qituvchining darsga tayyorgarlik holati.

– o`qituvchining kundalik dars rejasi va bayoni (uning maqsadga muvofiq yoki nomuvofiq tuzilganligi);
– o`zi ishlagan va darsga olib kirish uchun tanlagan ko`rgazmali qurollari diagramma, jadval, rasm, turli kolleksiya hamda gerbariy kabilar);
– dars davomida kuzatish uchun tanlangan o`quv fil`mlar yoki diafil`mlar (ularning maqsadga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi);
– mazkur darsga tayyorgarlik davrida o`qituvchi tomonidan foydalanilgan ilmiy-metodik va umumiy pedagogik adabiyotlar ro`yxati.

3. Dars kuzatuvchining maqsadi: Shu o`rinda dars kuzatuvchi o`z oldiga qaysi maqsadni qo`ygan bo`lsa, tahlil daftarining shu qismiga yozib qo`yadi. Masalan, darsda o`qituvchining ta`limni, tarbiya bilan bog`lash yo`llari va bu boradagi metodlarini o`rganish.

4. Darsning borishiga ilmiy-metodik, didaktik, umumiy pedagogik va umumiy psixologik tavsif.

- darsning tuzilishi, uning qismlarini rejalashtirish, vaqtdan, sinf doskasidan va o`quv ko`rgazmali qurollardan foydalanish (mazkur dars mashg`ulotining kabinet tizimida olib borilganligi yoki olib borilmaganligi), o`quv xonasining sanitar-gigiyenik holati, sinfdagi o`quvchilar-ni o`quv anjomlari bilan qanchalik qurollanganligi
- darsning mazsuni-o`rganilayotgan mavzuning vaqt va mazmun jihatidan o`quv dasturiga mosligi, o`qituvchi bayon etayotgan mavzuning ilmiyligi, to`laligi, uning laboratoriya va amaliy ishlar bilan bog`lanishi, mavzuning o`quvchilar yoshiga mosligi, g`oyaviy qimmati, darsning tarbiyaviy ahamiyati, o`qituvchi bayonining ravonligi,
- o`tgan dars mavzusining so`ralishi, o`quvchilar bilimining baholanishi, yangi mavzuning o`tilgan mavzuga bog`lanishi,
- o`qituvchining dars o`tish usul va metodlari, dars davomida oldingi yoki o`tgan darsda o`tilgan mavzuni so`rashda, yangi mavzuni bayon qilishda, mustahkamlash va yakunlashda o`qituvchi qo`llagan usul va metodlar, ularning maqsadga muvofiqligi, dars davomida foydalanilgan ko`rgazmali qurollar, texnik vositalar, darsda o`quvchilarning mustaqil ishlashi,
- o`quvchilarning darsga munosabati-darsga o`z vaqtida yetib kelishi, diqqat bilan tinglashi, kuzatishi, qiziqishi, faolligi, ishtiyoqi, intizomi, mazkur fan asoslarini bilishi, mustaqil fikrlash qobilyati, amaliy yoki laboratoriya ishlarini mustaqil bajara olishi,

4. O`qituvchining darsga munosabati-o`z vaqtida yaxshi tayyorgarlik bilan mashg`ulotga yetib kelishi, mazkur sinf o`quvchilarining psixologiyasini bilishi, darsda o`quvchilarga nisbatan muomalasi, sinfni boshqara bilishi, ish uslubi, darsda o`qituvchining rahbarlik roli, nutq madaniyati, tashqi qiyofasi, o`quvchilar o`rtasidagi obro`si, darsda texnika vositalaridan foydalanishi, mazkur guruhning rahbari bilan aloqasi va hokazo.

5. Darsning ijobiy va salbiy tomonlari. Bunda dars kuzatuvchi darsning borishiga ilmiy metodik, didaktik, umumiy pedagogik hamda umumiy psixologik yo`nalishdagi tavsifi ichidan darsning yutuq va kamchiliklari terib olinadi va dars tahlilining shu qismiga ilmiy va umumpedagogik tavsiyalarini dars kuzatish daftariga yozishi.

6. Dars xulosasi-dars rejasining bajarilishi, o`qituvchining o`z oldiga qo`ygan ta`lim-tarbiyaviy maqsadiga to`liq erishishi yoki erisha olmaganligi, o`quvchilar bilimining sifati, darsdagi ta`limning davlat o`quv dasturiga, standartiga mosligi va ta`limning tarbiyaga bog`lanishi, o`qituvchining ilmiy-metodik jihatdan yordamga muhtojligi yoki mazkur o`qituvchining ilg`or tajribasini ommalashtirishga loyiqligi va hokazolar.

7. Dars samaradorligi va o`qituvchining ish faoliyatini yanada yaxshilashga oid dars kuzatuvchi tomonidan boriladigan takliflar ta`lim-tarbiya ishlarini yanada takomillashtirishga yordam berishi lozim.

Dars tahlili

O`qituvchining ismi sharifi

Kuzatilayotgan fan

Mavzu nomi

Bosqich----------Guruh-------O`quvchilar soni – Dars kuzatishdan maqsad----------

Tashkiliy masalalar:

1.1 Dars jihozi: o`quv xonaning sanitariya-gigiyena jihatdan holati, yoritilganligi, sinf invintarining ishga yaroqligi, mashg`ulotlarning o`z vaqtida boshlanishi, o`quvchilarning tashqi ko`rinishlarini tekshirish va mashg`ulotlarda bor-yo`qligini tekshirish metodi, o`qituvchining guruhni boshqara olishi, o`quvchilar diqqatini jalb qila olishi, o`quvchilar intizomi

1.2 O`qituvchining darsga tayyorlanishi:o`qituvchining taqvim-mavzuiy rejasi va dars rejasining mavjudligi ularni to`g`ri loyihalashtirilganligi, darsga oid tayyorlagan ta`lim vositalari (tarqatma materiallar, slaydlar, plakatlar).

Darsning borishi:

KIRISH QISMI----------

ASOSIY QISMI----------

YAKUNIY QISM----------

№	Mazmuni	1	2	3	4	5	Jami
1	O`quv xonasining jihozlanganlik darajasi						
2	Darsning ilmiy jihati						
3	Darsning didaktik jihati						
4	Darsning metodik jihati						
5	O`quv xonasining sanitar-gigiyenik holati.						
6	Darsning texnologik xaritasini ishlab chiqqanligi						
7	Baholash mezonlarining to`g`ri ishlab chiqilganligi						
		Jami					

Bapolash shkalasi:

31-35 ball «5» - «A`lo»
25-30 ball «4» - «yaxshi»
20-24 ball «3» - «o`rta»
20 balldan past qoniqarsiz

Umumiy ball _____ Dars baposi _____

Yutug`i	Kamchiligi	Taklif va mulohazalar

Ishlab chiqarish ta`limi mashg`ulotlari tahlili.

Amaliyot o`qituvchining ismi sharifi
Kuzatilayotgan fan

Mavzu nomi

Bosqich----------Guruh----------O`quvchilar soni----------

Dars kuzatishdan maqsad----------

1. Ishning tashqi sharoitlari:

1.1 O`quv ustaxonaning va o`quvchilarning ish o`rinilarini sanitariya-gigiyenik holati (yoritilishi,temperatura, ventiliyatsiya va tozaligi)

1.2 Umumiy maxsus va yordamchi jihozlarning yetarli miqdorda mavjudligi, uning holati va joylashtirilishining to`g`riligi

1.3 Nazorat o`lchovi va tekshirish asboblarining yetarliligi uning sifati va holati.

1.4 Amaliyot o`qituvchisi va o`quvchilarning ish o`rnini holati.

1.5 Amaliyot o`qituvchisi va o`quvchilar foydalanadigan texnikaviy hujjatlar (o`quv ko`rgazma qurollar , namunalar)

Kirish yo`riqnomasini o`tkazishda:

- tayanch bilim, ko`nikma va malakalarning dolzarbligi hamda tizimlashtirilganligi;
- tahsil oluvchilarni o`quv ishlab chiqarish ishlarini bajarishga ruhan tayyorgarligi;
- dars maqsadlarining qo`yilishi va o`quv materiali mazmunini tushuntirilishi, ko`zda tutilgan kasbiy malakalarni amaliy faoliyatda zarurligini ko`rsatilishi;
- ish o`rni, jihozlar, moslamalar, qurilmalar, texnik hujjatlar bilan tanishtirilishi;
- jihozlar, asbob-uskunalar, priborlar, moslamalar va shu kabilardan to`g`ri foydalanish va xavfsizlik qoidalariga amal qilishni tushuntirilishi;
- ish usullarining bajarilishini ko`rsatish;
- o`quv ishlab chiqarish ishlarining bajarilish ketma-ketligini tushuntirilishi;
- ish davomida qo`yiladigan tipik holatlar mohiyatini tushuntirish;
- bajarilayotgan o`quv-ishlab chiqarish ishlarini bosqichma-bosqich va ketma-ket nazorat qilib borilishini tushuntirish;
- tahsil oluvchilar bilimi va ular tomonidan xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishining tanlab nazorat qilinishi;
- kirish yo`l-yo`rig`ini tahsil oluvchilar tomonidan to`g`ri va to`liq o`zlashtirilganligini tanlab nazorat qilish;
- o`quv ishlab chiqarish ishlarini bajarish uchun sarflanadigan vaqt birligining ko`rsatib o`tilganligi;
- tahsil oluvchilarga o`quv ishlab-chiqarish vazifalarining berilishi.

Tahsil oluvchilar tomonidan mustaqil ravishda bajarilishi lozim:

- mashq;
- operatsiyalar;
- majmuaviy ish;
- laboratoriya-amaliy ishlari.

Maqsadli kuzatuv va nazorat:

- alohida tahsil oluvchi yoki guruh ishining boshlanishi;
- tahsil oluvchilar ish o`rnining tashkil etilganligi;
- ma`lum bosqichda o`quv-ishlab chiqarish ishining bajarilish sifati;
- tahsil oluvchilar tomonidan asbob-uskunalar, moslamalar, ko`rsatmali-texnologik xarita kabilardan to`g`ri foydalanayotganligi;
- tahsil oluvchilarning xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilishi;
- tipik xatolardan xabardor qilish va ularni bartaraf etish yo`llarini ko`rsatish;

Joriy yo`l-yo`riq.

- tahsil oluvchilar tomonidan asosiy va yordamchi ish-harakat usullarini to`g`ri bajarish tartibini tushuntirish;
- darsda o`quv ishlab chiqarish ishlarining jadalligini aniqlash;
- sifat va samaradorlik ko`rsatgichlarini nazorat qilish hamda xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilmaslik holatlarining oldini olish;
- qiyin ish-harakat usullarini qo`shimcha ravishda ko`rsatish va mohiyatini tushuntirish.

Yakuniy yo`l-yo`riq.

- o`quv guruhining o`quv ishlab chiqarish faoliyatini tahlil qilish;
- guruh ishini iqtisodiy jihatdan tahlil etish;
- tahsil oluvchilar yo`l qo`ygan texnik xatolarni tahlil etish;
- darsga yakun yasash;
- uyga vazifa berish;

Dars bo`yicha umumiy xulosa.

- darsning ijodiy tomonlari;
- kamchiliklari;
- tavsiyalar.

O`qituvchi (usta)ning imzosi.

Kuzatuvchining imzosi.

№	Mazmuni	1	2	3	4	5	Jami
1	O`quv xonasining jihozlanganlik darajasi						
2	O`quv xonasining sanitar-gigiyenik holati.						
3	Kirish yo`l-yo`riq						
	Darsning ilmiy jihati						
	Darsning didaktik jihati Darsning metodik jihati						

4	Joriy yo`l-yo`riq						
5	Yakuniy yo`l-yo`riq						
6	Darsning texnologik xaritasini ishlab chiqqanligi						
7	Baholash mezonlarining to`g`ri ishlab chiqilganligi						
8	Me`yoriy hujjatlarni yuritilishi						
		Jami					

Baxolash shkalasi:
31-35 ball «5» - «A`lo»
25-30 ball «4» - «yaxshi»
20-24 ball «3» - «o`rta»
20 balldan past qoniqarsiz
Umumiy ball _____ Dars bahosi _____

Yutug`i	Kamchiligi	Taklif va mulohazalar

Kuzatuvchilar _____ _____

Nazorat savollari

1. Darslarni tahlil qilishdan asosiy maqsad nima?
2. Dars tahlilining qanday turlarini bilasiz?
3. Darslarni tahlil qilish mezonlari qanday ishlab chiqiladi?
4. Darslarni tahlil qilish bosqichini tushuntirib bering.
5. Kuzatilgan darslar qanday rasmiylashtiriladi?
6. Darslarni ilmiy, metodik, didaktik, umumpedagogik va umumpsixologik jihatdan tahlil qilish bir-biridan qanday farqlanadi?

Mavzu: Bo`lajak kasb ta`limi o`qituvchilarning pedagogik amaliyoti

Reja:

1. Pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari.
2. Malakaviy pedagogik amaliyot dasturi mazmuni
3. Malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va amalga oshirish
4. Pedagogik amaliyot bo`yicha hujjatlarni rasmiylashtirish
5. Pedagogik amaliyotni baholash

Respublikamizning ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida, bo`lganidek, ta`lim tizimida ham tub o`zgarishlar kechmoqda.

«Ta`lim to`g`risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to`g`risida»gi qonunlarda ta`lim tizimi jumladan, Oliy va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`lim muassasalari oldiga yuqori malakali raqobatbardosh kichik mutaxassislar tayyorlash vazifasi qo`yilgan.

Kasb-hunar ta`limi tizimida malakali mutaxassislarni tayyorlash ko`p jihatdan maxsus fan o`qituvchilariga bog`liqdir. Malakaviy pedagogik amaliyot davrida kasbiy ko`nikma va malakalar tizimi yaratiladi, talabalar kerakli pedagogik amaliy tajribaga, kasbiy mahoratga ega bo`ladilar. Shuning uchun har bir pedagog o`z sohasining ustasi, mohir tarbiyachi, jonkuyar va fidoiy bo`lishi darkor. U o`z ustida tinmay izlanishi, o`z ishiga ijodiy yondashishi, talabalarni fanga qiziqtira olishi lozim. Bunga erishish uchun esa kasb-hunar kollejlari maxsus fan o`qituvchilari ta`lim-tarbiya jarayonini va o`z mehnat faoliyatining mazmunini to`g`ri rejalashtira olishi, axborot texnologiyalari hamda zamonaviy texnik vositalardan dars jarayonida samarali foydalana olishi kerak bo`ladi.

Bo`lajak umumiy amaliyot vrachi va o`qituvchilarni tayyorlashda Oliy va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`lim muassasalarida o`tadigan malakaviy pedagogik amaliyot muhim bosqichlardan biri sanaladi.

Malakaviy pedagogik amaliyotni amalga oshirish quyidagi ikki bosqichda passiv va faol amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Pedagogik amaliyotni passiv bosqichida- talabalar ta`lim muassasasida obyekt ya`ni kuzatuvchi-o`rganuvchi. Pedagogik amaliyotni faol bosqichida-bevosita ta`lim-tarbiya jarayonining faol tashkilotchisi va boshqaruvchi moderator sifatida faoliyat yuritadilar.

Malakaviy pedagogik amaliyot shartnoma asosida kasb-hunar kollejlari hamkorligida o`tkaziladi.

Malakaviy pedagogik amaliyotning maqsadi - talabalarning pedagogika, psixologiya, ta`lim pedagogikasi, pedagogik psixologiya, pedagogik texnologiyalar, pedagogik mahorat, kasbiy ta`lim metodikasi kabi fanlardan olgan nazariy bilimlarini ta`lim jarayoniga tatbiq etish orqali dastlabki kasbiy ko`nikma va malakalarni shakllantirish.

Malakaviy pedagogik amaliyotning vazifalari:

- talabalarning psixologiya, ta`lim pedagogikasi, pedagogik psixologiya, pedagogik texnologiyalar, pedagogik mahorat, kasb pedagogikasi kabi fanlardan olgan nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash;
- talabalarda umumiy psixologik-pedagogik qonuniyatlarni qo`llash malakalarini shakllantirish;
- talabalarni O`MKHT muassasalaridagi ta`lim-tarbiyaviy ishlarning na-

zariy va amaliy holati, ilg`or pedagogik tajribalari bilan tanishtirish;

- talabalarning shaxsiy va kasbiy mahoratilarini rivojlantirish;
- talabalarni bevosita O`MKHT muassasalaridagi pedagogik-psixologik faoliyatda qatnashishlariga erishish;
- talabalarda O`MKHT muassasalari o`quvchilarini kasbga yo`naltirish va tarbiyaviy tadbirlarni rejalashtirish, tashkil etish va o`tkazish bilan bevosita tanishtirish;
- pedagogik faoliyatning auditoriyada va ta`lim muassasasidan tashqari ishlarini rejalashtirish ko`nikmalarini shakllantirish;
- talabalarda o`qituvchining ish rejasi asosida tayyorlov yo`nalishini hisobga olgan holda, o`quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borish malakasini shakllantirish;
- ta`lim - tarbiyaviy ishlarning tashkiliy shakllarini amaliyotga tadbiq qilish ko`nikmalarini shakllantirish;
- talabalarda o`quvchilarni pedagogik va psixologik tavsiflash ko`nikmalarini shakllantirish;
- ilg`or pedagogik texnologiyalarni qo`llash ko`nikmalarini shakllantirish.

Malakaviy pedagogik amaliyot jarayonida talabalarning bilim, ko`nikma va malakasiga qo`yiladigan talablar:

a) bilishi kerak:

- malakaviy pedagogik amaliyotning maqsadi, vazifasini biladi;
- malakaviy pedagogik amaliyotni amalga oshirish texnologiyasini biladi;
- kollej tashkil etilish tarixi, uning tashkiliy tuzilmasi; moddiy-texnik bazasi; kabinetlar tizimi va ularning jihozlanganligi; mavjud kafedralar faoliyati haqida tushuncha bera oladi;
- o`quv mashg`ulotlari dars jadvali, o`quv mashg`ulotlar jurnalini biladi;
- o`quv mashg`ulotlari jurnalini rasmiylashtirish qoidalari biladi;
- dars o`tkazish uchun talab etiladigan o`quv me`yoriy hujjatlarni biladi;
- maxsus fan va o`quv amaliyoti mashg`ulotlarini tahlil qilish mezonlarini biladi;

b) amaliy ko`nikmaga ega bo`ladilar:

- kollej fan kabinetlar tizimi va ularning jihozlanganligini tahlil qila oladi;
- maxsus fan va o`quv amaliyoti mashg`ulotlarini tahlil qila oladi;
- maxsus fan va o`quv amaliyoti o`qituvchilarning shaxsiy yillik ish rejasi va hisoboti, taqvim mavzular rejasi, o`quv mashg`ulotlari jurnali, dars rejasi, ma`ruza matni, o`quv didaktik vositalar kabi hujjatlarni

tahlil qila oladi;

v) amalda bajara oladilar:

- guruh rahbarining ish rejasini tuza oladi va guruh talabalari bilan ishlay oladi;
- darsdan tashqari tadbirlar (to`garak faoliyati, guruh rahbarining tarbiyaviy ishlari) ni o`tkaza oladi;
- kuzatilgan darslarni rasmiylashtira oladi va natijlarni muhokama eta oladi;
- maxsus fan bo`yicha o`quv –uslubiy majmuasini ishlab chiqa oladi; taqvim-mavzular reja, mavzu bo`yicha dars rejasi, ma`ruza matn, tarqatma materiallar, taqdimot slaydlar nazorat savollari va baholash mezonlarini ishlab chiqa oladi;
- o`quv amaliyoti bo`yicha o`quv–uslubiy majmua ishlab chiqa oladi: taqvim-mavzular reja, mavzu bo`yicha dars rejasi, ma`ruza matn, yo`riqli texnologik xarita, tarqatma materiallar, taqdimot slaydlar nazorat savollari va baholash mezonlarini ishlab chiqa oladi;
- maxsus fan bo`yicha mustaqil darslarni tashkil etib, o`tkaza olaish;
- o`quv amaliyoti mustaqil mashg`ulotini tashkil etib, o`tkaza oladi;
- o`tkazilgan mashgulotni o`quv mashg`ulotlari jurnalining 4 shaklda rasmiylashtira oladi
- biriktirilgan o`quv guruhida sinfdan tashqari tadbirlar ssenariysini tayyorlab, o`tkaza oladi;
- malakaviy pedagogik amaliyot hisobotini tayyorlay oladi.

Malakaviy pedagogik amaliyot bo`yicha soatlar taqsimoti va mazmuni

№	**Malakaviy pedagogik amaliyot mazmuni**	**Soat**
	Passiv amaliyot	**12 s**
1.	Malakaviy pedagogik amaliyotning maqsadi, vazifasi ta`lim dasturi bilan tanishtirish: malakaviy pedagogik amaliyotni amalga oshirish texnologiyasi, baholash mezonlari haqida ma`lumot olish. Rotatsiya (talabalarning ish joylarini almashinish grafigi) va malakaviy pedagogik amaliyoti kundaligini yuritish qoidalar bilan tanishish. Kollej haqida ma`lumot berish: tashkil etilish tarixi, uning tashkiliy tuzilmasi; moddiy-texnik bazasi; kabinetlar tizimi va ularning jihozlanganligi; pedagog kadrlari tarkibi; vasiy korxonalar; tayyorlov yo`nalishlari; guruhlar va o`quvchilar soni; ichki tartib-intizom; namunaviy va ishchi o`quv reja, dasturlar, o`quv jarayon grafigi, dars jadvali. Moddiy-texnik bazasi bilan tanishish.	6 s
2	Talabalarni kafedralarga biriktirish: kafedra faoliyati haqida ma`lumot berish. Talabalarni kafedra o`qituvchilariga biriktirish, ilg`or tajribalarini o`rganish. Nazariy va amaliy mashg`ulotlarni tahlil qilish. O`quv me`yoriy hujjatlar: Oliy va o`rta maxsus, kasb-hunar tizimi DTS, tarmoq yo`nalishi bo`yicha TTS, namunaviy va ishchi reja, maxsus fan va o`quv amaliyoti dasturlarini o`rganish.	6s

	Faol amaliyot	60 s
3	Maxsus fan va o`quv amaliyoti o`qituvchilarning shaxsiy yillik ish rejasi, taqvim mavzular rejasi, o`quv mashg`ulotlari jurnali, dars rejasi, ma`ruza matn, o`quv didaktik vositalar kabi hujjatlar bilan tanishish, dars tahlili.	6 s
4	Maxsus fan va o`quv amaliyoti mashg`ulotlarini tahlil qilish, kuzatilgan darslarni rasmiylashtirish va muhokama etish	6 s
5	O`quv mashg`ulotlari jurnalini rasmiylashtirish qoidalari bilan tanishish. O`quv mashg`ulotlari jurnalini rasmiylashtirish. (1-19 shakllar)	6 s
6	Guruh rahbarining ish rejasi bilan tanishish va guruh talabalari bilan ishlash. Darsdan tashqari rejalashtirilgan tadbirlar (to`garak faoliyati, guruh rahbarining tarbiyaviy ishlar) o`tkazish.	6 s
7	Maxsus fan va o`quv amaliyoti xonalarini jihozlashga qo`yiladigan talablarini o`rganish.	6 s
8	Muayyan maxsus fan bo`yicha o`quv –uslubiy majmua ishlab chiqish: taqvim-mavzular reja, mavzu bo`yicha dars rejasi, ma`ruza matn, tarqatma materiallar, taqdimot slaydlar nazorat savollari va baholash mezonlarini tuzish.	6 s
9	Muayyan o`quv amaliyoti bo`yicha o`quv –uslubiy majmua ishlab chiqish: taqvim-mavzular reja, mavzu bo`yicha dars rejasi, ma`ruza matn, yo`riqli texnologik xarita, tarqatma materiallar, taqdimot slaydlar nazorat savollari va baholash mezonlarini tuzish.	6 s
10	Maxsus fan bo`yicha mustaqil darsni tashkil etish va o`tkazish O`quv amaliyoti mustaqil mashg`ulotini tashkil etish va o`tkazish	6 s
11	Malakaviy pedagogik amaliyot hisobotini tayyorlash	6 s
12	Malakaviy pedagogik amaliyot ishini himoya qilish	6 s
	JAMI	**72 s**

Malakaviy amaliyot tugaganidan so`ng talabalar quyidagi hujjatlarni

- Malakaviy pedagogik amaliyot kundaligi.

Malakaviy pedagogik amaliyot kundaligi bo`yicha hisoboti:

- Kasb-hunar kolleji haqida qisqacha ma`lumot: o`quv bazasi, tayyorlov yo`nalishlari, pedagog kadrlar tarkibi, o`quvchilar kontengenti, amaliy mashg`ulotlar o`tkaziladigan o`quv xonalari haqida ma`lumot;
- Amaliyotchi talabaning mustaqil dars ishlanmasi (mashg`ulot rejasi, ma`ruza matn, nazorat savollari, taqdimot slaydlari, tarqatma materiallari, talabalarning bilim, ko`nikma va malakalarini baholash mezoni)
- Maxsus fanlar bo`yicha mashg`ulot olib boradigan 4 ta tajribali pedagoglarning darslarini tahlili (2 ta nazariy va 2 ta amaliy mashg`ulotlar);
- Maxsus fanlar bo`yicha 1 ta nazariy va 1ta amaliy (mashg`ulot ishlanmasi).
- Tarbiyaviy soat ssenariysi;
- Amaliyot davomidagi talabalarning o`zaro kuzatgan mashg`ulotlar tahlili;
- Malakaviy pedagogik amaliyot rahbari tomonidan talabaga berilgan tavsifnoma.

Nazorat savollari

1. Pedagogik amaliyotning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Malakaviy pedagogik amaliyot dastur mazmunini tushuntirib bering.
3. Malakaviy pedagogik amaliyotni tashkil etish va amalga oshirish bosqichiga izoh bering.
4. Pedagogik amaliyot bo`yicha qanday hujjatlar rasmiylashtiriladi?
5. Pedagogik amaliyot natijalari qanday baholanadi?

Topshiriq

Passiv amaliyot vazifalari	Faol amaliyot vazifalari

Kasb-hunar kollejlarini boshqarish va ta`lim-tarbiya jarayonini nazorat qilish

Reja:

1. Ta`lim muassasalarini boshqarish tushunchasi
2. Ta`lim muassasalarini boshqaruv tuzilmalari;
3. Ta`lim muassasalarini boshqarishda rahbarlar faoliyati va rahbarlik vazifalarining taqsimlanishi

Boshqaruv har qanday jamiyatga xos bo`lgan, hayot va turmush zaruratidan kelib chiqadigan faoliyatdir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu faoliyat mohiyati yanada takomillasha boradi. Bundan ko`zlangan asosiy maqsad mehnat ahlining moddiy va ma`naviy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarishni va shu asnoda barcha ijtimoiy munosabatlarni taraqqiy ettirishdan iborat. Boshqaruv xalq manfaati ko`zlangan holda demokratik uslub negizida amalga oshiriladi. O`z-o`zidan ravshanki, bunday boshqaruv jarayonida inson omiliga, xususan, millat manfaati va milliy qadriyatlarni takomillashtirishga alohida e`tibor qaratiladi. Zotan, jamiyatimiz rivoji uchun boshqaruv hal qiluvchi kuchga ega bo`lmog`i lozim.

Boshqaruv – taraqqiyotning har qanday bosqichida jamiyatga xos bo`lgan ichki xususiyatdir. Bu xususiyat umumiy xarakterga ega. Zotan, bu

xususiyat ijtimoiy jamoa mehnatida, turmush va mehnat jarayonida kishilarning o`zaro aloqada bo`lishi, o`z moddiy va ma`naviy faoliyatining mahsulotini almashtirish zaruratidan kelib chiqadi.

Mehnatning har qanday shakli – ijtimoiy yoki birgalikda qilinadigan mehnat – idora qiluvchiga ma`lum darajada muhtojdir. Idora qiluvchi o`z jamoasi ishlarini bir-biriga muvofiqlashtiradi. Idora qiluvchi ishlab chiqarish organizmining mustaqil a`zolari harakatidan farq qilib, butun organizm harakatidan kelib chiqadigan umumiy vazifalarni bajaradi. To`g`ri boshqaruvning muhim sharti – boshqaruvchining, ya`ni rahbarning faoliyatidir.

Ma`lumki, jamiyat ***iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma`naviy*** sohalarni o`z ichiga qamrab oladi. Shunga muvofiq tarzda boshqarishning ham uchta asosiy yo`nalishi mavjud. eng asosiysi, iqtisodiy boshqaruvdir. Chunki, iqtisod – moddiy ishlab chiqarish jamiyat hayoti va taraqqiyotining negizini tashkil etadi. Milliy tiklanish iqtisodni qayta qurishdan boshlanadi. Iqtisodiy boshqaruv kun tartibidagi eng muhim masala hisoblanadi.

Ijtimoiy-siyosiy boshqaruv kishilarning turli jamoalari (ijtimoiy guruhlar, millatlar, elatlar, jamoalar va h.k.) o`rtasidagi munosabatlarni ham, ana shu jamoalar ichida kishilar o`rtasidagi munosabatlarni ham boshqarishdir. Bu turning asosiy mohiyati – turli guruhlar ittifoqini yanada mustahkamlash va taraqqiy ettirishdan iborat. Bu turdagi boshqaruvdan ko`zlangan maqsad, ijtimoiy tafovutlarni bartaraf etish, jamiyatning ijtimoiy bir xilligiga erishish, davlat boshqaruvini takomillashtirish, ijtimoiy o`z-o`zini idora qilishga aylantirishdir.

Jamiyatni va ayrim a`zolar ma`naviy rivojlanishini boshqaruv – boshqarishning yana bir asosiy turidir. Biz yashayotgan jamiyat taraqqiy etmog`i uchun yuksak intellektual xususiyatga ega bo`lishi kerak. Ijtimoiy tarbiyani, ilm va ma`rifat berishni, aholiga maishiy-madaniy xizmat ko`rsatishni ilmiy asosda boshqarish zarurati ana shundan kelib chiqadi. ilmiy texnika inqilobi asrida ma`naviy ishlab chiqarish sohasini boshqarish g`oyat katta ahamiyat kasb etadi. Bu shakldagi boshqarish umumta`lim maktablari, maktabgacha, maktabdan tashqari ta`lim muassasalari, o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalari, oliy o`quv yurtlari, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorldash fakultet va institutlarini boshqarish tushuniladi.

O`zbekiston respublikasida o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi tizimi



Hozirgi kunda kasb-hunar kollejlarini boshqarish oshkoralik, demokratiya va o`z-o`zini boshqarish asosida amalga oshiriladi.

Kasb-hunar kolleji o`z-o`zini boshqarishning oliy organi bo`lib, pedagogik kengash hisoblanadi va u:

- Kasb-hunar kolleji rivojlanganligining asosiy yo`nalishlarini o`quvchi va mutaxassislar tayyorlash va tarbiyalash sifatini oshirish va takomillashtirishni, qo`shimcha va moddiy texnika bazasini belgilaydi.
- Ta`lim mazmunini turli variantlarni muhokama qilish va tanlab olish (o`quv rejalar, dasturlar, darsliklar) o`quv-tarbiya jarayonining shakl va uslublarini, ularni amalga oshirish usullarini o`quvchilarni qabul qilish o`quv muassasasidan chiqarish, o`tkazishni muhokama qiladi va tanlaydi.
- Muhandis-pedagogik xodimlarning ijodiy tashabbuskorligini oshirish, ularning pedagogik tajribasini ommalashtirish bo`yicha malaka oshirish ishlarini tashkil qiladi.
- O`qituvchilar kasbiy toifa berish to`g`risidagi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida, o`quvchilar va ota-onalarning fikrlarini hisobga olib, takliflar kiritilgan holda muhandis-pedagog xodimlarni attestatsiyadan o`tkazadi.
- Kollejning ilmiy-pedagog birlashmalari va qabul komissiyasining hisobotini eshitadi va muhokama qiladi.

Quyida akademik litsey va kasb-hunar kollejlarining boshqaruv tuzilmasi keltirilgan:

Akademik litseyning namunaviy boshqaruv tuzilmasi



Kasb-hunar kollejining namunaviy boshqaruv tuzilmasi



Pedagog kengash raisi-direktoridir. Pedagog kengash majlislari bir oyda bir martadan ortiq o`tkaziladi. Kengash qarori umumiy ochiq ovoz berish orqali qabul qilinadi. Pedagog kengash qarori kollej bo`yicha buyruq chiqqandan so`ng kuchga kiradi.

Kollejning faoliyatini boshqarish direktor tomonidan amalga oshiriladi. Direktor oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi va vakolatli davlat organlari tomonidan tayinlanadi va kasb-hunar kollejidagi barcha ishlarning natijasi uchun javobgardir. Kollej direktor ta`lim muassasasi nomidan ish boshqa tashkilotlar oldida vakolatga ega.

Direktor kollejning mulki, moddiy bazasi va mablag`ining taqsimotchisi hisoblanibi, shartnomalar tuzadi, ishonch varaqalarini beradi, davlat banklarida hisob ochadi va kreditlarni boshqaradi.

Kasb-hunar kolleji ta`lim-tarbiya jarayonini boshqarishda rahbarlar faoliyati va rahbarlik vazifalarini taqsimlanishi

Pedagogik jamoaga o`quv muassasasi direktori bilan birgalikda o`quv ishlari bo`yicha direktorning birinchi o`rinbosari, ma`naviy-ma`rifiy ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari, kasb-hunar ta`limi bo`yicha direktor o`rinbosari, rahbarlik qiladilar.

Boshqarish san`ati shundan iboratki, unda o`quv muassasasining barcha rahbarlari jamoasini yagona maqsadni egallashga yo`llash bilan bir-birlarining faoliyatlarini takrorlamasliklari, ayniqsa har bir rahbar o`z vazifasini aniq bilishi kerak. O`quv muassasasining direktori va uning o`rinbosarlari ishida bir-biriga aloqador, ba`zan esa umumiy vazifaga ega bo`lgan ishlar uchraydi. Shuning uchun bu vazifalarni konkret sharoitlarda aniq taqsimlanishi juda muhimdir, bu esa ish jarayonida takrorlashning oldini oladi va o`quv muassasasidagi biron obyektning nazoratsiz qolishiga yo`l qo`ymaydi.

Pedagogik jamoaning faoliyatiga muvaffaqiyatli rahbarlik qilish uchun direktor va uning o`rinbosarlari ish vaqtni to`g`ri taqsimlashlari muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik tizimni boshqarishda quyidagi o`quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish; o`quv- tarbiya jarayonini tashkil etish; o`quv- tarbiya jarayonini nazorat qilish; kafedra mudirlari va o`qituvchilar bilan ishlash; ota-ona va o`quvchilar bilan ishlash; metodik ishlarni tashkil etish; kasbga yo`llash; o`quv-tarbiya jarayonini tahlil qilish va hisobot tayyorlash kabi yo`nalishlar bo`yicha ish olib boriladi.

Nazorat savollari

1. Boshqaruv- bu?
2. Kasb-hunar kollejining boshqaruv tuzilmasini sxema tarzida izohlang?
3. O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi tizimini boshqarish tuzilmasini sxema tarzida izohlang?
4. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari boshqaruv tuzilmasining farqi nimada?

Izohli lug`at

**Ta`lim** — bilim berish, malaka va ko`nikma hosil qilish jarayoni, kishini hayotga, mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta`lim jarayonida bilim o`zlashtiriladi va tarbiya amalga oshiriladi.

Kasbiy pedagogika – umumiy pedagogikaning bir sohasi bo`lib, u tarbiya, ta`lim, o`qitish haqida qator nazariy va amaliy ma`lumotlar beradi. Kasbiy pedagogika sanoat, ishlab chiqarish va mehnat pedagogikasining masalalari bilan shug`ullanadi. Kasb-hunar ta`limi pedagogikasi bir necha bo`limlarga bo`linib, bu bo`limlarda kasbiy pedagogikaning asoslari va muhim masalalarini, ya`ni kasb-hunar ta`limi yo`nalishlari, mehnat pedagogikasi, kasb-hunar didaktikasi kabi masalalarni qamrab oladi. Shuningdek, ularda kasb-hunar tarbiyasining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari, kasb-hunar ta`limi nazariyasi va kasb-hunar ta`limi huquqi o`rganiladi.

**Kasb ta`limi texnologiyasi** — o`qitish va o`qish jarayonini ishlab chiqish, amalga oshirish va baholash usuli bo`lib, maqsadga erishishga yo`naltirilgan holda insonlarning o`rganish qobiliyati va ular o`rtasida muloqot to`g`risidagi tadqiqotlar natijasiga hamda ta`lim jarayonini yanada samarali tashkillashtirishning jonli, jonsiz vositalari bilan shug`ullanishga asoslanadi.

Didaktika – grekcha didaskien so`zidan olingan bo`lib, o`qitaman, o`qishni o`rgataman ma`nolarini anglatadi. Didaktika bu o`qitish nazariyasidir. Didaktika o`qitish jarayonining shakllari, metodlari, tamoyillari, mazmuni, vazifasi va maqsadlarini ishlab chiqadi.

Metodika– pedagogikaning o`qitish, qonuniyatlari, qoidalari, tashkil etish shakllari, amalga oshirish va natijalarini nazorat qilib, baholash metod hamda vositalarini o`zida mujassamlashtiruvchi fan tarmog`idir. Har bir o`quv fani, o`qitish sohasi o`rgatishning vazifalari, mazmuni, metodlari va tashkiliy ko`rinishi haqidagi metodika asosida quriladi.

**O`qitish metodikasi** - bu turli usullar tizimi bo`lib, o`quv-didaktik materiallardan foydalanish orqali belgilangan maqsadga erishish uchun nazariy dars va amaliy mashg`ulotlar paytida qo`llaniladigan usullar majmuasidir.

Kasbiy ta`lim metodikasi ijtimoiy hayotning ma`lum sohasida faoliyat ko`rsatish uchun zarur bo`lgan bilim, amaliy ish-harakat usullarini shakllantirish qonuniyatlari, qoidalari, shakl, metod va vositalari hamda mazmuni haqidagi pedagogikaning muhim tarmog`idir.

Metod – iborasi (yunoncha-methodas-tadqiqot yoki bilish yo`li, nazariya, ta`limot ma`nosini anglatib) voqelikni bilish, o`zlashtirish, o`zgartirish usullari majmuasidir. Metod insonning amaliy faoliyati negizida vujudga

kelgan. Metod – pedagogik jarayon elementi sifatida mazmun — maqsadlarga maksimal mos kelishi kerak, ana shunda – tarbiya, o`qish, o`rganish amalga oshadi. Metodning asosiy vazifasi – qobiliyatni rivojlantirish. Kasbiy faoliyatda metodning asosiy ko`rsatkichi – uning kasbiy faoliyat vositalariga mosligidadir.

**Ta`lim metodi** - ta`lim jarayonidagi ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchining muayyan o`quv maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan birgalikdagi hamkorlik yo`lidir.

Metodologiya – «metod» va «logiya» iboralarining birligida bilish faoliyati usuli, tuzilishi, vositalari va mantiqiy tartibi haqidagi ta`limot ma`nosini anglatadi.

Bilim - bir butunlikni tashkil qiluvchi qismlarning ichki zaruriyatidan kelib chiqqan bog`liqlikdir. Uni qonuniyat deb ham yuritiladi. Chunki bu zaruriy bog`liqlik narsa va hodisalarning tabiatidan kelib chiqadi va insonning ixtiyoridan tashqari mavjud bo`ladi. Uni o`zgartirib bo`lmaydi. Bilim kishidan kishiga ma`lumot (axborot) orqali o`tadi.

**Ko`nikma va malakalar**-ko`nikma va malakalar deganda biror shaxsning muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishi uchun shart-sharoitlar yaratib beruvchi, tashqaridan kuzatish mumkin bo`lgan harakatlari va reaksiyalari tushuniladi.

Malaka- kishi egallagan bilimlari ko`nikma bosqichidan o`tib, doimiy harakat turiga aylanishi, mahorat hosil qilishi.

Mahorat- o`zlashtirilgan bilimlar va hayotiy tajribalar asosida barcha amaliy harakatlarni (shu jumladan dars berishni) kam kuch va kam vaqt sarflab bajarish.

Baholash - ta`lim jarayonining ma`lum bosqichida o`quv maqsadlariga erishilganlik darajasini oldindan belgilangan mezonlar asosida o`lchash, natijalarni aniqlash va tahlil qilishdan iborat jarayondir.

O`rta maxsus, kasb-hunar ta`limining ta`lim yo`nalishlari mutaxassisliklar va kasblar tasniflagichi-O`MKHTi o`quv muassasalarida kichik mutaxassislarni tayyorlash bo`yicha ta`lim yo`nalishlari, mutaxassisliklar va kasblarning tizimlashtirilgan ro`yxatidir.

O`MKHT tayyorlov yo`nalishlari va mutaxassislar kodi- kasbiy faoliyat sohalariga muvofiq kasblar va mutaxassisliklar bo`yicha tayyorlov yo`nalishlari ixtisoslashtirilgan ro`yxatining raqamli belgisidir.

Kasb - inson mehnat faoliyati mahsuli bo`lib, maxsus kompleks tayyorlash davrida va ish tajribalari asosida egallagan nazariy bilim, amaliy ko`nikma va malakalar majmuidir.

Mutaxassislik - maxsus tayyorlov davrida va ish tajribalari asosida ma`lum faoliyat uchun o`zlashtirilgan bilim, ko`nikma va malakalardan iborat majmuadir.

Darslik – davlat ta`lim standarti, o`quv dasturi, uslubiyoti va didaktik talablari asosida belgilangan, milliy istiqlol g`oyasi singdirilgan, muayyan o`quv fanining mavzulari to`liq yoritilgan, tegishli fanning asoslarini mukammal o`zlashtirishga qaratilgan hamda turdosh ta`lim yo`nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

O`quv qo`llanma – darslikni qisman to`ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo`yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o`zlashtirilishini ta`minlovchi, ayrim bob va mashg`ulotar yechimiga mo`ljallangan nashr.

**Ta`lim vositalari** - o`quv materialini ko`rgazmali taqdim etish va shu bilan birga o`qitish samaradorligini oshiruvchi yordamchi materiallar hisoblanadi.

**Ta`limning texnik vositalari (TTV)** - o`quv materialini ko`rgazmali namoyish etishga, uni tizimli yetkazib berishga yordam beradi; talabalarga o`quv materialini tushunishlariga va yaxshi eslab qolishlariga imkon beradi.

Yordamchi ta`lim vositalari (YOTV) – grafiklar, chizmalar, namunalar va h.k. boshq.

O`quv - uslubiy materiallar (O`UM) - o`quv materiallar, o`zlashtirilgan o`quv materiallarini mustahkamlash uchun mashqlar. Bular talabalarning mustaqil ishlarini faollashtirishga yordam beradilar.

Grafikli tashkil etuvchi – fikriy jarayonlarni ko`rgazmali taqdim etish vositasi.

**Ta`lim shakllari** (forma-lotincha-tashqi ko`rinish) - bu usul o`quv jarayonini mavjudligi, uning ichki mohiyati, mantiqi va mazmuni uchun qobiq.

Ommaviy ish (frontal) - barcha ta`lim oluvchilar oldiga bir xil topshiriq bajarish maqsadi qo`yiladi.

Jamoaviy ish (kollektiv) - ham umumiy va guruhlariga taalluqli bo`lishi mumkin: 1) oldinda turgan ish rejasini hamkorlikda muhokama qilish; 2) majburiyatlarni bo`lish, hisobot shaklini tanlash; 3) xulosalarni muhokama qilish (tartib bilan alohida ta`lim oluvchilar fikrlari tinglanadi va

muhokama qilinadi); 4) Ma`qul xulosalarni shakllantirish (umumiy kelishuv bilan).

Guruhli - kichik guruhlarda hamkorlikda bir topshiriqni bajarish.

Yakka tartibli (individual) - o`quv topshirig`ini yakka o`zi bajarishi.

Nazorat – doimy tekshirish yoki nazorat maqsadidagi tekshiruv. Ta`lim oluvchilarni bilim, ko`nikma, malakalarini (BMK) aniqlash,o`lchash va baholashni anglatadi.

Boshqaruv - bu tartibga solish darajasini oshirish orqali ijtimoiy tizim faoliyatini takomillashtirishga yo`naltirilgan, faoliyatning maxsus shakli.

Maqsadni belgilash - didaktik vazifalarni aniqlash, o`quv natijalarini shakllantirish. Bu pedagogik faoliyatni asosiy omili bo`lib, ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchining birgalikdagi faoliyati harakatini umumiy natijaga yo`naltirish.

Tashxis - ta`lim oluvchilar xususiyatlarini va mavjud moddiy - texnik imkoniyatlarni o`rganish. Bu maqsadni to`g`rilash zarurligiga va ularga erishish vositalarini tanlashga imkon beradi.

Bashorat qilish - o`rnatilgan vaqt ichida mavjud sharoitlarda pedagogik va o`quv faoliyati natijalarini oldindan ko`rish.

Loyihalash - oldindagi faoliyat modelini tuzish, mavjud sharoitlarda o`rnatilgan vaqt mobaynida yo`l va vositalarni tanlash uchun, maqsadga erishish bosqichlarini ajratish, ular uchun alohida vazifalarni shakllantirish, o`quv axboroti va qaytar aloqani yetkazish vositasi va yo`llarini aniqlash.

Rejalashtirish - oldindagi o`zaro bog`liq pedagogik va o`quv faoliyatining rejasini ishlab chiqishdan iborat bo`ladi. U texnologik xarita ko`rinishida rasmiylashtiriladi.

Texnologik jarayon - ishlab chiqariladigan mahsulotga ishlov berishning yagona jarayonini hosil qiluvchi texnologik operatsiyalar yig`indisi.

Texnologik operatsiya - ishchi tomonidan o`zining ish joyida bajariladigan, yakuniga yetkazilgan harakat ko`rinishidagi jarayonning bir qismi.

Texnologik xarita - ma`lum bir mahsulotni ishlab chiqarish texnologik operatsiyalarini ketma-ketligini bayon qiluvchi texnik hujjat.

Texnologik rejim - texnologik operatsiyalarni amalga oshirishni belgilovchi tartib bo`lib, ma`lum bir mahsulotni ishlab chiqarishda bajariladigan operatsiyalarning vaqti, shartlarini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov. Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent., 1998.
2. С.Я. Батиушев. Профессиональная педагогика. "Профессиональное образование". Москва. 1997. 511 с.
3. Макеинко. Н.И. Ҳунар-техника билим юртларида педагогик процесс. Ўкитувчи. Тошкент.1977- 370b
4. Frank Vengkefer, Berufiche Bildung und Consulting GmbH, («Kasbiy pedagogika» maxsus sohasining muhim masalalar asosida Frank Vengkeferning konsepsiyasi)., D-13189 Berlin, 2002.
5. B. Haydarov, Dexkanova va boshqalar. Baholash metodlari. Toshkent. Osiyo taraqqiyot banki. 2003. - 156 b.
6. B. Haydarov, Dexkanova va boshqalar.Ta`lim samaradorligini oshirish yo`llari. Toshkent. Osiyo taraqqiyot banki. 2002. - 156 b.
7. K.Olimov, O. Abduquddusov, L. Uzoqova, M. Ahmedjonova, D. Jalilova. «Kasb ta`limi uslubiyoti» o`quv qo`llanma. T: TFI, 2006. 197-bet.
8. Rashidov X., Xabib X. va Eldasheva G., Zakirov A. Kasbiy pedagogika. -T: 2007
9. O. Abduquddusov, X.Rashidov. Kasb-hunar pedagogikasi. – T.: 2010.

Mundarija

Kasb ta`limi metodikasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari 5

Kasb-hunar ta`limi mazmuni 10

Kasb-hunar ta`limi tizimi va jarayoni 31

Maxsus fan va ishlab chiqarish ta`limi o`qituvchisining faoliyat sohalari va unga qo`yiladigan talablar 35

Kasbiy ta`lim metodlari 42

O`quv-didaktik material hamda vositalarni tayyorlash va ulardan foydalanish 68

Kasb-hunar kollejlarida o`quvchilarning bilim, ko`nikma va malakalarni nazorat qilish va baholash 77

Kasb ta`limini rejalashtirish 94

Kasb-hunar kollejlarida o`quv, ishlab chiqarish amaliyotlarni tashkil etish va o`tkazish 106

O`quv-ishlab chiqarish ishlarini me`yorlashtirish 113

Kasb-hunar kollejlarida darslarni tahlil qilish 118

Bo`lajak kasb ta`limi o`qituvchilarning pedagogik amaliyoti 130

Kasb-hunar kollejlarni boshqarish va ta`lim-tarbiya jarayonini nazorat qilish 135

Q.T.OLIMOV

KASB TA‘LIMI METODIKASI

5140900 (5111000) - “Kasb ta’limi” yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma